

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UO‘K: 811.111'38+811.512.133'38**

**Usmonova Umida Baxtiyorovna**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILI PUBLITSISTIK MATNLARINING  
FUNKSIONAL-STILISTIK VA PRAGMATIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini  
olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Mamatov Abdug‘afur Eshonqulovich  
filologiya fanlari doktori, professor**

**Jizzax – 2024**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. Ingliz va o‘zbek tilida matn tadqiqi</b> .....	13
1.1-§. Zamonaviy tilshunoslikda matnni o‘rganish masalalari .....	13
1.2-§. Publitsistik janrlar va publitsistik matnning o‘ziga xos xususiyatlari.....	29
1.3-§. Publitsistik matnni lingvopragmatik tahlil qilish tamoyillari.....	45
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	56
<b>II BOB. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarning sintaktik va funksional-stilistik xususiyatlari</b> .....	57
2.1-§. Ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik matnlar sarlavhalarining o‘ziga xosligi va mushtarakligi .....	57
2.2-§. Ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik matnlarda subyekt va uning ifodalanishi.....	69
2.3-§. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarning morfologik aspekti.	74
2.4 -§. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarning sintaktik aspekti...	81
2.4.1. Publitsistik matnda so‘z birikmalarining xususiyatlarari.....	81
2.4.2. Publitsistik matnda gap turlarining funksional-stilistik xususiyatlari.....	91
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	99
<b>III BOB. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarda lug‘aviy birliklarning lingvopragmatik tadqiqi</b> .....	100
3.1-§. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarda nutqiy aktlarning faollashuvi .....	100
3.2-§. Publitsistik matn tahlilida so‘zning shakliy va ma’naviy turlari.....	110
3.3-§. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarda o‘zlashma frazeologizmlarning lingvopragmatik tahlili.....	122
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	128
<b>UMUMIY XULOSA</b> .....	129
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	133

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida XX asrdan boshlab matnga lingvopoetik, lingvomadaniy, funksional-semantik jihatdan yondashuvga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, matnda qo'llangan til birliklarning funksional-semantik tahlili orqali har bir vositaning lingvistik tizimda tutgan o'rnini belgilanmoqda. Jamiyat taraqqiyotida tilning ahamiyati qanchalik muhim bo'lsa, uning tadqiq etilishi, muhofaza qilinishi, boyitib borilishi ham shunchalik ahamiyatlidir. Zamonaviy tilshunoslikda yuzaga kelayotgan yangi tahlil usullari orqali publitsistik matnni leksik-grammatik, lingvomadaniy hamda lingvopragmatik jihatdan tadqiq qilish muhim zaruratga aylanib bormoqda. Chunki til taraqqiyoti doirasida til birliklarining chog'ishtirma tadqiqi, qardosh bo'lmagan tillarda lingvistik, milliy va madaniy xususiyatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida publitsistik matnni zamonaviy lingvistikaning yangi yutuqlari bilan bog'liq ravishda tadqiq etishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Matnning semantik, sintaktik, stilistik va pragmatik tadqiqi borasida Mannheyim, Frankfurt, Mersin, Belgorod, Vladivostok universitetlarida zamonaviy tadqiqot usullari asosida ilmiy izlanishlar va qator tadqiqotlar olib borilgan. Shu jihatdan, publitsistik matnning funksional-stilistik va pragmatik xususiyatlarini tilshunoslikning markaziy obyekti sifatida yoritish va bu borada xorijiy tajribalarni qo'llash hamda ilg'or qarashlarni ijodiy o'zlashtirish tendensiyasini shakllantirish zaruriyati mavjud.

Mamlakatimizda birinchi masala sifatida ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, milliy tilimizga davlat tili maqomi berilishi o'zbek tilshunosligida keng qamrovli tadqiqotlar rivojlanishi uchun zamin yaratmoqda. "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqimiz yo'q"<sup>1</sup>. Shu bois tillarni chuqur o'qitishga katta

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир» мавзусида

e'tibor qaralib, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida tillarning o'zaro ta'siri, lingvistik interferensiya, tillarning lingvopragmatik aspektlarini o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish"<sup>2</sup> ga alohida e'tibor qaratilishi xorijiy tillarni nazariy va amaliy egallash xalqlararo munosabatlarni mustahkamlash asnosida ingliz va o'zbek tili publitsistik matnlarining funksional-stilistik va pragmatik tadqiq etish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda. Bunda turli tizimli hisoblangan ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarining funksional-stilistik va pragmatik xususiyatlarini chog'ishtirish tamoyillarini ishlab chiqish va o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash masalasini yechish hamda olingan natijalarni, chet tilini o'qitishni amaliyotga tatbiq etish va xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishga zamin yaratishi bilan ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil

---

Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси// Халқ сўзи, 2017 йил 4 август. – № 153 (6847). – Б. 1-4.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони // «Халқ сўзи» газетаси. 2017 йил 8 февраль, 28(6722)-сон

11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o’qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risi”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo’nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalarni tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida V.G.Admoni, N.F.Alefirenko, I.V.Arnold, N.S.Valgina, Y.A.Goncharova, Y.M.Lotman, Z.Y.Turayeva, K.A.Filippov, O.I.Moskalskaya, L.M.Loseva, V.V.Odinov, I.R.Galperin, L.A.Novikov<sup>3</sup> kabi olimlar aynan matn lingvistikasining tadqiqotchilari hisoblanadi. Publitsistik matn tadqiqiga bag’shlangan tadqiqotlarda asosan gazeta matnining leksik-semantik xususiyatlari, publitsistik matnda sarlavhaning xususiyatlari hamda sarlavhalarda leksik, grammatik birliklarni tejash tamoyillarining qay darajada aks etishi kabi masalalar yoritilgan. Bu borada G.Alleman, V.A.Bogorodiskiy, F.Bryuno, V.V.Vinogradov, O.Espersen, G.A.Zolotova, E.S.Istirina, A.M.Peshkovskiy, Y.Ris, F.Travpichek, F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov, V.G.Kostamarov, V.V.Reshetov, A.K.Borovkov singari tilshunoslarning ishlarini ko’rsatish mumkin.

O’zbek tilshunosligida M.Mirzayev, F.Abdullayev, I.Rasulov, A.Abdunazarov, G’Karimov kabi bir qator olimlarning tadqiqotlarida ushbu

---

<sup>3</sup> Адмони В.Г. Основы теории грамматики. М. Л., 1964. –104 с.; Алефиренко Н.Ф., Голованева М.А, Озерова Е.Г., Чумак-Жунь И.И. Текст и дискурс. Учебное пособие. Москва. “Флинта”. 2013. –232 с.; Арнольд И.В. Семантика, стилистика, интертекстуальность. СПб, СПбГУ,1999. –444 с.; Валгина Н.С. Теория текста. Москва. “Логос”.2003. –173; Гончарова Е.А. Текст в парадигмах гуманитарного знания. Учебное пособие. СПб: “Книжный дом”, 2006; Лотман Ю.М. Чему учатся люди. Статьи и заметки. Москва. Центр книги ВГБИЛ им. М.И.Рудомино. 2009. –416 с.; Тураева З.Я. Лингвистика текста. Москва. “Просвещение”, 1986. – 127 с.; Филиппов К.А. Лингвистика текста, СПб, 2003. –336 с.; Москальская О.И. Грамматика текста. Пособие по грамматике. Москва, “Высшая школа”, 1981. –183 с.; Loseva Л.М. Как строится текст. Пособие для учителей Москва. “Просвещение”,1980. –94 с.; Одинцов В.В. Стилистика текста. Москва. “Наука”, 1980. –263 с.; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. Монография. Москва. “Наука”, 1981. –144 с.; Новиков Л.А. “Художественный текст и его анализ”. Москва, ЛКИ, 2007. –300 с.

mavzuga doir boʻlgan fikr va mulohazalar keltirib oʻtilgan boʻlsa-da, ularning lingvostilistikasi borasida batafsil maʼlumot berib oʻtilmagan. Tilshunoslik sohasi bilan shugʻullangan deyarli barcha taniqli olimlar funksional uslublarni tasniflash borasida oʻzining fikrlarini bayon etganligini koʻrishimiz mumkin. Xususan, A.Sulaymonovning “Til stillari haqida” nomli maqolasida, Gʻ.Abdurahmonovning “Stilistik normalar”, B.Oʻrinboyevning “Funksional uslubiyat va uning mohiyati”, S.Muhammedovning “Oʻzbek tili funksional stillarini belgilash toʻgʻrisida” nomli maqolalarida funksional uslublarni tasniflash borasidagi qarashlarini bayon etgan. Bu borada S.Karimovning “Oʻzbek tili funksional stilistikasi”<sup>4</sup> oʻzbek tilshunosligida vazifadosh uslubshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlarga izchil munosabat bildirilgan, soha taraqqiyotiga oʻzbek tilining mustaqillik davrida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar nuqtai nazaridan baho berilgan mukammal monografik asarlardan biridir. Keyingi davrda olimlar oʻz izlanishlarida vazifadosh uslublarni tasniflash bilangina cheklanib qolmasdan, balki har bir vazifadosh uslubni alohida, nafaqat uslublar jihatdan, balki boʻlimlar va turkumlar doirasida til birliklari funksional jihatdan alohida-alohida tadqiq qilishga kirishishdi<sup>5</sup>. Bevosita publitsistik uslub va uning lingvostilistik xususiyatlari toʻgʻrisidagi dastlabki ishlar sifatida T.Qurbonovning “Hozirgi oʻzbek adabiy tilining publitsistik stili” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasini tilga olish mumkin, unda publitsistik uslub haqida ancha-muncha maʼlumot berilgan.<sup>6</sup> Keyinchilik bunday tadqiqotlarning soni va salmogʻi oshdi. Bu sohada amalga oshirilgan ishlar ichida A.Abdusaidov, I.Azimova, N.Qodirov, Sh.Abduraimova, D.Teshaboyevalarning tadqiqotlari alohida eʼtiborga molik.<sup>7</sup>

---

<sup>4</sup> Каримов С. Ўзбек тили функционал стилстикаси. Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – 192 б.

<sup>5</sup> Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Самарқанд, 1994. – 292 б.; Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. –Тошкент: Фан, 2003. – 167 б.; Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дис.авторевф. – Самарқанд, 2004. – 22 б.; Пардаев А. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг функционал–стилистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс.– Самарқанд, 2005.–156 б.; Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дис. авторевф. – Тошкент, 2011. –22 б.; Бегматова Р. Немис ва ўзбек тилларида юкламаларнинг семантик, синтактик ва стилстик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа докт-ри (PhD)... дис. авторевф. – Тошкент, 2020. – 51 б.

<sup>6</sup> Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка. Авторевф.дисс...канд.филол.наук.-Ташкент, 1987. –22 с.

<sup>7</sup> Абдусaidов А. Язык газеты и литературная норма (на материале местных и республиканских газет 70-80 годов). Авторевф. дис. ...канд. филол.наук. – Ташкент, 1988. – 23 с.; Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил

Lekin uzoq yillar davomida publitsistik matnning, asosan, grammatik tabiati, ayrim semantik, stilistik xususiyatlari tadqiq qilindi, lekin ularning funksional-stilistik hamda pragmatik xususiyatlarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmadi.

Buning natijasida publitsistik matnning muloqot jarayonida namoyon bo'luvchi pragmatik belgilari aniqlanmay qolgan. Keyingi yillarda publitsistik matnga yondoshuv tubdan o'zgardi. Endi matnning faqat semantik, stilistik jihatdan yoritishning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Shu bois masalaga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi va ushbu sohani tadqiq etish bo'yicha turli yo'nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirildi. Rus tilshunosligida N.D.Arutyunovning pragmatika manbalari va muammolari, kategoriyalari, lingvistik pragmatikaga<sup>8</sup>, A.G.Baranovning matni funksional-pragmatik paradigmada o'rganishga<sup>9</sup>, L.E.Bezmenovning nutqiy aktlarga doir<sup>10</sup>, V.V.Bogdanovning nutqiy muloqotni pragmatik va semantik yo'nalishda o'rganishga<sup>11</sup>, I.R.Galperinning matni o'rganishga lingvistik yondashuvi<sup>12</sup>, T.A.Van Deykning matn pragmatikasiga<sup>13</sup>, M.M.Dmitriyevaning tilning ekspressiv birliklari pragmatikasiga oid<sup>14</sup> ishlari hozirda amalga oshirilayotgan ko'plab tadqiqotlarga yo'l ochdi.

Matn tili tadqiqi, xususan, publitsistik matni lingvostilistik jihatdan tadqiq etish, lingvopragmatik xususiyatlarini yoritish bugungi zamonaviy tilshunoslikda dolzarb muammolardan sanaladi. Aytish mumkinki, tilshunosligida publitsistik

---

хусусиятлари. Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. –Тошкент, 2005. -39 б.; Азимова И. А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2008.–22 б.; Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: 2012. –48 б.; Қодиров Н. Семантико-стилистический анализ в узбекском и русском языках в новейший период 1991-2001 гг. (на материале газет и устной речи): автореф, дис. ...филол. Наук. –Ташкент, 1998. -24 с.; Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. –Тошкент, 1995. –23 б.

<sup>8</sup> Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1985. – Вып. XVI: Лингвистическая прагматика. – С. 3-42.

<sup>9</sup> Баранов А.Г. Текст в функционально-прагматической парадигме. – Краснодар: Кубанский Госуниверситет, 1988. – 90 с.

<sup>10</sup> Безменова Л.Э. Функционально-семантические и прагматические особенности речевых актов. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Самара, 2001. – 20 с.

<sup>11</sup> Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1990. – 88 с.

<sup>12</sup> Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 144 с.

<sup>13</sup> Дейк Т.А. ван. Вопросы прагматики текста // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1978. – Вып. VIII: Лингвистика текста. – с. 259-336.

<sup>14</sup> Дмитриева М.М. Семантико-прагматические и стилеобразующие характеристики экспрессивных единиц языка Автореф. дис. канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2000. – 16 с.

matn doirasidagi kompleks qiyosiy tadqiqi shu kunga qadar yetarlicha amalga oshirilgan emas. Shuningdek, A.Qahhor, Cho'lpon, E.Vohidov kabi shoir va yozuvchilarimizning publitsistik asarlari g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Ammo tilshunoslik nuqtayi nazardan yondoshilmagan va matnlari lingvistik tahlil etilgan emas.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetining "Lingvistika va xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirishning nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnning sintaktik-stilistik va pragmatik xususiyatlarni qiyosiy tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- ingliz va o'zbek tilshunosligida matnning funksional-stilistik hamda pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan ishlarini ko'zdan kechirish, bu ishlardagi muhim ilmiy-nazariy qarashlarni fanning keyingi taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tahlil qilish orqali ingliz va o'zbek tilidagi publitsistik matnni boshqa uslub matnlari bilan qiyoslab o'rganish (Masalan: Ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy yoki badiiy matn bilan);

- ingliz va o'zbek tilida publitsistik matnning funksional jihatlarini belgilash va matndagi sintaktik-stilistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash;

- ingliz va o'zbek tilidagi publitsistik matnlarda subyekt turlarining ifodalanishini asoslash;

- ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarda frazeologik va paremiologik birliklarning lingvopragmatik tahlilini amalga oshirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va o'zbek tillarida publitsistik matnlar, xususan, mazkur tillardagi OAV matnlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti.** Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarning funksional-stilistik va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etish tashkil etadi.



**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada chog‘ishtirma, qiyosiy-tipologik, stilistik, funksional-semantik, pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- ingliz va o‘zbek tilshunosligida matnning sintaktik-stilistik hamda pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan ishlardagi muhim ilmiy-nazariy g‘oya va qarashlarni fanning keyingi taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ingliz va o‘zbek tiliga oid publitsistik matnning o‘zaro hamda boshqa uslub matnlari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirildi;

- ingliz va o‘zbek tilida publitsistik matnning funksional jihati (ma’nodoshlik, zid ma’nolik morfologik va leksik tomondan) belgilangan va matndagi funksional-stilistik va pragmatik xususiyatlari aniqlangan;

- subyekt tushunchasi falsafiy, mantiqiy va lingvistik jihatdan izohlanib, uning ingliz va o‘zbek tili publitsistik matnlarida *harakat, holat, belgi, egalik, mavjudlik, qiyoslanuvchi, to‘dalik, baholash* kabi turlari ifodalanishi asoslangan;

- ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarda o‘zlashma frazeologik birliklarning tahlili amalga oshirilgan va o‘ziga xos lingvopragmatik xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik matnning uslubiy va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha to‘plangan materiallar, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashmalar umumiy tilshunoslik tasnifiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi hamda pragmalingvistika bo‘yicha zaruriy ilmiy ma’lumotlar berish, o‘rganilayotgan tillar madaniyati, til aspektlari fanlarini o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

- ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik matn chog‘ishtirilayotgan tillarning o‘ziga xos xususiyatlari asosida to‘plangan til materiallari stilistika bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda, lug‘atlar yaratishda material va manba vazifasini o‘tashi, matni (diskurs), publitsistik matni maxsus o‘rganish natijasida ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammalashuviga xizmat qilishi dalillangan;

- ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik matnning funksional-stilistik, semantik va pragmatik jihatdan o‘xshash va o‘ziga xosligi yangi nazariy va amaliy kurslarning tashkil etilishida manba bo‘lishi isbotlangan;

- to‘plangan til materiallari, amalga oshirilgan tahlillar va ulardan olingan xulosalar ingliz tili matni ustida analitik va tahliliy ishlar olib borish, oliy o‘quv yurti ta‘lim amaliyoti, chet tillarini o‘qitishda matn bilan ishlash amaliyotida muhimligi ochib berilgan.

**Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi** chiqarilgan xulosalarning qat‘iyligi, olingan tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va tadqiqot usullari, tahlil qilingan materiallar hajmining yetarliligi, nazariy ma‘lumotlar ishonchli va ilmiy manbalardan, jumladan, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, lug‘atlardan olinganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi va erishilgan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillari adabiy me‘yorlari, pragmatolingvistika, leksikologiyasi, stilistikasi hamda tarjimashunoslik bo‘yicha nazariy manba, darslik, o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda xizmat qilishi, tadqiqotning xulosalari va natijalaridan ilmiy maqolalar, falsafa doktori (PhD) va magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy ishdan olingan natijalar “Umumiy tilshunoslik”, “Leksikologiya”, “Frazeologiya”, “Tarjima nazariyasi”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma va darsliklar, lug‘atlar, ma‘ruza matnlarini yaratishda ingliz va o‘zbek tillari misolida keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o‘zbek tili publitsistik matnlarining funksional-stilistik va pragmatik tahlili bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

- ingliz va o‘zbek tilida publitsistik matnning funksional tomonini (ma‘nodoshlik, zid ma‘nolik morfologik va leksik tomondan) belgilash va

matndagi sintaktik-stilistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlangan o‘rinlardan hamda subyekt tushunchasi izohlanib uning ingliz va o‘zbek tili publitsistik matnlarida *harakat, holat, belgi, egalik, mavjudlik, qiyoslanuvchi, to‘dalik, baholash* kabi turlari ifodalanishini asoslangan o‘rinlardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutda 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 12-avgustdagi 313\1-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasidagi matn, matnning funksional-stilistik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

Ingliz va o‘zbek tili publitsistik matnlarining funksional-stilistik va pragmatik tahliliga oid xulosalaridan, xususan, ingliz va o‘zbek tilida publitsistik matnning funksional tomonini (ma’nodoshlik, zid ma’nolik morfologik va leksik tomondan) belgilash va matndagi sintaktik-stilistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlangan o‘rinlardan; subyekt tushunchasi izohlanib uning ingliz va o‘zbek tili publitsistik matnlarida *harakat, holat, belgi, egalik, mavjudlik, qiyoslanuvchi, to‘dalik, baholash* kabi turlari ifodalanishini asoslangan tahlillardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillari institutining 2024-yil 10-iyuldagi 1397/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, innovatsion tadqiqot loyihasi asosida o‘qituvchilarning lingvistik va kommunikativlik qobiliyatini oshirish, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalaridagi bilimni oshirish hamda ta’lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda yangi yondashuv sifatida mazkur tadqiqot ishidagi natijalaridan foydalanilgan;

Ingliz va o‘zbek tilida publitsistik matnlarning funksional-stilistik va pragmatik jihatlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlariga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Adabiy jarayon” va “Ta’lim va taraqqiyot” nomli radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 02-iyildagi 04-36-801-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik matnning o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi bahs-munozaralarga oydinlik kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, ulardan 4 tasi respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Tadqiqotning asosiy nazariy qoidalari xalqaro va O‘zbekiston ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 133 sahifani tashkil etadi.

## I BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA MATN TADQIQI

### 1.1-§. Zamonaviy tilshunoslikda matnni o‘rganish masalalari.

Butun dunyoda ilmiy g‘oyalarning yaxlitlanishi natijasida turli ilmiy sohalar chegarasida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lib, shakllanib bormoqda. Shu ma’noda matn tilshunosligi yo‘nalishi ham o‘zining bir qator rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Bu sohada matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida e’tirof etilmoqda.

Matn tushunchasining ilmiy tadqiqot obyektiga aylanishi matn tilshunosligining doimiy muammolarini yechishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga tadqiqotchilar ushbu muammolarni hal etishda qator qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bu borada matn nazariyasiga oid asosiy tushuncha va g‘oyalarni qayta tahlil qilish, ayniqsa, matn nazariyasiga oid jahon tilshunos olimlarining fikrlarini o‘rganish, matnning tarjima bilan tadrijiy rivojlanish va shakllanish bosqichlarini hamda matn tarjimasida muqobilik masalalariga e’tibor berish ham muhim sanaladi.

Bu borada, ayniqsa, matnga oid ilmiy sohaning shakllanishi diqqatga sazovordir. Bu yo‘nalishda dastavval jahon tilshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirilganligini ta’kidlash joiz. V.G.Admoni, N.F.Alefirenko, I.V.Arnold, N.S.Valgina, Y.A.Goncharova, Y.M.Lotman, Z.Y.Turayeva, K.A.Filippov, O.I.Moskalskaya, L.M.Loseva, V.V.Odinov, I.R.Galperin, L.A.Novikov kabi olimlar matn lingvistikasi bilan maxsus tadqiqotlar olib borgan va o‘z qarashlarini ilgari surgan. O‘zbek tilshunosligida esa A.G‘ulomov, M.Asqarova, I.Rasulov, A.Mamajonov, M.To‘xsonov, N.Turniyozov, M.Xakimov, E.Qilichev, M.Abdupattoyev, M.Yo‘ldoshev, M.Qurbonova kabi olimlar matnning semantik, grammatik, stilistik va pragmatik strukturasi to‘g‘risida izchil tadqiqotlar olib bordilar<sup>15</sup>. Matn tilshunosligi masalalariga bag‘ishlangan ishlarda dastlab matn definitsiyasi to‘g‘risida so‘z boradi. Shuning uchun ham u yoki bu matn qanday

---

<sup>15</sup> Қаранг: Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент, 1987. – 279 б.; Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.; Мамажонов А. Текст лингвистикаси.–Тошкент, 1989; Ҳақимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ...дис.–Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2001. – 283 б.; Қурбонова М. Матн тилшunosлиги. – Тошкент: Университет, 2014. – 116 б.; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси (грамматика). Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.

tuziladi, matn birliklari nima, ularning bog‘lanishi haqidagi semantik va grammatik xususiyatlar tadqiq etiladi.

Tilshunoslikda “matn” terminining universal qabul qilingan ta’rifi ishlab chiqilmagan, chunki matnning umumiy va xususiy belgilarini ajratib ko‘rsatish masalalari haligacha to‘liq hal etilgan, deb bo‘lmaydi. “Matn” tushunchasiga bo‘lgan turli xil qarashlar va yondashuvlarni aks ettiruvchi o‘nlab ta’riflar mavjud. Avvalo, lug‘atlarda keltirilgan ta’riflarni ko‘rib chiqamiz. 1955-yilda Moskvada nashr etilgan “Словарь иностранных слов”da “tekst” so‘zi quyidagicha ta’riflanadi: Tekst (lotincha “textum”— mato, to‘qish, birlashtirish)— asosiy xususiyatlari aloqadorlik va yaxlitlik bo‘lgan til birliklarining o‘zaro birikishi, mantiqiy ketma-ketligi<sup>16</sup>; “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da “matn” atamasiga “yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi, tekst” sifatida ta’rif beriladi<sup>17</sup>.

Zamonaviy tilshunoslikda, matn o‘zida kontekst va nutq vaziyatini ifodalagan mazmun va shakl birligi; turg‘un, tayyor mahsulot. Diskurs esa kechayotgan muloqot jarayonidir. H.Haberland matnni turli joyda, turli paytda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan predmet, diskursni esa aniq zamon va makonda kechayotgan hodisa deb hisoblaydi. Olimning qayd etishicha, “matndan cheklanmagan miqdorda foydalanish mumkin, uni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish imkoni bor, diskurs hozirgina kechayotgan jarayon u har safar qayta yaraladi.” Matn lisoniy mahsulotlar, kechgan muloqot natijasi mahsuli (og‘zaki matn) yozuv faoliyati, nashr natijasi (yozma matn). Matn moddiy obyektidir, shaklidagi ta’riflar mavjud. E’tibor berilsa, matn va diskurs ayrim o‘rinlarda o‘zaro zid qo‘yilgan. Lekin diskurs umimiy mazmunida matnni ham anglatishi tilshunoslar tomonidan qayd etilgan. Diskurs turli lisoniy va nolisoniy omillar butunligidan hosil bo‘lgan o‘ziga xos murakkab bir tizim, sistemadir. Diskurs

---

<sup>16</sup> Словарь иностранных слов. Гос.издательство иностр.и нац.словарей, Москва, 1955,стр.680

<sup>17</sup> Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 й. 61-бет

lisoniy va nolisoniy omillar (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn hisoblanadi.<sup>18</sup>

Professor A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning matn masalalariga bag‘ishlangan ishlarida ularning matn haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari o‘z ifodasini topgan: Ularning fikricha, “tekst– yirik nutq parchasi, abzas esa tekstning bo‘lagi. Tekstning hamma ko‘rinishlari (maksimal tekst va minimal tekst) ma’lum bir temani (mundarijani) tugal ifodalaydi. Demak, u yuqori darajadagi sintaktik birlik”<sup>19</sup>.

Matn muammosi bilan birmuncha kengroq izlanishlar olib borgan tilshunos olim M.Hakimov unga shunday ta’rif beradi. “...Nutq– bu so‘zlovchining nutqiy jarayoni bilan aloqador bo‘lgan hodisa sifatida ifoda etilsa, matn (tekst) ham ana shu nutqiy hodisaning yozilgan (“bosma harf bilan aks etgan”) parchasidir. “Nutq” o‘zining yozma shaklida “matn” atamasiga teng keladi. Har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasi mohiyatini ifoda etadi. Tekst – og‘zaki nutq, kontekstga nisbatan stabillashgan, ma’lum qoida-qonuniyatlar va adabiy til me’yorlari asosida shakllangan yozma nutq. Matn bir vaqtning o‘zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o‘rtasidagi aloqa munosabatini yuzaga chiqaruvchi vositadir”<sup>20</sup>. Shu tufayli ham aksariyat tadqiqotlarning o‘rganish obyekti hisoblanmish inson va uning nutqiy muloqot jarayonida tilning yaratuvchanlik, ijodkorlik imkoniyatlari ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bu yaratuvchanlik va ijodkorlik nutqiy muloqot hodisasining mahsuli bo‘lgan matnda o‘z aksini topadi.

Matnning eng xarakterli xususiyatlari shundan iboratki, unda aloqadorlik va maqsadga yo‘naltirilganlik asosida umumiy mavzu ostidagi fikrlar axborot berish bilan birga mazmuniy ketma-ketlikka ham ega bo‘ladi. Matnning mazmuniy tugalligi muayyan chegaralarga ega bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlar anchayin bahstalab. Shuning uchun ham matnshunos olimlar tomonidan uning bu xususiyatlari yetarli darajada ochilmagan.

---

<sup>18</sup> Тоирова Г. Прагмалингвистика. Ўқув луғат. – Тошкент, Академнашр, 2016. –Б. 9.

<sup>19</sup> Фуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис.—Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 279 б.

<sup>20</sup> Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Тошкент, 1993, 17-21 бет

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda insonning lisoniy tafakkuri va uning kommunikativ faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarni tadqiq etish masalalariga e‘tibor kuchaydi. Bu holatni matn tahlilida kommunikativ funktsiya o‘rganilishida ham kuzatish mumkin. Ma‘lumki, tilimizda mavjud bo‘lgan barcha lingvistik birliklar muayyan timsollarning tafakkurda namoyon bo‘lishidan yuzaga keladi. Qo‘shimcha etik yoki estetik mazmuni o‘zida saqlagan timsollar har qanday til tashuvchisi, ya‘ni shu tilda so‘zlashuvchining ongida ramziy ma‘noga ega bo‘ladi, bu esa unga jamiyatning boshqa a‘zolari bilan til vositasida muloqotga kirishish imkonini beradi. Shuning uchun ham matnga sotsio-kommunikativ birlik sifatida qarash zarur.

O‘tgan asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab “matn lingvistikasi” degan yo‘nalish katta sur‘at bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Yaxlit nutqiy butunlik sifatidagi matn va uning tashkil etuvchi unsurlari, omillari, xususiyatlari turli nuqtai nazardan tadqiq etila boshlandi. Bu soha atrofida o‘ziga xos, aytish mumkin bo‘lsa, juda katta “shov-shuv” paydo bo‘ldi. Hatto ayrim mutaxassislar matn lingvistikasini tilshunoslikning alohida sohasi emas, balki umuman, tilshunoslikning poydevori, bazasi deb hisobladilar. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida matn lingvistikasi bo‘yicha davriy nashrlar va ilmiy to‘plamlar nashr etildi, maxsus ilmiy jamoalar tuzildi, monografiyalar bosildi, darsliklar, hatto maktablar uchun darsliklar chiqarildi.<sup>21</sup>

Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishiga va rivojida chex(pragmalingvistik to‘garagi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, amerika, golland, polyak va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari dunyo tilshunosligida e‘tirof etilgan va doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi.

Ingliz tilshunoslari orasida Roland Barthes, Michel Foucault, Terry Eagleton, Stanley Fish, Judith Butlerlar matn ustida tadqiqotlar olib borgan. Masalan: Roland Barthes o‘zining matn nazariyasiga oid “The Death of the Author” asarida muallifning roli va matnning mustaqilligi haqidagi fikrlarini bayon

---

<sup>21</sup> Николаева Т.М. Лингвистика текста. Современной состояние и перспективы//Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста .-Москва, Прогресс, 1978. С. 5-39.



etadi. Michel Foucault esa "What is an Author?" asarida muallifning ijodiy faoliyatini va matnning ijtimoiy kontekstini o'rgandi. Matn nazariyasining turli yo'nalishlari va ularning adabiyotga ta'sirini Terry Eagleton "Literary Theory: An Introduction" asarida batafsil tahlil qilgan. Yana bir mashhur ingliz tilshunosi Stanley Fish "Is There a Text in This Class?" asarida matnning mohiyatini va uni talqin qilishning turli usullarini tadqiq qilgan.

Ular o'z fikrlarida matn nazariyasining turli jihatlarini, jumladan, muallifning roli, matnning mustaqilligi, ijtimoiy kontekst, talqin qilish usullari kabi matn xususiyatlarini o'rgandilar va o'z qarashlarini bayon etganlar.

Rus tilshunosligida ham matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V.Odinov, I.R. Galperin, O.I.Moskaliskaya, L.M.Loseva, Yu.M.Lotman kabi ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganib kelinadi.

Ammo rus tilshunosligida matn lingvistikasining nazariyasiga oid qarashlarga turlicha tanqidiy fikrlar ham bildirilib kelingan. Masalan, taniqli rus filologi R.A.Budagov dunyoning bir qator mutaxassisleri tomonidan matn lingvistikasi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar jamlangan to'plamining nashr etilishi<sup>22</sup> munosabati bilan yozilgan "matn lingvistikasi" qay darajada lingvistikadir?" deb nomlangan maqolasida matn lingvistikasi insonning matnni yaratish, tuzish, tushunish, tarkiblash kompozitsion yaxlitligini idrok etish kabi qobiliyatlarni o'rganmoqchi bo'ladi, holbuki, bu boshqa fanlarning vazifalarini o'z zimmasiga olish bo'ladi qabilida e'tiroz bildiradi. Matnning hajmini chegaralash masalasi ham bu yo'nalishning yo'li to'g'ri emasligini aytadi.<sup>23</sup>

Bunday e'tirozlarga qo'shilib bo'lmaydi, chunki matn lingvistikasi matnni asosiy birlik deb hisoblar ekan, gaplar yoki so'z birikmalarining mavjudligini, ularning o'ziga xosligini matn tarkibidagi o'rnini, umuman an'anaviy tilshunoslik yutuqlari sifatida tan olingan qoidalarni aslo inkor etmaydi. Bu e'tiroz va tanqidiy fikrlarni mavjud muammolarga yanada sinchkovlik va hushyorlik bilan yondashish zaruratini unutmaslikka da'vat tarzida tushunish maqsadga muvofiqdir. Ba'zan

---

<sup>22</sup> Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. –Москва, Прогресс, 1978. –с. 479

<sup>23</sup> Будагов Р.А. Филология и культура. –М.:МГУ, 1980. С. 78-80.

matn xususida soʻz yuritilganda bunday xususiyat faqat badiiy matnda namoyon boʻlib, matnning qolgan turlari unchalik yuzaga chiqmaydiganday fikrlar mavjud. Tilshunoslikda matn shaxsni eng yorqin shaklda namoyon boʻlishining natijasi boʻlib, bu I.R.Galperinning taʼrifi bilan tasdiqlanadi, unga koʻra “matn – bu yakunlanganlikka ega, yozma hujjat koʻrinishida obyektlashtirilgan, hujjat turiga muvofiq adabiy qayta ishlangan, maʼlum maqsadga qaratilgan va pragmatik munosabatga ega, turli koʻrinishdagi leksik, grammatik, mantiqiy, stilistik bogʻlanishlar bilan birlashtirilgan, sarlavha va bir qator maxsus birliklardan iborat asar.”<sup>24</sup>

Turkiyshunoslikda matn masalasi birinchi oʻlaroq oʻtgan asr 70-yillarining boshida taniqli tatar tilshunosi M.Zakiyev tomonidan qoʻyildi. Dastlab u bogʻli nutqni mustaqil gaplar oʻrtasidagi aloqani oʻrganmasdan turib tadqiq etib boʻlmasligini, chunki bogʻli nutq hamisha turli usullar bilan oʻzaro bogʻlangan gaplar zanjiridan iborat boʻlishini, shunga koʻra bogʻli nutqda gapdan yirik va murakkab boʻlgan “murakkab sintaktik butunlik” deb ataladigan birliklar ajratilishini (ular obzasning qismi, obzas, yaxlit bob, baʼzan hatto yaxlit asar va shu kabilarga teng boʻlishini) taʼkidlaydi va yozadi: “Bogʻli nutqda murakkab sintaktik butunlikni ajratish sof metodik maqsadni nazarda tutadi, u nutqning asosiy birligi boʻla olmaydi va boz ustiga gapga qarama-qarshi qoʻyilishi mumkin emas”.<sup>25</sup>

Oʻzbek tilshunosligida ham matn va uning tadqiqi borasida ancha-muncha ishlar qilingan. Oʻzbek tili ilmida birinchilardan boʻlib akademik Gʻ.Abdurahmonov 1980-yilning 10-12-sentabrida Toshkentda boʻlib oʻtgan Turkiyshunoslarning III konferensiyasida matn nazaryasiga bagʻishlangan maʼruza qilib, muammoning mohiyati va yechimlari haqida oʻz fikrlarini bildirgan, bir qator matn turlarini ajratib koʻrsatgan edi.<sup>26</sup> Olimning taʼkidlanishicha, maʼlum bir matn tuzilishida faollashadigan sintaktik munosabatlar mazmuniy munosabatlar bilan uygʻunlashib, oʻziga xos sintaktik-semantik xususiyat kasb

<sup>24</sup> Гальперин И. Р. О понятии «текст» // Материалы научной конференции «Лингвистика текста». –Т. 1–М., 1974. –С. 67.

<sup>25</sup> Современный татарский язык. –М... Наука, 1971. С. 237.

<sup>26</sup> III Всесоюзная тюркологическая конференция // Советская тюркология. –Баку, 1981, №1, –с.93.

etadi. Ana shu sababli matn mazmun va shakl uyg'unligiga ega bo'lgan lisoniy qurilma bo'lib, uning qismlari (komponentlari)ga ham ma'lum miqdorda sintaktik va mazmuniy jihatdan mustaqillik belgilari xarakterlidir. Ulkan tilshunos olim A.G'ulomov matnning mohiyati bo'yicha o'zining qimmatli fikrlarini bayon qilgan. U dunyo tilshunosligida kechayotgan jarayonlardan muttasil boxabar keng qamrovli olim sifatida "Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis" darsligi (M.Asqarova bilan hamkorlikda)ni qayta ishlab, to'ldirib, uchinchi nashrini tayyorlar ekan matn masalasini chetlab o'tolmaydi, ixcham bir tarzda bo'lsada, matn haqidagi qarashlarini kitobga kiritadi va quyidagilarni bayon etadi: "Guliston ipakchilik sohasida ham mashhur. (Gazetadan.) Bu parcha shuni ko'rsatadiki: 1. Fikr bayon qilish gap (sodda gap va qo'shma gap) doirasi bilangina chegaralanmaydi. To'liq fikrni, odatda, gapdan yirik bo'lgan sintaktik butunlik beradi. Gap bu butunlik sostavida uning bir komponenti sanaladi. 2. Bu komponent shu butunlikdagi boshqa komponentlar bilan har jihatdan (mazmun, grammatik) turli vositalar orqali bog'langan bo'ladi. Uning o'z kompozitsiyasi va stilistik xususiyatlari saqlangan bo'ladi. 3. Sodda gap butunlik sostavida ma'lum sharoitlarda o'zicha bir abzasni tashkil qilishi mumkin (Guliston ipakchilik sohasida ham mashhur). 4. Bunday sintaktik butunlik, sintaktik konstruksiya tekst sanaladi. Ayrim – uzuq gap nisbiy tugal fikrni ifodalaydi, tekst butun bir kompleksning mundarijasini bildiradi. 5. Tekst bir butunlik bo'lganligidan, u o'z mundarijasiga mos keladigan ayrim sarlavhalarga ega bo'lishi ham mumkin. Tekst ayrim segmentlarga – qismlarga (ayrim parchalarga, abzaslarga, gaplarga) bo'linadi. Demak, tilning aloqalarlashuv vositasi ekanligini tekst yana ham aniq ko'rsatadi, nutq tekst tusida namoyon bo'ladi. 6. Tekst – yirik nutq parchasi, abzas esa tekstning bo'lagi. Tekstning hamma ko'rinishlari (maksimal tekst va minimal tekst) ma'lum bir temani (mundarijani) tugal ifodalaydi. Demak, u – yuqori darajadagi sintaktik birlik. U qo'shma gapdan ham boshqachalik xususiyatlariga ega. Uning mazmun tugalligi, struktura, bog'lanish vositalari va intonatsion, stilistik jihatdan ayrim

xususiyatlari bor. Masalan, abzas oxiridagi intonatsion tugallik ayrim olingan gapning intonatsion tugalligidan farq qiladi”<sup>27</sup>.

Matnning bu xususiyatlarini hisobga olib, ba’zi tekshiruvchilar uni lingvistikaning mustaqil bir sohasi sifatida (tekst grammatikasi, tekst lingvistikasi kabi nomlar bilan) ajratishni zarur deb biladilar. Ba’zilar esa uni tekst sintaksisi deb atab (so’z birikmasi sintaksisi, sodda gap sintaksisi kabi), gap sintaksisining davomi sifatida qarab, bu bilan sintaksis terminining mazmunini kengaytirishni, asosiy sintaktik birlik sifatida gapdan ko’ra katta sintaktik butunlik deb qarash kerakligini ta’kidlaydilar: bunda sintaksisning yuqori chegarasi qo’shma gap sintaksisi emas, balki tekst sintaksisi bo’ladi. Tekshiruvchilarning ko’pchiligi bu sohani birinchi qarash bo’yicha yoritmoqdalar. Ko’rinib turganiday, A.G’ulomov o‘zbek tili faktlaridan kelib chiqqan va dunyo tilshunosligidagi turli qarashlarni inobatga olgan holda matnning tabiati va mohiyatini aniq ko’rsatib bergan.

Tilshunos M.To‘xsonov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida makromatn va mikromatnni farqlagan holda o‘zbek tilidagi mikromatn tarkibidagi unsurlarni bog‘lovchi vositalar sistemasini tadqiq etgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasi bo’yicha umumlashtiruvchi, ta’limiy xarakterdagi ilk ishlardan birini A.Mamajonov yaratgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyinchalik A.Mamajonov M.Abdupattoyev bilan hamkorlikda nashr etilgan o‘quv qo‘llanmasida matnning struktur-semantik va stilistik jihatlari matn birliklaridagi tema-rematik munosabat atroflicha tahlili amalga oshirilgan va tegishli xulosalar umumlashtirilgan.<sup>28</sup>

N.Turniyozovning qo‘llanmasi ham ana shunday ta’limiy xarakterdagi ishlardan biri bo‘lib, unda tegishli o‘quv rejasiga muvofiq matn haqida umumiy ma’lumot mikro va makromatn tushunchalari, matn uzvlari orasidagi turli munosabatlar kabi mavzular bo’yicha ilmiy ma’lumotlar berilgan.<sup>29</sup>

Matn muammolari bilan jiddiy shug‘ullangan o‘zbek tilshunoslaridan yana biri M.Hakimov hisoblanadi. U asosiy maqsadi “ilmiy matn va uning birliklari orasidagi mazmuniy munosabatlarni ifoda etuvchi bog‘lovchilar, ularning o‘ziga

---

<sup>27</sup> Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1987. – Б.7

<sup>28</sup> Мамажонов А., Абдулаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона: ФарДУ нашри, 2002. – Б. 4-25.

<sup>29</sup> Турниёзов Н. Матн лингвистикаси (Маърузалар матни). – Самарқанд, 2004. –128 б.

xos xususiyatlari va o‘ziga xos vazifalarini aniqlashga yo‘naltirilgan ishlarga hissa qo‘shish, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati hamda uning turlarini belgilash” dan iborat bo‘lgan nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini boy faktik materiallar asosida batafsil tadqiq etgan.<sup>30</sup>

O‘tgan asrning 90-yillari matn tilshunosligining nazariy muammolariga bag‘shlangan ishlardan B.O‘rinboyev, R.Qo‘ng‘urov, J.Lapasovlarning “Badiiy tekstning lingvistik tahlili”<sup>31</sup> nomli o‘quv qo‘llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu asarning “Kirish” qismi “Tekst – lingvistik tahlil obyekti” deb nomlanadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o‘ziga xos belgilari, matn lisoniy tahlil qilishning metodologik tamoyillari, matn yaratish muammolari, ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar o‘zbek tili faktlari misolida yoritilgan. Shundan keyin asarda Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Komil Yashin kabi shoir, yozuvchi va dramaturglarning she‘riy, nasriy va dramatik asarlaridan matnlar keltirilib, ularni lisoniy jihatdan tahlil qilish namunalari berilgan. Bu asarda to‘g‘ri ta’kidlanishicha, “umumiy tilshunoslikdagi nazariy fikrlar asosida tekst (matn)ning mohiyati, tuzilishi, mazmuni, fikrni yuzaga chiqarishdagi roli kabi qator muammolarni yoritish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir”. J.Lapasovning “Badiiy matn va lisoniy tahlil” nomli qo‘llanmasida badiiy matnning lisoniy tahlili haqida umumiy ma’lumot beriladi, matn tuzilishida ifoda-tasvir vositalarining ahamiyati, remarka va replika, leksik va uslubiy vositalar, stilistik figuralarning matn shakllantirishdagi o‘rni, matn tahlilida lug‘at ustida ishlash usullari kabi masalalar o‘rganilgan hamda she‘riy, nasriy va dramatik

---

<sup>30</sup> Хақимов М.Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан.н-ди...дисс. – Тошкент, 1994. –168 б.

<sup>31</sup> Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили, Тошкент, Ўқитувчи, 1990. – Б. 6-40.

matn tahliliga doir namunalar keltirilgan.<sup>32</sup> “Tabiiyki, tilday murakkab hodisaning mohiyati va sinoatli qonuniyatlaridan mukammal xabardor bo‘lmasdan turib, uning ming bir ma’no-mazmun va jilolarda yashash manzili bo‘lmish adabiyotni xolis va teran o‘rganish yoki adabiyotning ming bir qonuniyatidan bexabar holda mazkur manzilni chin ilmiy taftish qilishga urinish samarasiz bir yumushdir.”<sup>33</sup> Shu sababli ham filologiya ilmida yangi soha sifatida shakllanayotgan lingvopragmatika, uning matnda aks etishi haqidagi qarashlar bugungi kunda ko‘pgina ishlarda u yoki bu darajada namoyon bo‘lmoqda.

Shunday ishlardan M.Hakimovning “O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari”<sup>34</sup> mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini aytish mumkin. Dissertatsiyada ilmiy matn va uning birliklari orasidagi mazmuniy munosabatni ifodalovchi bog‘lovchilar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalariga aniqliklar kiritilgan, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati va uning turlari, o‘zbekcha ilmiy matnlarning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Bu ishda o‘zbek tilining ilmiy uslubi matn kategoriyasi aspektida o‘rganilgan, gumanitar fanlarga oid ilmiy matn namunalari bu ish uchun faktik material manbai bo‘lib xizmat qilgan. Yana bir tadqiqotda esa “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi”<sup>35</sup> o‘rganilgan. Tadqiqotni amalga oshirgan N.Uluqov ishda diniy matnlar tilshunoslikda o‘ziga xos alohida matn turi sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiq, degan fikrni ekzotik leksika materiallari misolida asoslashga intiladi. Mantning qandaydir xususiyatlariga bag‘shlangan ishlar talaygina<sup>36</sup>. Masalan: Tilshunoslikda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasi doirasida olib borilgan va borilayotgan ilmiy

---

<sup>32</sup>Qarang: Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 5-86.

<sup>33</sup> Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. дисс... –Тошкент, 2008. –238 б.

<sup>34</sup> Ҳақимов М.Ўзбек илмий матннинг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан.н-ди...дис-си авто-ти –Тошкент, 1994. – 26 б.

<sup>35</sup> Улуқов Н. М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси, НДА, Тошкент, 1997. – 29 б.

<sup>36</sup> Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: филол. фан. доктори. дисс автореф. Тошкент, 2001. – 49 б.; Hakimova M. O‘zbek tilida vaqt ma’noli lug‘aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Filol.fan.nomz...dis.–Farg‘ona, 2004, 103-b.; Yo‘ldoshev B. Matnni o‘rganishning lingvostatistik metodlari (uslubiy qo‘llanma). -Samarqand, 2008.; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол.фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 24 б.; Turniyazova Sh. Hozirgi o‘zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Filol.fan.nomz...dis.-Toshkent, 2010.– 239.; Haydarov Sh. Badiiy matnda partsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanilishi. Filol.fan.dokt...dis.-Toshkent, 2011. –124 b.

izlanishlar modallik kategoriyasini ham chetlab o'tmadi. Matn modalligida kommunikativ-pragmatik mazmunning shakllanishi haqidagi ilmiy izlanishlarning yuzaga kelishida S.Boymirzaevaning xizmatini alohida ta'kidlash zarur. Matn modalligi maydonida aksiologik baho va aksiologik faoliyatning namoyon bo'lishini badiiy, ilmiy, publitsistik uslublarga oid misollar yordamida tushuntirib bergan<sup>37</sup>. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, XIX asrning oxirida matn lingvistikasi tilshunoslikning alohida sohasi, yo'nalishi sifatida shakllanib bo'ldi, bugun u muttasil rivojlanib bormoqda, yangidan yangi nazariy umumlashmalar qilinmoqda. Ayni paytda ona tili va chet tillarni o'qitish amalyotida ham bu fan sohasi o'ziga xos munosib o'rin egalladi. Buni bugun inkor etadigan mutaxassisning o'zi yo'q. "Ammo hayratlanarlisi shundaki – deb yozadi rus tilshunosi E.S.Kubryakova bu fan sohasi o'zining bosh obykti matnning umume'tirof etilgan ta'rifi ega emas va bu yo'nalishdagi har bir tadqiqot matnning nima ekanligi va bu termin bilan ifodalanadigan hodisaning qanday belgi yoki xususiyatlar bilan xarakterlanishi haqidagi mulohazalar bilan boshlanadi".<sup>38</sup> Shu sababdan, biz ham matn ta'rifi, uning asosiy belgi xususiyatlariga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Shuni ta'kidlash lozimki, matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta'riflashda mataxassislar o'rtasida yagona fikr yo'q. Aksincha, biri-biriga qarama-qarshi ikki xil qarash mavjud. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Matnni lingvistik tadqiqot obykti sifatida o'rgangan I.R.Galperin esa "matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlardan biri sifatida yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik" ekanini alohida ta'kidlab ko'rsatadi.

Rus tilshunosi L.M.Loseva "matn" tushunchasini aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo'lgan belgilardan kelib chiqishi lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo'lishini alohida qayd etadi. Matnning

---

<sup>37</sup> Qarang: Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив–прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол.фанлари д-ри... дис. – Тошкент, 2011. – 320 б.

<sup>38</sup> Кубрякова Е.С. О текты и критериях его определения // Текст. Структура и семантика.Т.1. –М., 2001. С.72-81.

lingvistik tadqiqot obyekti sifatida rus tilshunosligida ilk batafsil o‘rganganlardan biri I.R.Galperin “matnning antologik va funksional stilistik belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar”dan biri sifatida “yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlikni alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. Uningcha matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir.<sup>39</sup>

Ammo matn yozma yoki og‘zakligi, uning antologiyasi va funksional-stilistikasiga bog‘liq yoki bog‘liq emasligi muallif tomonidan aniq ko‘rsatib berilmagan. Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida bajaradigan vazifasi faqat yozuv bilan chegaralanadigan bo‘lsa, bu yirik kommunikativ birlikning tilda o‘rni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qolgan. Aytish kerakki, matn lingvistikasi muammolari bilan jiddiy shug‘ullanadigan juda ko‘pchilik tilshunoslar matnning ham og‘zaki ham yozma bo‘laverishi mumkinligini aytadi.<sup>40</sup> Chindan ham shu fikr ilmiy – mantiqiy jihatdan to‘la asosga ega va u matnning mavjud mohiyatini to‘g‘ri aks ettiradi. Z.Y.Turayeva matn lingvistikasining umumiy nazaryalarga ko‘ra uning predmeti sifatida og‘zaki va yozma nutq mahsuli bo‘lgan matnni olish mumkinligini aytadi, ammo matnni tor ma’noda, ya’ni faqat yozma nutq mahsuli sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq ekanligini takidlaydi. U.I.Galperin tomonidan ilgari surilgan yozma nutq talqinini maqullaydi va quyidagicha yozadi “agar og‘zaki nutqqa tovushlar orqali namoyon bo‘lish xos bo‘lsa, matn uchun grafik gavdalanish xarakterlidir”.

Agar og‘zaki nutqni bir yo‘nalishlilik farqlab tursa, matnga ko‘p o‘lchovlilik xosdir. Og‘zaki nutq bir yo‘nalishlidir, chunki u faqat tovush orqali gavdalana oladi. Yozuv uning sifatini o‘zgartiradi. Shunday qilib, og‘zaki nutq qaytishsizdir, ya’ni aytildimi uning biror parchasiga qaytish mumkin emas. Matn ko‘p o‘lchovlidir, chunki uning istalgan bo‘lagiga ko‘p marta qaytish mumkin. Agar nutq harakat jarayon bo‘lsa, nutq ikki yoqlama tabiatga ega, ya’ni u ham tinch holda ham harakatda bo‘la oladi. Agar nutqning zamonda mavjudligi shu

---

<sup>39</sup> Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: Наука, 1981. –С. 5-7.

<sup>40</sup> Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1990. 8-бет.; Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий матннинг лингвистик таҳлили. –Тошкент, Ўқитувчи, 1990. – 215 б.; Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 65 б.; Мамажонов А.Текст лингвистикаси. –Тошкент, 1989. –Б.8.



nutqning talaffuz vaqti bilan chegaralangan bo'lsa, matnning mavjudligi amaliy jihatdan hech narsa bilan chegaralanmagan<sup>41</sup>.

Tilshunoslikdagi antropotsentrik tadqiqotlarning muhim xususiyatlaridan biri – an'anaviy hamda sistem-struktur tilshunoslik yutuqlariga tayangan holda yangi bosqichlarga ko'tarila olganidir. Shu jihatdan mazkur tadqiqotlarni bir necha yo'nalishlarga ajratishimiz mumkin:

1. Xalq og'zaki ijodi materiallari bilan bog'liq tadqiqotlar.
2. Tarjima nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq tadqiqotlar.
3. Leksikografik yo'nalishdagi tadqiqotlar.

Amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqot, bizningcha, ikkinchi tadqiqotlar yo'nalishiga mansub bo'lib, ingliz va o'zbek tilshunosligida matnning (tarjima matnlarning) sintaktik-stilistik hamda pragmatik xususiyatlari tadqiq etilishga qaratilgan. O'zni bilan ishda publitsistik matnning alohida xususiyatlarini yoritish maqsadida boshqa turdagi matn namunalari bilan ham taqqoslangan.

Ma'lumki, XX asrning 70-yillaridan boshlab tilshunoslikda ommaviy axborot vositalari matnini lingvistik aspektda tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar e'lon qilib borildi.<sup>42</sup> Bu ishlarda ommaviy axborot vositalari matnlari turli yo'nalishlarda: sotsiolingvistik, funksional stilistik, diskursiv, kognitiv, lingvokulturologik aspektlarda tahlil qilindi. Olimlar e'tibori ommaviy axborot vositalari matnining til xususiyatlarini o'rganish, turli tipdagi mediamatnlarni tavsiflash, ijtimoiy-madaniy omillarning medianutqqa ta'sirini o'rganish, nutqiy ta'sir ko'rsatishning lingvo-mediaviy xususiyatlarini o'rganish masalasiga qaratildi.<sup>43</sup>

---

<sup>41</sup> Тураева З.Я. Лингвистика текста.-М.: Просвещение, 1986. – С. 12.

<sup>42</sup> Каранг: Шмелев Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. – М., 1977. – 78 с.; Бернштейн С.И. Язык радио.– М.: Наука, 1977. – 47 с.; Васильева А.Н. Газетно-публицистический стиль речи. – М., 1982. – С. 198; Fowler R. Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. – London, 1991. – 272 pp.; Bell A. The Language of News Media. – Oxford, 1991. – 296 p.; Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. – М., 1994. – 330 с.; Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов. – М., 2005; Солганик Я.К. Определению понятий «текст» и «медиатекст» // Вестник МГУ. Сер. 10. Журналистика. 2005. – № 2. – С. 7-15; Засурский Я.Н. Колонка редактора: медиатекст в контексте конвергенции // Вестник Московского университета. Серия 10: Журналистика. – 2005. № 2. –С. 6.; Теун ван Дейк. Язык. Познание. Коммуникация. – М., 2000. – 308 с.; Montgomery M. Introduction to Language and Society. – London: Routledge, 2008. – 336 p.; Fairclough N. Language and Power. – London, 2014. – 274 p.

<sup>43</sup> Сабирова М. Ўзбек медиаматнларининг прагмалингвистик тадқиқи (газета матнлари мисолида) Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс-яси. – Тошкент, 2021. – Б. 13.

Ingliz tilshunoslarining publitsistik matn haqidagi qarashlaridan ma'lum bo'ladiki, "Publitsistik matn - bu ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan, keng auditoriya uchun mo'ljallangan matn turi. Ingliz tilshunoslari orasida mazkur matn turi bilan shug'ullangan olimlar ham talaygina. Walter Lippmann – U "Public Opinion" asari orqali matn va publitsistik matnning ahamiyatini ko'rsatib bergan. Asarda publitsistik matnning roli va ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta'sirini masalalari yoritilgan. Noam Chomsky "Manufacturing Consent" asarida publitsistik matnning siyosiy kontekstini va ommaviy axborot vositalarining hokimiyatga tasirini tahlil qilgan. Edward Said esa "Orientalism" asarida publitsistik matnning Sharq va G'arb o'rtasidagi munosabatlarga ta'sirini o'rgandi.

Stuart Hall publitsistik matnning kodlash va dekodlash jarayonini tahlil qilgan bo'lsa, John Fiske publitsistik matnning kommunikatsiya jarayoniga ta'sirini o'rgandi.

O'zbek tilshunosligidagi bu yo'nalishdagi ishlarga e'tibor qilinsa, M.Hakimovning nomzodlik dissertatsiyasida mana bunday fikrlarni o'qish mumkin: "... Nutq bu so'zlovchining nutqiy jarayon bilan aloqador hodisa sifatida ifoda etilsa, matn ham ana shu hodisaning yozilgan (bosma harf orqali aks etgan) parchasidir... "nutq" o'zining yozma shaklida "matn" atamasiga teng keladi... Matn bir vaqtning o'zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o'rtasidagi aloqa munosabatini yuzaga chiqaruvchi vositadir".<sup>44</sup> Nutq tushunchasi haqida adabiyotshunoslarning fikri boshqacharoq: "badiiy asar tili" deganimiz holda, aslida gap badiiy nutq haqida borayotgani ma'lum, chunki til unsurlari ma'lum kontekstni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi. Badiiy nutqning farqlanganligi shuki, unda muallif nutqi va qahramonlar nutqi ajratiladi. Ta'kidlash kerakki, mazkur farqlanish, asosan, epik va liroepik xarakterdagi asarlarga xosdir. Bu xil asarlarda voqea, voqea kechayotgan joy yoki sharoit tasviri, qahramonlarga berilayotgan ta'rif, muallifning fikr-mulohazalari kabilar bevosita muallif tilidan beriladi. Muallif obrazi asarda tasvirlangan badiiy voqelikni yaxlitlashtiruvchi

---

<sup>44</sup> Хакимов М.Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан.н-ди...дисс.-Тошкент, 1993. 17-18,21-бетлар.

subyektiv asos bo'lganidek, muallif nutqi asarning moddiy tarafini yaxlitlashtiruvchi unsurdir".<sup>45</sup> Avvalo aytish joizki, kishilar o'rtasidagi aloqa kommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan (va bu hol matn lingvistikasining yaratuvchilari, umuman matn tadqiqotchilarining aksariyati tarafidan e'tirof etilgan ekan), matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatika yo'nalishini o'rganishga turtki bo'lgan qator ishlarni ko'rsatish mumkin. Ma'lumki, o'tgan asrning 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida tilshunoslik fanida matn lingvistikasiga bag'ishlangan jiddiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ularning ayrimlarigina<sup>46</sup> lingvistik pragmatikaning markaziy masalalariga oid bo'lib, ular pragmatik presuppozitsiyani o'rganish uchun imkoniyat yaratdi. Boshqa tadqiqotlarda esa, asosan, "jumla", "matn", "nutq" muammolari bilan bog'liq hodisalar ustida ish olib borildi.<sup>47</sup> Kontekst masalalari xususidagi bunday tadqiqotlarning yuzaga kelishi lingvistik pragmatikani o'rganishga yo'l ochdi.<sup>48</sup>

Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og'zaki

---

<sup>45</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 119.

<sup>46</sup> Xojiev A. Модал ёки субъектив баҳо формалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1978. – № 1. – Б. 3-6.; Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 150 б.; Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларнинг семантик-синтактик асимметрияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 146 б.; Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёт. 1986. №6. – Б. 28-32; Нурмонов А. Қўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёт. 1986. №6. – Б. 42-45; Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Раҳимов У. Ўзбек тилида юкломалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б.; Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага чиқиши. Филол. фанлари номзоди... дис.автореф. – Тошкент. 1994. – 22 б.

<sup>47</sup> Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик анализи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 67 б.; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент, 1989; Абдулаттоев М. Ўзбек тилида суперсинтактик бутунликлар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. –Б.104.

<sup>48</sup> Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.24.

nutqdagi gapni gap bo‘lmaydi deyish to‘g‘ri bo‘lmasligini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q, albatta.

Umuman aytish mumkinki, matn ham til birligi, ham nutq birligidir, degan qarash bugun ancha keng tarqalagn.

Tilshunoslikda til strukturasiining satxlari masalasi har qanday tadqiqot uchun muhim ekanligi ma’lum. Til tadqiqi jarayonida tahlilning turli bosqichlarida fonologik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik sathlar farqlanadi.<sup>49</sup>

O‘zbek tilidagi matn muammolari bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlar ham matn tarkibidagi bog‘lanishlilikka grammatik va mazmuniy umumiylikka ko‘ra uzvlarni birikuviga alohida urg‘u beradilar: “matn sintaksisning tekshiruv obyekti. Sintaktik hodisa sifatida matn maxsus leksik-grammatik va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig‘indisidan iborat. Matn o‘ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo‘lgan nutqning yirik ifodasidir”<sup>50</sup>, - degan fikrlarini bildirib o‘tadilar.

Ana shu mulohazalardan kelib chiqib, tilshunos olim M.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratishni lozim topdik. Olim “matnni gaplar ketma-ketligining bog‘lanishlilik asosida og‘zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik sifatida til sintaktik satxining oliy darajadagi birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq”<sup>51</sup> degan fikrni ilgari suradi va matn haqidagi haqli g‘oyani isbotlab bergan edi.

Bunday talqinlar, albatta, matnga xos boshqa turli xususiyatlar, belgilar, kategoriyalarning mavjudligini mutlaqo inkor etmaydi. Masalan, prospeksiya va retrospeksiya, konseptuallik, avtosemantiya va sinsemantiya, informativlik, modallik, tugallanganlik kabi bir qancha kategoriyalar mazkur ta’rifda ta’kidlangan bog‘lanishlilik va yaxlitlik tushunchalari bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir. Bu kategoriyalar matnning mohiyatiga daxldor mazkur ikki o‘zak xususiyatining reallashuvida ishtirok etadi. Shuning uchun ham matn ta’rifida matnga xos bo‘lgan

---

<sup>49</sup> Кодекс В.И. Уровни языка // Русский язык. Энциклопедия.М.:Сов.энциклопедия, 1979. С.359-360.

<sup>50</sup> Мамажонов А., Абдулаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона: ФарДУ нашри, 2002. – Б. 4-25.

<sup>51</sup> Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси.-Тошкент, Фан, 2008. –Б.159.

barcha xossalarni, kategoriyalarni birma bir aks ettirish uchun alohida bir zarurat yo‘q. Zotan, har qanday ta’rifning bosh asosiy maqsadi, qanday fanda bo‘lishidan qati’y nazar muayyan hodisaning asosiy mohiyati va umumiy tabiatini ko‘rsatib berishni nazarda tutadi.

### **1.2-§. Publitsistik janrlar va publitsistik matnning o‘ziga xos xususiyatlari**

“Publitsistika” aslida “xalq” so‘zidan olingan bo‘lib, ijtimoiy, xalqchil degan ma’noni anglatadi va ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy hayotning siyosiy masalalarini vaqtli matbuot hamda nashrlar orqali ommaviy aks ettiradi. Publitsistik uslub elementlari ijtimoiy taraqqiyotning eng qadimgi davrlaridayoq paydo bo‘la boshlagan edi. Masalan, qadimiy oratorlik nutqlari va boshqalar fikrimiz isboti bo‘la oladi. Jumladan, “Publitsistika mavzu-material xususiyatlari jihatidan falsafiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, adabiy-tanqidiy xarakterda bo‘ladi. Uslub jihatidan bahs-munozarali, tashviqot-targ‘ibot, tanqdiy-analitik, satirik ko‘rinishlarga ega. Janr xususiyatlari jihatidan esa u voqeiy-informatsion (xabar reportaj, hisobot, korrespondensiya), analitik (maqola), badiiy-publitsistika (ocherk, feleton, pamflet, yozuvchi maqolasi) turlarga bo‘linadi”<sup>52</sup>.

Har bir vazifaviy uslub adabiy tilning rivojlanish bosqichida turg‘un tizimga bog‘liqdir, ammo u bir davrdan keyingisiga o‘tayotganda, ba’zan tez-tez o‘zgaradi. Shuning uchun tilning funksional uslublari tarixiy turkum (kategoriya) hisoblanadi.

Ushbu tushunchani isbotlash uchun misollar yetarli darajadadir. Binobarin, vazifaviy uslubning she’riyat (badiiy) uslubi XVI asrning ikkinchi yarmida mustaqil uslub vazifasini bajarishni boshlagan; gazeta uslubi publitsistik uslubdan ajralib chiqqan; boshqa vazifaviy uslublar kabi notiqlik uslubi ham sezilarli darajada muhim o‘zgarishlarga uchragan.

Hurriyat gazetasining muxbiri Sanjar Eshmurodov “Publitsistika – tarixiy manba” maqolasida publitsistika tarixi haqida quyidagilarni bayon qiladi: – Milliy matbuotimizdagi publitsistikaning tarixiy ildizlariga nazar soladigan bo‘lsak,

---

<sup>52</sup> ЎзСЭ, 9-том, 103-бет.

ko'pchilik tadqiqotchilar mavzuni taniqli jurnalist Ziyo Said "O'zbek vaqtli matbuoti tarixi"ga materiallar" asarida o'zbek matbuoti tarixi "Turkiston viloyatining gazetasi" nashr etilgan vaqtdan boshlanadi, degan fikriga asoslanib to'nbichadi. Ammo xalqimiz madaniyati tarixida bugungi til bilan atalgan – publitsistika, uni ro'yobga chiqarish vositalari matbuot yaratilishidan ancha ilgari paydo bo'lganligiga e'tibor qaratish kerak. Turkiy xalqlar yodgorligi "Qobusnoma", Nizomiy Aruzii Samarqandiyning "Nodir hikoyatlar" asarlarining mantiqiy tafakkur usuli ijtimoiy, axloqiy pafosi va boshqa xususiyatlari jihatidan o'zbek publitsistikasining nodir namunalari. Bundan tashqari, ko'pgina tarixiy asarlarda ham publitsistik unsurlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Munshaot", "Mahbub ul-qulub" asarlarini shular qatorida sanaymiz. Yoki Sayid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Mahmud, Husayn Boyqaro va boshqalar to'g'risidagi xotiralari aynan portret ocherki janri xususiyatlariga mos bo'lib, nafaqat, ularning ijodi, faoliyati, balki xarakteristikasi to'g'risida ma'lumot beradi. "Boburnoma" asarida esa badiiy publitsistikaning safarnoma, portret, reportaj va boshqa janrlariga xos bo'limlarni ko'ramiz. Samarqand, Andijon tasvirlari o'sha davrdagi shahar qiyofasini yaratadi, xalqining hayotini ko'z o'ngimizga keltiradi. XIX–XX asr boshlarida yozilgan Muqimiyning "Sayohatnoma"si yo'l ocherkiga xos namuna. Yaypan, Do'rmoncha, Oltiariq kabi vodiyning qishloqlari ta'rifini o'ynoqi satrlar bilan aholisi ruhini shuurimizga joylaydi. XX asr boshlarida "Taraqqiy"(1906), "Xurshid" (1906), "Oyna" (1913) kabi gazeta jurnallarda chop etilgan Fitrat, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlar ijodida publitsistik janrlarda yozilgan asarlar ko'plab uchraydi.

Biroz bo'lsa-da, tarixga murojaat qilganimizning boisi shuki, biz o'sha davrdagi ijtimoiy voqelik haqida fikr yuritganimizda, avvalo, o'sha asarlarda keltirilgan manbalarga asoslanamiz. Sohani yaxshi bilgan ustozlar, xususan, jurnalistika sohasida o'zining ilmiy qarashlari bilan nom qozongan Ochil Tog'ayev ta'rificha publitsistik asarlarning asosiy vazifasi o'sha davr ijtimoiy hayotidagi voqeliklar, muammolar, kamchiliklar to'g'risida jamoatchilik fikrini uyg'otish, ularni

maqsadli yo‘naltirish, deya ta’kidlaganlar. Shu fikrga qo‘shimcha qilib bunday maqolalar ijtimoiy hayotimiz haqida kelajak avlod uchun eng yaxshi tarixiy manba deyish mumkin.

Ingliz publitsistik matn o‘rganilishining rivojlanish xronologiyasini (ilmiy tadqiqotlar asosida) quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

T/R	Ingliz tili	
1.	1950-yillarda “Lingvistik tahlil va diskurs tahlilining asoslari” Noam Chomsky.	Noam Chomsky publitsistik matnning sintaktik asoslarini o‘rganib, tilshunoslikda yangi paradigmalarni kiritdi. Bu davrda publitsistik matnning lingvistik tahlil asoslari qo‘yildi.
2.	1960-yillar “Ritorika va tilning ijtimoiy funksiyalari” Kenneth Burke.	Kenneth Burke ritorikaga e’tibor qaratdi, bu esa matnlarning ta’sirini o‘rganishga yordam berdi.
3.	1970-yillarda “Diskurs tahlili va ijtimoiy kuch munosabatlari” Teun A. van Dijk	Teun A. van Dijk diskurs tahlilini rivojlantirib, publitsistik matnlarning ijtimoiy leksika bilan qanday bog‘liqligini o‘rganishni boshlab bergan.
4.	1980-yillar “Ijtimoiy kontekstda matnlarning tahlili” Norman Fairclough	Norman Fairclough tanqidiy diskurs tahlilini ishlab chiqdi, bu esa matnlarning ijtimoiy adolat va kuch munosabatlarini tahlil qilishga imkon berdi.
5.	1990-yillar “Kritikal diskurs tahlili va madaniy kontekst” Ruth Wodak	Ruth Wodak madaniy matnda diskurs tahlilini kengaytirdi va ijtimoiy muammolarni o‘rganishga e’tibor qaratdi.
6.	2000-yillar “Multimodal diskurs va	Gunther Kress va Theo van Leeuwen

	yangi kommunikatsiya shakllari” Gunther Kress, Theo van Leeuwen	multimodal diskursni o‘rganishga kirishdilar, bu esa vizual va tekstual elementlarni birgalikda tahlil qilishga imkon berdi.
7.	2010-yillar “Internet va raqamli kommunikatsiyaning tahlili” David Machin	David Machin raqamli kommunikatsiya va internet matnlarini tahlil qilishga e’tibor qaratdi, bu esa zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarini anglashga yordam beradi.

Bu jadval ingliz tilshunoslarining publitsistik matn tahliliga bo‘lgan e’tiborining rivojlanishini ko‘rsatadi. Har bir davrda publitsistik matnga yangicha yondashuvlar va metodologiyalar paydo bo‘lib, tilshunoslik sohasida yangiliklar kiritildi.

Ilmiy manbalarda publitsistik janrlar voqeyiy-informatsion, analitik va badiiy-publitsistik kabi turlarga ajratib o‘rganiladi. Rus adabiyotshunosi M.S.Cherepaxov publitsistikada janrlar masalasi ko‘pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazida ekanligini, bu borada yagona, qat’iy mezon yo‘qligini qayd etadi. Shu sababli olim publitsistik janrlarning muhim xususiyatlarini qat’iy mezon sifatida ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Haqiqatan ham, ocherk, maktub, pamflet, esse, suhbat kabi janrlar mohiyatan ba’zida sof publitsistik, ba’zida badiiy-publitsistik, ba’zan esa adabiy-tanqidiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin<sup>53</sup>. Shu nuqtayi nazardan badiiy-publitsistik janrlar olimlar tomonidan turlicha tasnif qilinadi. R.Muhammadiyev “Publitsistika janrlari”<sup>54</sup> kitobida o‘zbek gazeta va jurnallari asosida publitsistik janrlarga qisqacha ta’rif berib, ularning bir-biridan farqlarini sharhlaydi. Badiiy-publitsistik janrlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan adabiyotshunos Ochil Tog‘ayev esa janr xususiyatlariga ko‘ra publitsistikani voqeyiy-informatsion (xabar, reportaj, hisobot, korrespondensiya), analitik (maqola), badiiy-publitsistik (ocherk, feleton, pamflet) turlarga ajratadi. Janrlar tasnifi borasidagi masalani hal qilishda

<sup>53</sup> Kurbonova S., Yorqinoy I. Badiiy-publitsistik janrlarning rivojlanish xususiyatlari (esse janri misolida) // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnal. 2022. – № 4. – B. 86-89.

<sup>54</sup> Qarang: Muhammadiyev P. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1965. –124 б.



publitsistik va jurnalistik janrlarning farqlanishi masalasiga e'tibor qaratish lozim. O'zbek tilshunosligida O.Tog'ayev, M.Xudoyqulov va boshqa tadqiqotchilar publitsistik janrlar xususida so'z yuritishib, an'anaviy ravishda axboriy, tahliliy va badiiy-publitsistik janrlarni "publitsistika janrlari" sifatida sanab ko'rsatishgan.<sup>55</sup>

Publitsistika fan, san'at, adabiyot asarlari tarkibiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Keyingi yillarda publitsistik roman, pyesa, she'r va kino asarlari paydo bo'lmoqda.

Jurnalist har bir janrda ma'lum matn turini birlashtiruvchi til imkoniyatlaridan foydalanadi. Ommaviy axborot vositalarining konvergensiya va dinamik rivojlanishi natijasida janrlarning integratsiyasi mediamatnlarning janr xususiyatlarini aniqlash imkonini qiyinlashtirmoqda. Odatda, "an'anaviy" jurnalistik matnning bir nechta janrlar guruhi ajratib ko'rsatiladi: axboriy (informatsion) janrlar, tahliliy (analitik) va badiiy-publitsistik janrlar. "G'arb jurnalistikasida badiiy-publitsistik janr bugungi kunda ingliz tilidagi "features" atamasi bilan ham ifodalanmoqda".<sup>56</sup>

Funksional uslublarining barchasida bo'lgani kabi publitsistik uslubda ham faqat uning o'zigagina xos bo'lgan va matnda alohida bo'rtib turadigan xususiyatlar mavjud. Xo'sh, bu o'ziga xosliklar nimalardan iborat? Bu haqida tilshunos va publitsistlarning fikrlari qanday. Publitsistika – davrning ijtimoiy-siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan adabiy ijod turi. Publitsistikaning vazifasi ijtimoiy fikr uyg'otish va uni shakllantirish, ma'lum maqsadga yo'naltirish, hujjatli fakt-ma'lumotlar asosida voqelik manzarasini yaratishdan iborat. Hozirgi zamon ijtimoiy hayoti, unga aloqador o'tmish va kelajak faktlari publitsistikaning predmetidir. Hayotda ijtimoiy faoliyat, ong qarashlarning salmog'i ortgan sari publitsistning, ya'ni ijodkorning voqelikka faol aralashuvi, fikrni bevosita oshkora, dangal ifodalash tamoyili ham oshdi.

---

<sup>55</sup> Тогаев О. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 3-6; Худойкулов М. Журналистика ва публицистика: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б. 142-280; Муҳаммадиев Р. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1965. – Б. 24; Қозокбоев Т. Журналистика асослари: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007. – Б.53; Худойкулов М. Журналистика ва публицистика: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б. 142-280.

<sup>56</sup> Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов (опыт исследования современной английской медиаречи). – М.: Едиториал УРСС, 2005. – С. 142.

Publitsistik uslubda gazeta tilining o'ziga xos o'rni va xususiyatlari bor. Publitsistik matnda boshqa vazifaviy uslubga xos materiallar (masalan, she'r, hikoya, badiiy asar parchalari, farmon, qaror kabilar), agar gazeta materiallariga singdirilmagan bo'lsa, o'z uslublari doirasida o'rganilishi lozim, ya'ni u publitsistik matnga aloqador bo'lmaydi.

Publitsistik uslubdagi matnlarni o'qish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu uslubning o'ziga xos xususiyati: matnlarning bir qismi ilmiy, boshqa qismi – boshqa uslublardagi matnlarga yaqin turadi. Jurnalistikaga oid matnlar siyosiy lug'at, frazeologik birliklar, qisqartmalar, voqeliklar, gazeta bosmalari, iboralar va turli mavzular qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Gazeta va jurnal nashrlari turli xil, jumladan, reklama va hissiy jihatdan jozibali sarlavhalarga ega. Publitsistik uslubning ikki turi og'zaki nutqda: notiqlik uslubi va radio va televidenie dasturlarining matni, shuningdek, gazeta uslubi yozma nutqda namoyon bo'ladi. Publitsistik uslubning yozma shakllari – bu insholar (falsafiy, adabiy, axloqiy) va jurnalistik maqolalar (siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqalar) dan iboratdir. Publitsistik uslubning umumiy maqsadi – jamoatchilik fikriga ta'sir qilish, o'quvchi yoki tinglovchilarni muallif tomonidan berilgan sharhning yagona haqiqiy ekanligiga ishontirish va uni bayon qilingan fikrni qabul qilishga undash. Publitsistik uslub aniq va mantiqiy sintaktik tuzilishi bilan biriktiruvchi so'zlardan keng foydalanish va matnni qismlarga ajratilishi bilan tasniflanadi. Notiqlik uslubi – bu publitsistik uslubning og'zaki shakli hisoblanadi. Tinglovchilar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa yozma va og'zaki nutqning sintaktik, leksik va fonetik xususiyatlaridan foydalanishga imkon beradi. Ushbu uslubning o'ziga xos xususiyatlari – bu xalqqa to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish; ba'zida – so'zlashuv uslubiga oid so'zlardan foydalanishi bilan xarakterlanadi. Notiqlik uslubiga jalb qilingan stilistik vositalar kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi. Notiq tez-tez analogiya va metaforalarni ishlatadi, lekin

odatda an'anaviy usullarni qo'llaydi, chunki individual stilistik qurilmalarni idrok qilish qiyin bo'lishi mumkin<sup>57</sup>.

Publitsistik uslub va gazeta til xususiyatlarini tadqiq qilgan tulshunos A.Abdusaidov gazeta tiliga xos belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Gazeta tili yozma adabiy tildir. U o'ziga xos lingvistik belgilarga ega.
2. Gazetada barcha vazifaviy uslublarga oid materiallar bosiladi. Bu gazeta tilining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.
3. Gazeta tili badiiy, so'zlashuv uslublar tiliga yaqin turadi, ilmiy, rasmiy uslublar tilidan farq qiladi.
4. Gazeta tili adabiy tilning imloviy, lug'aviy, punktuatsion hamda uslubiy me'yorlariga qat'iy amal qiladi.
5. Gazeta tilining o'ziga xos xususiyati uning axborot berish, tashkilotchilik, targ'ibot va ta'sirchanlik kabi vazifalardan kelib chiqqan<sup>58</sup>.

Hech kimga sir emaski, publitsistik matn bevosita gazeta yuzini ko'rgan matn hisoblanadi. Shu sababdan gazeta tili va publitsistik matnning til xususiyatlari deyilganda bir tushuncha nazarda tutiladi. Shunday holatlar bo'ladiki, publitsistik matn til xususiyatlari publitsistik uslub me'yoriga amal qilmaydi. Bunda publitsistik matn ilmiy uslubga yaqinlashadi. Masalan: *Jizzax viloyatida havo ochiq bo'ladi. Shamol sharqdan sekundiga 7-12 metr tezlikda esadi. Harorat kechasi 7-10 daraja, kunduzi 22-25 daraja issiq bo'ladi. Viloyatimizning tog'li hududlarida havo o'zgarib turadi, yog'ingarchilik kutilmaydi. Shamol sharqdan sekundiga 7-12 metr tezlikda esadi. Harorat kechasi 5-8 daraja iliq, kunduzi 17-22 daraja issiq bo'ladi.* Mazkur matnda xabar mazmuni publitsistik uslubga tortsa, 7-12 metr tezlik, 7-10 daraja, 22-25 daraja kabi ilmiy asoslangan birliklar keltirilishi publitsistik matnni ilmiy uslubga yaqinlashtiradi.

Bunday holat ingliz tili publitsistik matnlarida ham uchraydi. Masalan: *America`s annual rate of inflation jumped in August to 3,7%, the second month in*

---

<sup>57</sup> Тихонова Е. В. Медиатекст как инструмент вербальной диагностики конфессиональной напряженности // Мировое культурно-языковое и политическое пространство: инновации в коммуникации: сборник научных трудов. М.: ТрансАрт, 2014. С. 172–186.

<sup>58</sup> Batafsil qarang: Abdusaidov A. Nutq mahorati. Qayta nashr Samarqand : SamDU nashri, 2016. –B. 96

*a row, the rate has risen following a year of consistent declines.* (The Economist 16.09.23). Ushbu matnda ham xabar mazmuni yoritilganligi publitsistik uslubga olib borayotganligi va matnda *annual rate, inflation, 3,7%, consistent declines* kabi iqtisodiy ilmiy uslubga xos birliklarning qo'llanilishi ushbu publitsistik matni ilmiy uslubga yaqinlashtirayotganini guvohi bo'lamiz.

Shu nuqtayi nazardan, yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar umumiy holatda (ayrim farqlar bilan) ikkala tilga (ingliz va o'zbek) oid publitsistik matnlariga ham tegishli hisoblanadi.

Voqelik faktlarini mantiqiy va obrazli umumlashtirib ifodalovchi maqola va boshqa yirik asarlarga emas, balki matbuot janrlarining hammasi ham publitsistikaga kiradi. Publitsistika mavzu xususiyatlari jihatidan falsafiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, adabiy, tanqidiy; uslub jihatidan bahs-munozarali, tashviqot-targ'ibot, tanqidiy-tahliliy, hajviy ko'rinishlarga ega. Publitsistika janr jihatidan voqeiy-informatsion (xabar, reportaj, hisobot), tahliliy (maqola), badiiy-publitsistik (ocherk, felyeton, pamflet, yozuvchi maqolasi) turlarga bo'linadi. Publitsistika hayot faktlarini chuqur tahlil va tadqiq etish, ya'ni ijtimoiy publitsistik tadqiqot orqali voqelikni kashf etadi. Shu jihatdan u ijtimoiy fanga yaqinlashadi. Publitsistika ilmiy-nazariy xususiyatlarga ega bo'lishi, u yoki bu fan masalalarini publitsistik maqola tarzida talqin va tashviq etishi mumkin. Publitsistikaning shakli, ichki tuzilishi mantiqiy tafakkur va obrazlilikning o'zaro birikuvidan iborat. Publitsistika janrida obraz o'ziga xos me'yorda qo'llanadi. Publitsist shaxsiyati shoir shaxsiyati singari o'zining boy ichki dunyosi, nuqtai nazari bilan namoyon bo'ladi.<sup>59</sup>


“Matbuotda so‘z – asosiy, lekin yagona fikr ifodasi emas”<sup>60</sup>. Gazeta mediamatnlarida muallif o‘z fikrini ifodalashda verbal birliklar bilan bir qatorda noverbal ifodalardan ham foydalanadi. Noverbal vositalar muloqotning bilvosita ifodasini ta'minlaydi. Xabar mazmuni aniq ochib berilmasa, gazetxon matn

---

<sup>59</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Publitsistika>

<sup>60</sup> Ортиқова Ю. ТВда сўзлашув маданияти // Хуррият, 2018 йил 10 январь. – Б. 4.

mazmunini to'g'ri anglamasligi mumkin. Mutaxassislar OAV ning bu nuqsonini quyidagi karikatura bilan ifodalaydilar:



(1-rasm)

Ta'kidlaymizki, gazeta tili tilshunoslik nuqtayi nazaridan murakkab va bir xil bo'lmagan hodisadir. Feleton va maqola, korrespondensiya va intervyular kabi, so'z nafaqat nominativ, balki estetik ma'noga ham egadir. Gazetada badiiy janrlarga (hikoya, she'r, badiya, esse va h.k.) katta qiziqish bilan joy ajratiladi.<sup>61</sup> Bu hollarda gazeta tili tadqiq qilinsa, albatta, badiiy uslubda bo'lgani kabi publitsistik uslub ham rang-barang ichki tuzilishlardan iborat bo'ladi.

Bu xususiyatlar ommaviy axborot vositalarining (keyingi o'rinlarda OAV shaklida beriladi) ijtimoiy vazifasiga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Axborot berish barobarida ham targ'ibot ishlarini olib borish, ham tinglovchi, tomoshabin va o'quvchiga ta'sir o'tkazish ularning asosiy vazifasi sanalar ekan, til vositalari ham ana shunga mos ravishda tanlanadi.

OAVlarining *informatsiya berish, ma'rifiylik, tarbiyaviylik, tashkilotchilik, gedonistik (ko'ngilochar), safarbarlik, deklarativ-shior, oddiylik, hamma uchun baravarlik* kabi asosiy xususiyatlari tanlanish o'lchovlari bo'lib hisoblanadi. Jurnalistning materialni tayyorlash va uzatish jarayonidagi fikrni rivojlantirib borish san'ati, bayondagi dinamizm, fikriy va hissiy uyg'unlikni muvozanatda

<sup>61</sup> Усмонова Ш. Медиадискурсада экспрессивлик тенденцияси // Сўз санъати халқаро журнали, 2021. – № 3. – В. 247-254.

saqlashi, hujumkorligi va umuminsoniy etik me'yorlarni saqlashi kabi holatlar ham til vositalarini tanlash jarayonini boshqarib turadi.

Erkinlik, obyektivlik, obrazlilik, ta'sirchanlik, ravonlik, ixchamlik, haqqoniylik, dabdabali, balandparvoz uslubdan voz kechish, emotsional-ekspressivlik kabilar tildan foydalanishning OAVlariga xos bo'lgan jihatlari hisoblanadi. Bularni umumiy holat sifatida baholasak, har bir janrga xos bo'lgan xususiy holatlar ham mavjud. Masalan, konkretlik, aniqlik, operativlik, umumlashtirish, ixchamlik kabilar publitsistik uslubning axborot ko'rinishiga, shuningdek, faktning to'g'riligi, neytrallik singarilar xabar; biron bir yangilikdan xabardor qilish, unda faktlarga tayanish, tezkorlik, ta'sirchanlik, haqqoniylik, tantanavorlik, emotsional-ekspressiv bo'yoqli so'zlarning ko'pligi reportaj; dolzarblik, jonli suhbat, hozirjavoblik, ravonlik, ixchamlik, ta'sirchanlik intervyu janrlariga xos bo'lsa, tahliliylik, umumlashtirish, haqqoniylik, xulosalash kabilar mazkur uslubning tahliliy ko'rinishlariga tegishlidir. Shuningdek, qoliplilik, andozalilik va neytrallik korrespondensiyalarga; dalil, isbot, tahlil, umumlashtirish, obyektivlik kabilar maqola janrlariga xos xususiyatlar sanaladi.

Bu xususiyatlar OAVlarining barchasiga tegishli bo'lsa, gazeta va jurnallar imkoniyati ularda beriladigan bosh maqola, bosh muharrir minbari singari rubrikalar hisobiga yana ham kengayadi. Ular dasturiy, safarbarlik, yo'l ko'rsatuvchilik, targ'ibot va tashkilotchilik, umumlashtiruvchilik, publitsistik va ishchanlik xarakteri bilan publitsistikaning maxsus janrlari sifatida namoyon bo'ladi. Subyektiv bahoning mafkuraviyligi, bayon uslubining yuqoriligi, ijtimoiy-siyosiy leksikaning faolligi, sintaktik qurilishi nisbatan murakkabligi bilan bu maqolalar alohida mavqeda turadi.

Publitsistik uslub tadqiqotchilari unga xos bo'lgan va bir-biridan ajratib bo'lmaydigan asosiy jihati sifatida *informativlikni* va ta'sir xarakterini inobatga olib, *ekspressivlikni* qayd etishadi. Ushbu jihatlar uslubning muhim xususiyatlarini – *standartlik* va *tasviriylilik* xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Bu bir-biriga qarama-

qarshi tendensiyadagi hodisalar bir-birini taqozo ham qiladi va yaxlitlikda olib qaraladi.<sup>62</sup>

Shuningdek, standart va bo‘yoqdorlik, informativlik va emotsionallik oppozitsiyasi ham publitsistik uslubning konstruktiv belgilari sanaladi va ular turli janrlarda turlicha namoyon bo‘ladi. A.Abdusaidov “Gazeta janrlarining til xususiyatlari” mavzusida himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasida *standart-antiekpressivlik, ekspressivlik-antistandart formulasi* haqida gapirganda ana shu belgilarni nazarda tutgan.<sup>63</sup>

Publitsistik uslubning hozirjavoblik, targ‘ibot-tashviqot xarakteri uning barcha janrlariga xos materiallarning qisqa vaqt ichida ommaga yetkazilishini taqozo etadi. Bir necha janrlarga oid va turli funksional uslublarga tegishli materiallar ko‘p sonli jurnalistlar, o‘z va jamoatchi muxbirlar tomonidan tayyorlanadi. Bu jarayondagi vaqt tig‘izligi bayonda ekspressivlikka intilish, jurnalistni avvaldan ishlatilib kelinayotgan obrazli so‘z va iboralarga murojaat qilishga majbur qiladi.

Xullas, publitsistika tili xabar uzatish xususiyati, mantiqiyliги va emotsionalligi bilan funksional uslublar doirasida alohida tizimni tashkil etadi.

Publitsistik uslub o‘zbek tili funksional uslublari tizimida kitobiy uslub sifatida qaraladi. Unda amal qiladigan barcha me‘yorlar adabiy til me‘yorlari doirasida bo‘lishi taqozo etiladi. Publitsistikaga oid ayrim janrlarning so‘zlashuv jarayoni bilan bog‘liqligi unda so‘zlashuv uslubiga oid xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga ham olib keladi. Har ikki uslub xususiyatlari uyg‘unlashgan holda yuzaga chiqishidan qat’iy nazar publitsistik uslub kitobiy uslub va so‘zlashuv uslubining etaloni sifatida omma uchun adabiy nutq namunasi vazifasini o‘taydi.

---

<sup>62</sup> Tasviriylik va ekspressivlikni funksional uslublarda, masalan, ular xos b‘ulmag‘an ilmiy uslub va publitsistik uslublarda ma‘nodosh s‘uzlar sifatida qarashga t‘ug‘ri kelaadi. В.Г.Костомаров *эксpressивлик* ва *стандарт* ning ўзаро bog‘liqligini *публицистиканинг асосий принципи* sifatida belgilagani tuфайли у тилшуносликда *Костомаров концепцияси* sifatидан эътироф этилади. [Қаранг: *Кожина М.Н.* *Стилистика русского языка*, 1983 с.186; *Барлас. Л.Г.* *Русский язык. Стилистика*, с.

<sup>63</sup> Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. –Тошкент, 2005. – 39 б.

Bu uslublarga bog'liq ravishda publitsistik matnlar *yozma va og'zaki shakllarda* namoyon bo'ladi. Ammo yozma shakldan foydalanish ustunlik qiladi. Siyosiy sharhlovchilar, komentatorlar, eshittirishni olib boruvchilar, diktorlarning chiqishlari va suhbatlariga oldindan tayyorgarlik ko'riladi – qog'ozga tushiriladi. Hech qanday tayyorgarliksiz amalga oshiriladigan, spontan nutqdan foydalanish undan keyingi o'rinda turadi. Ba'zi holatlarda bu ikki shakl aralash holda keladi. Siyosiy-publitsistik nutqning bu ko'rinishidan ko'pincha davlat rahbarlari foydalanadilar.

Publitsistika tufayli radio va televideniya tilida tez-tez murojaat qilib turilishi natijasida nutqning og'zaki shakli faqat maishiy faoliyat doirasida qolib ketmadi, u so'zlashuv va kitobiy nutq doirasida ham amal qila boshladi. Deyarli kitobiy vositalar qo'llaniladigan ilm-fan, rasmiy axborot, publitsistikaga ham kirib bordi. Bu esa kitobiy va so'zlashuv nutqni o'zaro yaqinlashtirishga, faollashtirishga va jadallashtirishga xizmat qildi. Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, publitsistika va jurnalistika mutlaq bir uslubga xos bo'lgan usullardan foydalanayotgan emas. Unda nutqning hozirgi o'zbek tili keng qamrovli tizimidagi barcha - kitobiydan (ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy) tortib, so'zlashuv nutqgacha (adabiy-so'zlashuv, muomala-maishiy, oddiy nutq) elementlari keng qo'llanilmoqda.

Publitsistik uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Buning ma'nosi shuki, mazkur uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan bunga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi.

Adresat ongi va hissiyotiga ta'sir o'tkazish vazifasi publitsistik uslub va buni funksional uslub jihatdan birlashtiradi. Ta'sir o'tkazuvchi lingvistik vositalar bu uslublarning har ikkalasida ham umumiy bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu vazifa ularni bir-biridan ajratadi ham. Chunki ularning ta'sir ko'rsatishdan maqsadlari turlicha bo'ladi. Publitsistik uslubga xos bo'lgan jangovarlik, hozirjavoblik, axborot uzatishdagi vaqtning tig'izligi adresantga tezlikda, to'g'ridan to'g'ri va ochiq ta'sir o'tkazish vazifasini qo'yadi. Bunda esa



adresatning ruhiy olamiga, qalbiga ta'sir o'tkazish orqali uning badiiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy olamini boyitish va zavqlantirish maqsad qilib qo'yiladi.

Uslub mohiyatiga asoslanib aytish mumkinki, publitsistik uslubda ekspressivlikka erishishning vositalari boshqa uslublarga qaraganda ko'p. Mana shu jihatlari bilan u bunga juda yaqinlashadi. Shuning uchun ham mazkur uslubning lingvostilistik xususiyatlari haqida gapirganda asosiy e'tibor ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi tasviriy vositalarga qaratiladi.

Oshkora munosabat, subyektiv baho publitsistik uslubning muhim xususiyati sanaladi va bu bilan bundan farqlanadi. Badiiy mantlarda muallif g'oyasi va fikri boshqalarning nutqi orqali, publitsistik uslubda esa bevosita muallif nutqi orqali ifoda etiladi.

Publitsistik bayon usuli va kompozitsion qurilishi ham bu vazifalarga bog'liq tarzda reallashadi. Masalan, O'zbek publitsistik matnlarida bayon 1- va 3-shaxs nomidan berilishi me'yoriy holat sanaladi. Masalan: *Men 1946-yilning 27-dekabrida, tizza qadar qalinlikda qor yoqqan ayozli kuni tug'ilgan ekanman; Dadam rahmatli harbiy xizmatchi* edilar (T.Malik. Kenja o'g'il. "Oila" ilmiy-amaliy markazi savollariga javoblar). Bundan tashqari, muallif "men"i bayon 3-shaxs tilidan berilganda ham aniq bilinib turadi. Masalan, *Kamina oiladagi beshinchi, kenja farzand edi* (T. Malik. Kenja o'g'il. "Oila" ilmiy-amaliy markazi savollariga javoblar). Bunda esa hikoyachi "men"i bilan muallif "men"i hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Hikoyachi obrazining kiritilishidan stilistik maqsad ko'zlanadi. Boshqacha aytganda, 3-shaxs tomonidan hikoya qilish muallifga ma'lum uslubiy qulayliklar tug'diradi. Ingliz tili publitsistik matnlarida ham har ikkala shaxsda berilishi mumkin, lekin ko'pincha 3-shaxsda ifoda etiladi, chunki bu usul obektivlikni saqlashga yordam beradi va o'quvchiga malumotni aniq va ishonchli tarzda taqdim etishga imkon beradi. Masalan: *"Mitt Romney announced his retirement as a senator when his current term expires. The former Republican presidential candidate said that, at 76, he was getting too old.* (The Economist 16.09.23)

Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Shuningdek, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi. Axborot xarakteridagi materiallarda umumtil vositalari faol uchraydi va bayonning neytralligi, til materialini tanlashdagi mushtaraklik uni ilmiy uslubga yaqinlashtiradi. Aniqlik va obyektivlik ruhi ustunlik qiladi. Joy va kishi nomlari, hisob-kitob yoki aniq ma'lumotlarni ifodalaydigan raqamlar, abbreviaturalar, mavzuga oid terminologiya ko'p qo'llaniladi. Masalan, *Bizning oila Toshkentga musofir, men tug'ilganimda ham o'zimizga tegishli uy yo'q edi. Ikki akam va ikki opam, ta'bir joiz bo'lsa, ijara uylarda tug'ilishgan. Men tog'amning uylarida yashayotganimizda tug'ilgan ekanman* (T. Malik. Kenja o'g'il.).

Muallif publitsistik uslubda ma'lum bir ijtimoiy guruh nomidan, ittifoq nomidan, partiya yoki sinf nomidan yoki bo'lmasa sotsial asoslangan holda shaxsan o'z nomidan gapiradi. Shunga ko'ra publitsistik nutq deyarli hamma vaqt shaxsiy emotsional xarakterda bo'ladi. Masalan: *"We're confident the prime minister is receiving the best possible care from the National Health Service."* (The Economist 11.04.20). Ushbu publitsistik matnda Donald Trump bosh vazirning sog'ayib ketishiga xalq nomidan ishonch bildirayotganini ko'rishimiz mumkin.

Ammo publitsistik uslubning turli janrlarida muallif shaxsining ishtiroki turlicha darajada bo'ladi. Shunday janrlar borki, muallif butunlay tushib qoladi, ishtirok etmaydi. Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda shu elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

M.N.Kojinaning ta'kidlashicha, gazeta janrlariga bog'liq tarzda namoyon bo'ladigan uslubiy rang-baranglik tarqoq holda mavjud bo'lmaydi. Ular umumiy nuqtada birlashadi. Masalan, bosh, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop maqolalar, taqrizlar, intervyu va boshqalar bayonda tahlil xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, ekspressiv ta'sir o'tkazuvchi, publitsistik va baholash momentlari bilan; ocherklar,

pamfletlar, felyetonlar badiiylik xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, publitsistik uslubligi bilan o'sha uslublardan farqlanadi.<sup>64</sup>

Demak, nutqda uslublararo yaqinlik bo'lishi, ularning biriga xos bo'lgan elementlarning ikkinchisiga o'tib turish funksional uslub qonuniyati bu yerda ham amal qiladi. Shuning uchun ham M.N.Kojina bu elementlarning gazeta tilida uchrashi uslub yaxlitligiga zarar yetkazmasligini va matnda o'ziga xos vazifa bajarishini ta'kidlagan edi. Publitsistik uslubda boshqa uslublar elementlarining qo'llanishi mazkur uslub qamrovining kengligi bilan izohlanadi.

Publitsistik uslub boshqa uslublar bilan mustahkam aloqadorlikda, ayniqsa bu bog'liqlik ijtimoiy axborotning rivojlanishi va axborotning kengayishi bilan ortmoqda. U funksional uslublar tizimida lingvistik va ekstralingvistik alomatlari bilan alohida uslub bo'lishi bilan birgalikda, hayotiyliigi, jonliligi bilan so'zlashuv uslubga, obrazlilik bilan badiiy uslubga, ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan rasmiy ushuga yaqin turadi. Ijtimoiy hayotdagi barcha yangiliklar dastlab matbuotda, umuman OAVlarida dunyo yuzini ko'rishi va shundan so'nggina ommalashishi oqibatida publitsistik uslubning boshqa uslublar taraqqiyotiga ta'sir o'tkazishi obyektiv jarayondir.

Publitsistik matn publitsistik uslub asosiga quriladi. Publitsistik uslub vazifaviy uslublar tizimida kitobiy uslub sifatida qaraladi. Unda amal qiladigan barcha me'yorlar, adabiy til me'yorlari doirasida bo'lishi taqozo etiladi. Publitsistikaga oid ayrim janrlarning so'zlashuv jarayoni bilan bog'liqligi unda so'zlashuv uslubga oid xususiyatlarning namoyon bo'lishiga ham olib keladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimiz ekstralingvistik shart-sharoitlar bilan chambarchas bog'liq holda publitsistik uslub o'z lingvistik uslubiy xususiyatlarini namoyish etadi. Bu xususiyatlar til qatlamlarining barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Masalan, fonetik sathda kitobiy va so'zlashuv elementlarini talaffuz qilishning uyg'unligi, ohangning muayyan semantik-stilistik vazifalarni bajarishga bo'ysundirilishi; leksik sathda ijtimoiy-siyosiy leksikani samarali qo'llash; morfologik-so'z yasalishi sathida ot va fe'lning kategorial shakllarini faol ishlatish;

---

<sup>64</sup> Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1983. с.188.

abbrevaturalar, qisqartmalardan foydalanish; sintaktik sathda sintaktik qurilmalarning oddiyliigi, gap qurilishining tartibliigi, jumlaning mantiqiy markazi hisoblanadigan gap bo‘lamlari inversiyasi, poetik sintaksis va so‘zlashuv nutqi elementlari kabilar mazkur uslubning lingvistik xususiyatlaridir.

Funksional uslublarda sintaktik kategoriyalarning amal qilishida ham umumiylik, ham xususiylik mavjud. Bu qonuniyat publitsistik uslubga ham daxldordir. Xususiylikning namoyon bo‘lishi publitsistikaning janr xususiyatlariga bog‘liq. Shu ma’noda ekstralingvistik omillarga ham bog‘liq bo‘lgan holda radio, televideniya va gazeta-jurnallar tili va bayon uslubi bir-birlaridan farqlanadi. Masalan, radio nutqini olaylik. Soha tadqiqotchilarining radiojurnalistikaga oid ishlarda “uzun jumlar, kirish va ergash gaplarga radio chiday olmaydi”, “ergash qo‘shma gaplar radioning dushmani” singari fikrlarini eslaylik.

Teleradio nutqida og‘zaki nutq xususiyatlari mavjud bo‘lsa-da, kitobiy nutq elementlarining qo‘llanilishi ustunlik qiladi. Lekin kitobiy sintaksisning sifatdosh va ravishdosh o‘ramalari, kiritma gaplar kabi til birliklarining qo‘llanilishi nutqda g‘alizlikni keltirib chiqarishi mumkinligini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bu imkoniyatlarni ishga solish gazeta uchun tayyorlangan materialni nomlashdan boshlanadi. Tohir Malikning “Bekajon” gazetasiga bergan materialga murojaat qilsak, unda iboralar va xalq maqollari yoki shu xarakterdagi gaplar, so‘roq va undov gaplarning materialga sarlavha (publitsistik matnda sarlavhaning funksional-stilistik xususiyatiga 2.1-§. bo‘limda batafsil to‘xtalamiz) sifatida keltirilishi tasviriylik talabi bilan bo‘ladi: *“Ishq boshqa, havas boshqa”*, *“Dunyoda ishq-muhabbatdan begona odam yo‘q”*, *“New city, new start, “Access delayed”* (The Economist 24.08.24) singari sarlavhalar ixcham tarzda berilishi bilan bir qatorda materialning mohiyatini ochib beradi. Lekin *“Bilmayin bosdim tikanni – tortadirman jabrini. Bilsam erdim, bosmas yerdim – tortmas erdim ul tikanning jabrini”*, *“My mother is a hoarder. Do I have to help her?”* (The New York times 17.09.23) kabi maqolalarning mohiyati sarlavha orqali qisman ifodalanayotgandir, ammo sarlavhani ixcham deb bo‘lmaydi.

A.Mamajonov publitsistik matnlarda yoyiq sodda gaplar chastotasi qo'shma gaplarga nisbatan yuqori ekanligini aniqlagan.<sup>65</sup> J.Djumabayeva o'zining "Mustaqillik davri publitsistik asarlaridagi qo'shma gaplar talqini" nomli ishida mazkur uslubda qo'shma gaplarning teng va tobe tarkibli tipik turlari ko'p qo'llanishini, teng va tobe tarkibli qo'shma gaparlarda birinchi qismlar yoki ikkinchi qismlari bir tarkibli gaplardan iborat bo'lganda, odatda, axborot yetkazish, ta'kidlash, voqealarning ketma-ket bajarilganligi, xulosalash, urg'u berish, da'vat etish, izoh berish, qat'iylik, eslatish kabi qator mazmun munosabatlari ifodalanishini aniqlagan.<sup>66</sup>

Publitsistika ijtimoiy-siyosiy hayot voqealariga faol aralashgani singari zamonaviy til rivoji va taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatib keladi. Aytish mumkin bo'lsa, ana shu taraqqiyot darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, birgina o'zbek terminologiyasi taraqqiyotini olaylik. Bu haqda A.Hojiyev quyidagilarni bayon qiladi: "Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida vaqtli matbuotning roli ham juda muhimdir. Xuddi shu vaqtli matbuotda, ayniqsa, gazetada, adabiy tilning barcha stillari o'z aksini topadi. Shu bilan birga, ijtimoiy aloqaning bu formasi kundalik hayotda muhimligi, operativligi va ommaviyligi bilan ham xarakterlanadi. Shu jihatdan, "Adabiy tilning eng muhim laboratoriyasi" degan iborani vaqtli matbuotga nisbatan aytish juda ham o'rinli bo'ladi".<sup>67</sup>

Anglashiladiki, publitsistik matnlarda yuz beradigan sintaktik o'zgarishlar tasviriylik bilan bog'liq. Odatdagi standart gap qurilishi, shtamp xarakteridagi jummalarning qo'llanilishi xabar mazmunidagi materiallarga xos. Shuning uchun ham M.N.Kojina sintaksisdagi ekspressiv vositalar va standartlar uyg'unligini stilistikaning prinsiplaridan biri sifatida qaragan.<sup>68</sup>

---

<sup>65</sup> Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка: Автореф.дис. ...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1991, с.23

<sup>66</sup> Джумабаева Д.Ш. Мустақиллик даври публицистик асарларидаги қўшма гаплар талқини: Филол.фан.номз. ... дис.автореф. – Тошкент, 2006, 15-16-бетлар.

<sup>67</sup> Қаранг: Совет даври ўзбек адабий тилининг тарақиёти. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988, 31-б.

<sup>68</sup> Кожина М.Н. Стилистика русского языка.– М.: Просвещение, 1983. –С.196

Shunday qilib, garchi publitsistik uslubning o‘z sintaksisi bo‘lmasa-da, sintaktik kategoriyalarning mazkur uslubga xos matnlarda qo‘llanishida alohidaliklar mavjud va ular janr xususiyatlari bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

### **1.3-§. Publitsistik matnni lingvopragmatik tahlil qilish tamoyillari**

Matnning lingvopragmatik xususiyatlari, bu imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o‘rganish, tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. U matnning ijtimoiy, ruhiy-psixologik qonuniyat va tamoyillar asosida ro‘yobga chiqishini, shuningdek, til tizimi semantik rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Tilshunosligimizda pragmalingvistika asoschilaridan Sh.Safarovning “Til tizimi taraqqiyotining boshlang‘ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi”<sup>69</sup> – degan fikriga to‘liq qo‘shilish mumkin. Binobarin, til birinchi navbatda so‘zlovchining shaxsiy kommunikativ maqsadi, niyati, istagi, foydasi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun tildan foydalanishda matn ijodkori (til shaxsi) bilan bog‘liq tomonlarini o‘rganish ham muhim. L.S.Vigotskiy bu haqda quyidagicha yozadi: “Nutq fikrga ko‘ylak singari kiyilishi mumkin emas... Fikr nutqqa aylanar ekan, qaytadan tuziladi va shakli o‘zgaradi. Fikr aks etmaydi, balki so‘zda ifodalanadi”<sup>70</sup>. Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari kiradi<sup>71</sup>. Lisoniy hodisalarning bu yo‘sidagi tahlili ularning qo‘llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo‘lgan to‘siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda olib borilgan tadqiqotlarning umumiy tendensiyasi – til nafaqat olam lisoniy tasvirini aks ettirish vositasi, balki o‘zining funksional, kommunikativ jihatlari bilan muhimligiga e’tibor qaratila boshlanganligi bilan xarakterlidir. Shu tariqa, antropotsentrik tamoyillar negizida tilning inson hayotidagi o‘rni va til taraqqiyotida inson omili dixotomiyasi lingvistik

---

<sup>69</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 40.

<sup>70</sup> Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва, 1999. – С. 286.

<sup>71</sup> Qarang: Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 76.

pragmatikaning shakllanishiga zamin yaratdi. Agar ilgari tadqiqot predmeti sifatida soʻz va jumalarning formal tabiatiga, immanent variantlariga asosiy eʼtibor qaratilgan boʻlsa, pragmatika soʻzlashuvning kommunikativ mazmunini tadqiqot obyektiga aylantirdi<sup>72</sup>.

Pragmatika – nutq jarayonida belgilar va ularning ishtirokchilari oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni oʻrganadigan semiotikaning asosiy bir boʻlimi hisoblanadi. Pragmatikaga hozirgi kunda til aʼzolarining maʼlum bir soʻzlar va semantik konstruksiyalar orqali oʻz munosabatini bildirish va suhbatdoshning munosabatini tushunish darajasi, yoxud mavjud boʻlgan vaziyatdan kelib chiqib munosabat bildirishdir. Pragmatika amaliyotining rivojlanishida 3 bosqich yuzaga keladi”<sup>73</sup>.

Birinchi bosqichda pragmatika atamasi semiologiya-semiotikaning belgisi nomi sifatida qoʻllanildi. Oʻtgan asrning 30-yillarida falsafaga Charlz Morris tomonidan pragmatika termini kiritildi. U semiotikani tushunish uchun sintaktika va semantikadan tashqari pragmatikani ham bilish muhimligi haqidagi qarashlarni ilgari surdi, pragmatikani belgilarni interpereterlar bilan munosabatini, boshqacha aytganda, taʼsirini belgilaydigan bir soha sifatida talqin qildi.<sup>74</sup> Bu davrda pragmatika falsafiy nuqtayi nazardan oʻrganildi;

Ikkinchi bosqichda faylasuflar Austin, Serl va Paul Gris nutq kommunikatsiyalari va implikatura xususidagi nazariyalarni yaratishdi.

Uchinchi bosqichda esa Yakob L.Mey Gollandiyada oʻzining birinchi “Pragmatika” (1977) jurnalini nashr ettirdi. Pragmatika bugungi kunda oʻzbek tilshunosligida dolzarb oʻrin egallamoqda. U soʻzlashuvchi subyekt, qabul qiluvchi, ularning muloqotdagi oʻzaro taʼsiri va aloqa holati bilan bogʻliq masalalar toʻplamini oʻz ichiga oladi. Lingvistik tahlilning asosiy gʻoyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qoʻllanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir.

---

<sup>72</sup> Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning oʻrni. Monografiya. –Toshkent, 2017. –B. 5.

<sup>73</sup> Bu haqida batavsil qarang: Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.

<sup>74</sup> Morris C. (1938). Foundations of the theory of signs. In Neuratin O., Carnap R.,&Morris C. (Eds.) International encyclopedia of unified science, vol. 2, Chicago, University of Chicago Press, p. 44.

Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo‘nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o‘z “ichki” sohaları yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismning batafsil yoritilishi, o‘rganilishida namoyon bo‘ladi<sup>75</sup>.

Lingvistik pragmatikaning tadqiq doirasi keng bo‘lib, bu yo‘nalishda til birliklarining nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq jihatlari, kishilar o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiketlar, nutqning ijtimoiy xoslanishi, ifodaning subyektiv modal aspektiga aloqador kirish, baho bildiruvchi so‘z va vositalar, insonning ichki subyektiv ruhiyatini ifoda etuvchi diskurs hamda presuppozitsiya hodisasini o‘rganish maqsad qilib belgilandi<sup>76</sup>.

Nutqiy aktlar publitsistik matn mazmunini voqelantiruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, pragmatika termini mazmun-mohiyatiga ko‘ra faoliyat tushunchasi bilan bog‘liq. Shuning uchun uning lug‘aviy ma‘nosi amaliy ish mazmuni bilan aniqlashadi. Shunday ekan, lingvopragmatika til belgilarining nutqda bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi, uning mazmuni esa muloqotchilar o‘rtasidagi munosabat jarayoniga xos ifoda usuli va anglash mezonlari asosida namoyon bo‘lishidadir.

Pragmatikaga gapiruvchi subyekt, eshituvchi subyekt, so‘zlovchi – adresant, tinglovchi – adresat, ularning kommunikatsiyada o‘zaro bog‘lanishi, munosabatlari, aloqa qilish, suhbat qurish vaziyatlari bilan bog‘liq masalalar kompleksi ham kiritilgan. Shu tufayli lingvistik pragmatikaning tadqiqot obyekti sifatida mulohaza, fikr bildirishning oshkora va yashirin maqsadlari, so‘zlashuv taktikasi va so‘zlashuv fe‘l-atvori, fikr bildirishning pragmatik mazmuni (fikr bildirishning ko‘chma ma‘nolari, ishoralar, metaforalar, shamalar, qochirimlar va

---

<sup>75</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.76.

<sup>76</sup> Бу ҳақда қаранг: Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 15-17.



hokazo) adresatga nisbatan fikr bildirishning ta'siri namoyon bo'ladi.

Suhbat barcha til darajalarida muhim xususiyatlarga ega, shuning uchun u ko'pincha maxsus til tizimi sifatida qaraladi. Og'zaki tilning lisoniy xususiyatlarida nutq xatoliklaridan qochish kerak deb o'ylash noto'g'ri. Muvaffaqiyatli og'zaki muloqot – bu muloqot tashabbuskorlarining kommunikativ maqsadini amalga oshirish va suhbatdoshlarning roziligi. Muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun shart-sharoitlar suhbatdoshlarning qiziqishi, qabul qiluvchining dunyosidagi kayfiyat, suhbatdoshning kommunikativ rejasiga kirish qobiliyati, suhbatdoshlarning vaziyatga oid nutq hatti-harakatlarining qat'iy talablarini qondirish qobiliyati, haqiqiy vaziyat kabi omillar zarur bo'ladi. Masalan:

–Talqon qilmadingmi? – dedi dadam bir bo'lak lavlagini puflab-puflab yer ekan.

– Qo'rquv ichida oyimga qaradim. Qiluvdim, – dedi u sekin.

– Qolmadimi?

– O'g'ir o'lgur ag'darilib ketdi, – dedi onam aybdor ohangda.

– Nima? Dadam lavlagi bo'lagini qo'lida tutgancha jahl bilan onamga qaradi.

– To'kilib ketdi, – dedi oyim boshini quyi solib.

– Padaringga la'nat! – dedi dadam sekin, ammo tahdidli ohangda.

(O'.Hoshimov).

Misol sifatida keltirilgan ushbu parchada muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun shart-sharoit bo'lsa-da, suhbatdoshning kommunikativ rejasiga kirish qobiliyati, suhbatdoshlarning vaziyatga oid nutq xatti-harakatlarining qat'iy talablarini qondirish qobiliyati kabi omillar yetishmaydi. Natijada suhbat ko'p uzoqqa cho'zilmaydi.

Kommunikantning kommunikativ niyati “o'g'lining talqonni to'kib yuborgani”ni yashirishdir. Shunga ko'ra uning “o'g'ir o'lgur ag'darilib ketdi” shakldagi nutqiy gapini tinglovchi tushunmaydi. Buni muloqotga guvoh bo'lgan

muallifning nutqidan ham anglash qiyin emas. Kuzatuvchi “dadasini sekin, ammo tahdidli ohangda” aytganligini ta’kidlaydi<sup>77</sup>.

Shuningdek CNN kanalida Amerika prezidentligiga nomzodlar Donald Tramp va Kamilla Harris bergan intervyulariga quloq tutadigan bo’lsak, quyidagi soʻzlarini eshitishimiz mumkin:

“No tax on tips”<sup>78</sup> – ushbu fikr ortida har ikkala nomzodlar oʻzlarining kommunikativ niyatlari orqali ommaga ta’sir oʻtkazish va ovoz berishlariga undovni anglashimiz mumkin. Shunga koʻra ularning soliq toʻlashda kutilayotgan imtiyozlarni mualliflarning nutqidan ham anglash qiyin emas.

Pragmalingvistik tahlilda *shaxs* masalasi markaziy oʻrinni egallar ekan, nutq jarayonida ishtirok etuvchi soʻzlovchi hamda tinglovchi shaxs pragmatik komponentlar qatoriga kiradi. Haqiqatan ham, muloqotning ikki tomonlama ekanligi kamida ikki kommunikantning mavjudligini talab qiladi: adresant, adresat va ba’zi hollarda kuzatuvchi<sup>79</sup>.

Matnning nutqiy asar sifatida yuzaga kelishi niyatga olib boruvchi sababdan boshlanadi. Keyin esa soʻzlovchining ifodalashni koʻzda tutgan shaxsiy fikrlari shakllanishi yuz beradi.

Nutqiy faoliyatda uch muhim jihat dolzarb hisoblanadi:

- 1) chuqur semantik-sintaktik shakllarning semantik jarayonlari va shakllanishi;
- 2) leksik birliklar va ularning grammatik shakllarini tanlash;
- 3) nutq tiplariga asoslangan chuqur sxemalarni ishlab chiqish.

Har bir bosqich oʻz qoidalariga ega, har bir davrda alohida harakatlanish imkoniyati mavjud, butun sistema yaxlit. Harakatlar xarakteri individual. Tabiiyki, aynan shu holat soʻzlovchining nutqiy asarda individual uslubini namoyon qiladi.

Har bir tugallangan nutqiy asar doimo quyidagilar toʻgʻrisida ma’lumot beradi:

---

<sup>77</sup> Usmonov A. Oʻzbek tili bogʻlovchilarining funksional-stilistik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) ... diss-yasi. – Jizzax, 2023. – B. 105.

<sup>78</sup> <https://budgetlab.yale.edu>

<sup>79</sup> Азнаурова Э. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 52.

- asar yaratuvchisining fikrlash jarayoni haqida;
- uning nutqidagi ma’no, tushunchalar munosabati va xarakteri haqida;
- bu ma’nolarni o‘zlashtirish sifati haqida;
- fikrlarning ifodalanish usullari haqida;
- aniq nutqiy tafakkurning murakkab dinamik yaxlitlik sifatidagi xususiyatlari haqida;
- so‘z boyligi tarkibi haqida;
- ma’no ifodalovchi belgilarni tanlash haqida<sup>80</sup>.

Insonning serqirra ijtimoiy faoliyati to‘g‘ridan to‘g‘ri til bilan bog‘liqdir. Inson faoliyatini o‘rganish va uni turli nuqtayi nazardan tadqiq etuvchi fanlar u yoki bu darajada tilshunoslik fani bilan bog‘liq hisoblanadi.

Tilshunoslik o‘z taraqqiyoti davomida turli o‘zgarishlarga uchraganligi ma’lum. Shubhasiz, til jamiyat hayotida sodir bo‘lgan har bir o‘zgarishni o‘zida aks ettiradi. Yozuvchi har bir davr kishisi obrazini yaratar ekan, so‘zlar tanlovida ham shu jihatlarga e’tiborini qaratadi. Bu yozuvchidan alohida bilim, tajribani talab etadi. Tanlangan lisoniy birlikka pragmatik vazifa yuklanadi. Badiiy matnning xilma-xil janrlari mavjudligi, eng muhimi til bajaradigan muhim ijtimoiy vazifalardan biri – estetik ta’sirchanlikni ta’minlashi bilan ajralib turadi.

Professor M.Hakimov “O‘zbek pragmalinqvistikasi asoslari” nomli kitobida rus tilshunos olimi V.V.Petrovning quyidagi fikrlarini keltiradi: “...inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so‘zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o‘sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo‘lishning o‘zi ushbu tilda so‘zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, masalan, musiqali pyesa mazmunidan ogohlik uning ijrosi uchun yetarli bo‘lmaydi, buning uchun, eng asosiysi, ijro mahorati, layoqatiga ham ega bo‘lishi lozim”<sup>81</sup>.

Nutqiy akt tushunchasi insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida sodir etiluvchi o‘zaro ma’no aktlari munosabatining bayonidir<sup>82</sup>.

<sup>80</sup> <https://proza.ru/2014/11/07/1722>

<sup>81</sup> Qarang: Hakimov M. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 8.

<sup>82</sup> Бу ҳақда қаранг: Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 318 б.

Mavjud lingvistik adabiyotlarda ko'rsatilishicha, nutqiy akt tasnifi jarayonida quyidagi lisoniy mezonlarni hisobga olish tasnifning to'g'ri yakunlanishi uchun asos bo'ladi. Jumladan, nutqiy akt mohiyatini ko'rsatib turuvchi illokutiv akt bosh lingvistik mezon sanaladi. Shu ma'noda so'zlovchi va tinglovchining psixologik holatini e'tiborga olish tasnif mohiyatining to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, so'zlovchi va tinglovchi qiziqishlari munosabati ham muhim hisoblanadi.

Pragmatika tilshunoslikning nazariy va amaliy tarmoqlaridan biri sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luvchi kommunikativ niyat bilan bog'liq tushunchalarni o'rganadi. Pragmatika nutqiy aktning bevosita matn bilan munosabatini o'rganadi. Nutqiy akt bilan matn o'rtasidagi o'zaro xilma-xil munosabat pragmatikaning asosiy o'rganish obyekti sanaladi.<sup>83</sup>

Propozitsional mazmun bilan munosabat yo'nalishi o'zaro muvofiq yoki nomuvofiqligi ham nutqiy akt uchun ma'lum qimmatga ega. Umuman, matn semantik tuzilishi tahlilida propozitsiya, yashirin ma'no komponentlari tagma'no, allyuziyaning chegarasizligi kabi mazmun elementlarining hisobga olinishi nutqiy akt tasnifi uchun mezon bo'la oladi.

M.Hakimov nutqiy akt ko'rinishlarini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Rerezentativ yoki xabar akti (asosan tasdiq akti sodir etiladi).
2. Undash aktlari (buyruq, taklif, iltimos, so'roq, maslahat).
3. Majburiyat yoki komissiv aktlari (va'da, qasamyod, tasdiq, xabar).
4. Ekspressiv aktlar (minnatdorchilik, tabrik, kechirim so'ramoq, his qilmoq, afsuslanmoq, salomlashmoq).
5. Deklerativ akt (deklerativ aktni sodir etish huquqi faqat ma'lum ijtimoiy mavqe faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxsga beriladi)<sup>84</sup>.

Ko'rinadiki, nutq tushunchasi so'zlovchining idrok qilish va ifodalash

---

<sup>83</sup> Нурмонов А., Ҳақимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – №4. – Б. 55.

<sup>84</sup> Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 с.

faoliyatining mahsuli sifatida qator yangi yo‘nalishlarning obyekti bo‘lishi mumkin. Nutq hodisasi so‘zlovchining nutqiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun nutq jarayonini sodir etayotgan shaxs faoliyatini to‘liq ifodalash ma‘nosida nutqiy akt terminidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu termin tilshunoslik fanining alohida yangi yo‘nalishi nomi sifatida ilmiy tadqiqotlarda va lingvistik lug‘atlarda qayd etilgan.

“Pragmatik mazmun” (fikir bildirishning ko‘chma ma‘nolari, ishoralar, istioralar, shamalar, qochirimlar va hakoza) konfiguratsion yoki semantik-pragmatik rejaga kiradi va semantik referensiyani birlashtiradi – matnning ayrim tematik negiz bilan munosabatdorlik; “fikir bildiruvchanlik” – predikativ (kesimlik) – modal tavsiflari; shuningdek, “argumentlangan (dalillar bilan isbotlangan) dastur” – matnning illokutiv tavsifini “makrofikir bildirish” singari, boshqacha qilib aytganda, uning kommunikativ mazmunini anglatadi.

“Pragmatik vazifa” deganda biz turli kommunikativ maqsadlarga erishish uchun nutqda (so‘zlashuvda) lingvistik birliklarning potensial kommunikativ-pragmatik xususiyatlaridan foydalanishni tushunamiz. Baholash hodisasining “pragmatik vazifalari” ostida bizlar undan nutqda (so‘zlashuvda) foydalanishning maqsad va mohiyati, uning dolzarb, juda muhim muammoligini anglaymiz.

“Pragmatik samara” deganda biz so‘zlovchi o‘z nutqida baholash so‘zlaridan foydalanib, eshituvchiga ta’sir o‘tkazish natijasini tushunamiz. Pragmatik samara o‘z tarkibiga faqat pragmatik ta’sir mexanizmlarini qo‘shib qolmasdan, balki kommunikatsiya jarayonida muayyan ekstralingvistik samaraga erishish imkoniyatini ham kiritgan.

Kommunikativ maqsadga erishish uchun so‘zlashuvchi o‘z jumlasini shunday qilib tuzadiki, u uchun eng muhim bo‘lgan axborotni ta’kidlashi birinchi navbatda turishi lozim. Shu bilan so‘zlashuvchi hamsuhbatida kutilgan munosabatni qo‘zg‘atib, unga ta’sir o‘tkazadi. Bunda ta’sirning quyidagi ko‘rinishlarini qayd qilish mumkin:

- hamsuhbatning xabardorligi darajasi kengayishini;
- uning emotsional holatidagi, nuqtayi nazarlari va baholashdagi

o'zgarishlarini;

– u bajargan harakatlarga ta'siri, estetik samara.

Bu haqida fikr yuritar ekanmiz, yirik tilshunos olim N.Mahmudovning quyidagi fikrlarini eslash noo'rin bo'lmaydi: “So'zni ham so'ylatgan, ham o'ylatgan va shuning barobarida ming bir ishva bilan hech bir iddaosiz o'ynatgan, tilning tafakkur va taxayyul bobidagi imkoniyatlariga favqulodda ko'lam va qamrov baxsh etib, uni betakror badiiyat deyiladigan arshi a'loga ko'tarmoqday muntazam mashaqqatdan hamisha huzur va hayrat tuygan, butun hayotining mazmunini ana shu hayrat va huzurni boshqalar bilan bo'lishmoq, baham ko'rmoqdan iborat deb bilgan ijodkorning umri boqiydir. Chunki hayrat va huzur, insoniyat paydo bo'libdiki, dunyoning hamma mintaqalarida hamma zamonlarda yurakning yumushi, qalbning qa'ridagi qadri baland to'lqin va tiniqish sifatida namoyon bo'ladi. Demakki, ayni shu hayrat va huzur o'zining ijodkori uchun ham insonlar qalbidan joy hozirlaydi, bu joy esa minnatsiz, ammo minnatdor qalbning eng muhtasham va mahram nuqtasidir”<sup>85</sup>.

Muayyan kommunikativ vaziyatda bo'la turib, so'zlashuvchi, ma'lum bir kommunikativ maqsadni ko'zlab, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita hamsuhbatiga ta'sir o'tkazadi va qo'yilgan kommunikativ maqsad, shuningdek, munosabat, aloqada bo'lish, kommunikativ vaziyatning o'zi ham tilga oid vositalarni adekvat tanlashga, kommunikatsiyaning mavzusi va shakliga doimo ta'sir qiladi. Boshqacha aytganda, so'zlashuvchi maksimal effektga erishish uchun qat'iy kommunikativ strategiyaga rioya qilishi lozim. Shunda so'zlashuvchi tanlab olgan tilga oid vositalar juda muhim ma'noviy yuklamaga ega bo'ladi.

Modomiki, baholovchi so'zlardan foydalanish hisobiga mulohaza, fikr bildirishning ta'sir kuchi oshsa, bir qator kommunikativ strategiyalarni ishlatishda baho ottenkali lisoniy vositalardan foydalanish esa samarali bo'lsa, biz mazkur lingvistik hodisaning muayyan pragmatik potentsiali haqida bemalol gapirishimiz mumkin. Shunday qilib, baholash munosabatining “pragmatik imkoniyati” deganda biz kommunikativ intensionalarni ifodalashda baho ifodalovchi

---

<sup>85</sup> Ўша манба. – Б. 30.

birliklarning potensial imkoniyatlarini tushunamiz.

Umuman, nutqiy akt nazariyasiga oid ma'lumotlarni o'rganish pragmatika va uslubshunoslik sohalarining to'ldirilishiga, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham shaxsning ichki ma'naviy qiyofasi bilan aloqador holatlarni uning nutqi asosida tahlil qilishning yana bir imkoniyati borligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Xullas, nutqiy akt tushunchasi uning semiologik plan asosida ajratilgan lokutsiya, propozitsiya, illokutsiya hamda perlokutsion aktlar tahlilida o'zining aniq lisoniy mezoniga ega bo'ladi. Badiiy matnning bu masalalarini o'rganish lingvistik pragmatika va uslubshunoslik sohalarining nazariy jihatdan to'ldirilishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, matn va tagma'no masalalarini o'zaro farqlash uchun ham nazariy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Pragmatik tadqiqotlarda asosiy e'tibor til birligining kontekst, nutq vaziyati, til egalarining voqelik haqidagi umumiy bilimlari va til ko'nikmalari kabi omillar bilan bog'liq jihatiga qaratiladi. Hatto kishilar o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiketlar, nutqning ijtimoiy xoslanishi, ifodaning subyektiv modallik aspektiga aloqador kirish, baho bildiruvchi so'z va vositalar, insonning ichki holatini ifoda etuvchi diskurs hamda presuppozitsiya hodisasi ham pragmatikaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosalar**

1. Matn hodisasi dastavval jahon tilshunosligida V.G.Admoni, N.F.Alefirenko, I.V.Arnold, N.S.Valgina, Y.A.Goncharova, Y.M.Lotman, Z.Y. Turayeva, K.A.Filippov, O.I.Moskalskaya, L.M.Loseva, V.V.Odinsov, I.R.Galperin, L.A.Novikov kabi olimlar aynan salmoqli ishlar amalga oshirilganligini ta'kidlash mumkin. O'zbek tilshunosligida esa A.G'ulomov, M.Asqarova, I.Rasulov, A.Mamajonov, M.To'xsonov, N.Turniyozov, M.Xakimov, E.Qilichev, M.Abdupattoev, M.Yo'ldoshev, M.Qurbonova kabi olimlar matnning semantik, grammatik, stilistik va pragmatik strukturasi to'g'risida izchil tadqiqotlar olib bordilar. Ammo aksar hollarda matn tadqiqida badiiy matn

tadqiqot obyektini sifatida olingan. O'zbek tilshunosligida publitsistik matnning alohida hodisa sifatida o'rganilishi 1990-yillarga to'g'ri keladi.

2. Publitsistik uslub elementlari ijtimoiy taraqqiyotning eng qadimgi davrlaridayoq paydo bo'la boshlagan edi. Masalan, qadimiy oratorlik nutqlari va boshqalar fikrimiz isboti bo'la oladi. Jumladan, "Publitsistika mavzu-material xususiyatlari jihatidan falsafiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, adabiy-tanqidiy xarakterda bo'ladi. Uslub jihatidan bahs-munozarali, tashviqot-targ'ibot, tankdiy-analitik, satirik ko'rinishlarga ega. Ingliz va o'zbek tilining barcha uslublarida bo'lgani kabi publitsistik uslubda ham faqat uning o'zigagina xos bo'lgan va matnda alohida sezilib turadigan xususiyatlar mavjud.

3. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmatik yondashuvning poydevoridir. Publitsistik matn pragmatik jihatdan nutq subyekti bilan bog'liq holda o'rganilganda ifodaning ochiq va yashirin maqsadi, nutqiy taktika va nutqiy muloqot tiplari; hamkorlik deb ataluvchi prinsipga bo'ysunuvchi, nutqiy muloqotning qabul qilingan maqsad va so'zlashuv yo'nalishiga muvofiq qurilgan so'zlashuv qoidalari; so'zlovchi qurilishi yoki fikrning pragmatik ma'nosi: ifodaning boshqa ma'nolari, ishoralar, shama, qochirimlar; so'zlovchining tavsifi, ya'ni so'zlovchining niyatidan kelib chiqib, lisoniy ifodaning voqelik predmetiga taalluqliligi, pragmatik presuppozitsiya: so'zlovchining umumiy bilim zahirasi, aniq ma'lumotga egaligi, qiziqishlari, munosabat va qarashlari, ruhiy holati, adresatni tushunish xarakteri va layoqati xususiyatlari asosida baholashi; so'zlovchining o'zi aytayotgan fikrlariga munosabati: a) fikr mazmunini baholash (uning rostligi yoki yolg'onligi, ironiya, ko'p ma'nolilik, jiddiy emaslik va boshqalar); b) qiziqish fokusiga so'zlovchi suhbatlashayotgan shaxslardan birini kiritish yoki empatiya (S.Kun termini); v) fikrni ma'lumotda ko'proq e'tibor qaratilishiga muvofiq holda tashkillashtirish kabilarga tayaniladi.



4. Tilshunoslikning boshqa yoʻnalishlari bilan qiyoslaganda matn tilshunosligi zamonaviy lingvistikaning nisbatan taraqqiy etgan, yetakchi tarmoqlaridan biridir. Biroq nazariy tilshunoslikda publitsistik matnlarning funksional-stilistik va pragmatik xususiyatlari qiyosi hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

## II BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PUBLITSISTIK MATNLARNING SINTAKTIK VA FUNKSIONAL-STILISTIK XUSUSIYATLARI

### 2.1-§. Ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik matnlar sarlavhalarining o‘ziga xosligi va mushtarakligi

Stilistika tilning so‘z, so‘z birikmalari, konstruksiyalar, hatto morfemalarning parallel va o‘zaro ma’no munosabatidagi qatorlarni tashkil qilishi, ma’lum sharoitlarda teng yoki o‘xshash ma’nolari bilan ko‘rinishlari, so‘z yoki oborotni ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan boshqa so‘z yoki oborot bilan almashtirish ayrim o‘ziga xos ma’no ottenkalariga ega bo‘lsa ham bir fikrni tilning bir necha xil vositalari bilan ifodalash imkoniyati kabi juda boy va qiziq ifoda vositalari va ma’no nozikliklarini o‘rganadi.<sup>86</sup>

So‘z o‘z tabiatiga ko‘ra tilning va bir paytning o‘zida nutqning ham juda murakkab, serqirra va sermazmun unsuridir. Shu bois uning fonetika /fonologiya grammatika, leksikologiya, stilistika, frazeologiya singari tilshunoslik fanining barcha bo‘limlarida o‘rganilishi bejiz emas. So‘zning mazmuni bilan bog‘liq muammolar shu darajada ko‘pki, ba’zi paytlarda ularni so‘z bilan izohlashga ojizlik qilamiz. Shu sababdan ham R.A.Budagov: “Garchi o‘z ona tilimizdagi so‘zlar bizga aniq va ravshan tuyulsa-da, aslida ular tabiatan o‘ta murakkab va serqirradir”, – degan edi.<sup>87</sup> Bunday serqirralik tillar qiyosida yanada jilolanadi. Tilshunos ikki tilga mansub publitsistik matnni tadqiq qilish jarayonida yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlarga alohida e’tibor qaratmog‘i zarur.

Ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlovshi yoki yozuvshi nutqiy sharoit taqozosiga ko‘ra mavjud so‘zlarning grammatik shakllari, so‘z birikmalari va gap tuzilishining ma’lum qismidangina foydalanadi. Muayyan bir ma’ruza yoki maqola egasi, ilmiy asar yoxud biror bir badiiy asar muallifi, shu bilan birga, har qanday shaxs ham tilning barcha so‘z boyliklaridan, grammatik vositalaridan, imloviy va talaffuz imkoniyatlaridan to‘lig‘icha foydalana olmaydi. Hatto eng

<sup>86</sup> Каранг: Грамматика русского языка. Т. I. М., 1952, –С. 15.

<sup>87</sup> Будагов Р. А. Введение в науку о языке. – М., 1965. –С. 9.

mashhur va yetuk jurnalistlarning faoliyatida ham, buyuk yozuvchining ijodida ham tilning boy imkoniyatlari amalda qisman ishga solinadi. Mana shu ma'noda tilning potensial imkoniyatlari jamoa doirasida ham hech qachon to'lig'icha ishga solinadi, deb bo'lmaydi<sup>88</sup>. Tilning imkoniyatlari bu imkoniyatlarning amalda qo'llanayotgan holatidan doimo ortiq va keng bo'ladi. Har bir tildagi mana shunday boy imkoniyatlar bu tilning vositalar sistemasini tashkil etadi. Jamiyat a'zolarining til vositalaridan foydalanish jarayoni, ya'ni nutq murakkab va ko'p qirralidir. Shu bilan birga, nutq ko'rinishlari konkret sharoit va maqsad, ijtimoiy muhitga ko'ra ham farqlanadi. Ayni paytda, nutq so'zlovshi shaxslarning turmush tarzi, kasb-kori, dunyoqarashi, aytmoqchi bo'lgan fikri, maqsadi, nutqiy sharoit, so'zlovchining psixik, fiziologik holati, adabiy tilni qanchalik egallaganligi yoki egallamaganligi, ma'lumoti va shunga o'xshash juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Publitsistik uslubning asosiy o'ziga xos xususiyatlari me'yorlashtirish va ekspressivlikdir. Bu xususiyatlar ikkita asosiy funksiyani bajaradi: o'quvchilarni imkon qadar tezroq xabardor qilish, bu jurnalistdan tayyor iboralar yoki ba'zan xoslangan birliklardan foydalanishni talab qiladi. Ekspressivlik jamoatchilik fikriga ta'sir qilish zaruratidan kelib chiqadi.

Nutqning vazifaviy uslublarini tadqiq etish, ularning lingvistik belgilarini aniqlash, nutq uslublarida lisoniy birliklar funksional xususiyatlarini ochish va lisoniy dalillar asosida ularni ajrata bilish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biridir. Yana bir holatda, matn tadqiqi haqida so'z ketganda publitsistik matn tadqiqiga nisbatan badiiy matn tadqiqida salmoqliroq ishlar amalga oshirilgan. Badiiy asar tili va badiiy nutq stilistikasi haqida ishlarni amalga oshirgan tilshunoslar sifatida: P.Qodirov<sup>89</sup>, R.Qo'ng'urov<sup>90</sup>, I.Qo'chqortoyev<sup>91</sup>, H.Abdurahmonov, N.Mahmudov<sup>92</sup> Q.Samadov<sup>93</sup>,

---

<sup>88</sup> Shadiyeva D. Muhammad Yusuf she'rlarida iboralarning qo'llanilishi "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2011, 5-son. –B.104- 107

<sup>89</sup> Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973. – 166 б.

<sup>90</sup> Қўнгуоров Р. Ўзбек стилистикасида очерклар. – Самарқанд, 1975.

<sup>91</sup> Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975. – 96 б.

L.Abdullayeva<sup>94</sup>, B.Yo‘ldoshev<sup>95</sup>, E.Qilichev<sup>96</sup>, S.Karimov<sup>97</sup> kabi ko‘plab olimlarni ko‘rsatish mumkin. Keltirilgan fikrlar matn tadqiqida badiiy matn asosiy va muhim degani emas, albatta. Ishning birinchi bobda publitsistik matn va publitsistik uslub haqida bajarilgan maxsus tadqiqodlar haqida fikr yuritganmiz.

Ingliz tili publitsistik matnlarida Old Fox, Adenauer, Gorbi, Gorbachev, Rokki, Rokfeller, Ike, Eisenhower taniqli jamoat arboblarning taxalluslari (laqabi); Bill Klinton, Jimmi Karter; FDR kabi qisqartirilgan ismlar juda ko‘p uchraydi. Franklin Delano Ruzvelt, JFK - Jek Kennedi - Jon Fitsjerald Kennedi kabi qisqa shakllarning aksariyati va barcha taxalluslar o‘zbek tiliga to‘liq shaklda tarjima qilingan, chunki o‘zbek o‘quvchilari bunday nomlarga qisqartirishni hurmatsizlik deb biladilar.

Gazeta maqolalari va sarlavhalarida raqam ko‘rinishidagi birliklar qo‘llanilishi mumkin. Bunday birliklarning (5 km, 3 yosh kabi) foydalanishning o‘z imlo me‘yori mavjud. O‘zbek tilida bunday birliklar boshqa satrga ko‘chirilmaydi. Ingliz tilidagi publitsistik matnda esa 10 dan past butun sonlar so‘z bilan ifodalanadi, 10 va undan yuqori sonlar uchun raqamlar ishlatiladi. O‘zbek tili publitsistik matnida esa har qanday holatda ham sonlarni raqam bilan ifodalash mumkin bo‘ladi.

Shunday ekan, ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik matnlarida lisoniy birliklar funksional xususiyatlarini amaliy jihatdan ko‘rib chiqamiz. Masalan: bir xil hajmga teng ingliz va o‘zbek tillariga mansub publitsistik matn tahlili amalga oshirilganda quyidagi statistik ma‘lumotlar aniqlandi.

Ingliz va o‘zbek sarlavhalarining ifodaliligi turli mezonlarga asoslanadi. Ingliz tilidagi sarlavha o‘zbekcha sarlavhadan ko‘ra ko‘proq so‘zlashuv so‘zlarini o‘z ichiga oladi. Maqola juda jiddiy ma‘lumotga qaratilgan bo‘lsa ham, o‘quvchi

---

<sup>92</sup> Абдурахмонов Х. Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981 – 60 б.; Махмудов Н.Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Ғ.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б. 58-66.

<sup>93</sup> Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981 – 154 б; Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бadiий услуб). – Т: «Ўқитувчи», 1991. – 56 б

<sup>94</sup> Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979.

<sup>95</sup> Йўлдошев Б. Бadiий нутқ стилистикаси. –Самарқанд: СамДУ, 1982. -109 б.

<sup>96</sup> Қиличев Э. Бadiий тасвирнинг лексик воситалари. Тошкент: Фан, 1982. – 85 б.

<sup>97</sup> Каримов С. Ўзбек тилининг бadiий услуби: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 1993. – 49 б.

e'tiborini jalb qilish uchun sarlavhada jargon, slang bo'lishi mumkin: misol: Trustworthy lady Beyn (The Guardian), "Burn out" (The Economist).

Sarlavha bu maqolalar materiallarning butun bir ichki mazmunidan kelib chiqib, unga qo'yiladigan nomdir. Sarlavha publitsistik matnning eng asosiy tarkibiy qismi, uning o'ziga yarasha vazifalari ham mavjud. Bu so'z ot bo'lib tojik tilida "bosh" ma'nosini anglatadigan sar oti bilan (TjRS, 341) "taxtacha", "ko'rinish" ma'nolarini anglatadigan arabcha pavha otidan (ARS, 733) tuzilgan bo'lib, "asarga, uning qismlariga qo'yiladigan nom" ma'nosini anglatadi<sup>98</sup>.

Gazetalar tili yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan va bir qator ilmiy ishlar yoqlagan olim A. Boboyeva publitsistik matn sarlavhasining asosan 3 vazifasini keltirib o'tadi<sup>99</sup>. Ular: nominativlik, informativlik va reklamalikdir.

Ingliz tilida yoki o'zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilingan materiallarda mazmun, publitsistik matnning qanday mavzuga bag'ishlanganligi xalqqa birinchi bo'lib uning sarlavhasi orqali yetkaziladi. Tabiiyki bu sarlavhaning ikkinchi vazifasi – informativlik, ya'ni mazmuni bildirish va xabar berish vazifasidan darak beradi. Matn sarlavhasi bilan tanishgan gazeta o'quvchisi dastavval matn mazmuni haqida muayyan tasavvurga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida matnning mazmuni bilan tanishishning ilk bosqichi bo'lib, kishida matnga bo'lgan qiziqish aynan shu bosqichda paydo bo'ladi. Masalan, "Ma'rifat" gazetasining 31.08.2013-yil sonidagi "Baxtin ko'ring O'zbekiston bolasing!" sarlavhasiga ko'zi tushgan gazetxonda ushbu sarlavha ostida e'lon qilingan maqolada yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa yoshlarga, bolalarga yaratilayotgan imkoniyatlar yoritilganligi to'g'risida tasavvur vujudga keladi. Aksincha ham bo'lishi mumkin. Masalan: "New Scientist" jurnalining 06.07.2024-yil sonidagi "Live long and prosper?" sarlavhasiga ko'zi tushgan o'quvchida ushbu sarlavha ostida e'lon qilingan maqolada uzoq yashash sirlari, qarishning oldini olish haqida yoritilganligi to'g'risida ekanligini matni o'qiganidan so'ng anglashi mumkin. Ba'zi sarlavhalar mazmun jihatdan murakkab

---

<sup>98</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. иккинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriёти, 2020. – Б. 23.

<sup>99</sup> Boboyeva A. Gazeta sarlavhalari haqida\ O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1971-yil. 2-son. –B. 61-63.

bo‘lib uni o‘qigan matn muzmuni nima haqida ekanligiga qiynaladi. Masalan: “Shabnam ostidagi muhabbat”. (Gazetadan) Bu o‘rinda muhabbat sofmi? Yoki... Agar sof bo‘lsa nega “shabnam” ostida? Shabnam<sup>100</sup> muhabbatni yashiradigan darajada “katta”mi? ...kabi savollar o‘quvchini qurshab oladi. Bu savollarga yagona javob maqolani to‘liq o‘qib chiqqandan so‘ng topiladi. Kishi matn sarlavhasi bilan tanishgandan matnga bo‘lgan qiziqish paydo bo‘lishi ijodkorning sarlavha tanlashdagi mahoratiga va so‘zning ma’no nozikliklarini farqlay olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek ingliz tilida keltirilgan sarlavhada ham shunday holatni kuzatish mumkin. Masalan: “*How China is designing flood-resistant cities*(Vox.com)<sup>101</sup>. Ushbu sarlavhadan Xitoy qanday qilib toshqinga chidamli shaharlarni loyihalashtirmoqda degan savol tug‘ilishi tabiiy. Yani shahar suvni yutishi mumkinmi deb qiziqish bilan ushbu ommaviy axborot informatsiyasiga murojat etishi mumkin.

Inglizcha yangiliklar va maqolalar sarlavhalarining o‘ziga xos tuzilishi turli maqsadlarga xizmat qiladi: ular o‘quvchini eslatmaga qiziqish bildirishlari va axborotning qisqartirilishini ta’minlashlari kerak.

1. Coronavirus deaths rise in Iran and South Korea as Italy grapples with Outbreak
2. Hosni Mubarak, former Egyptian president, dies at 91
3. Palestinian leader Abbas praises Mubarak's support for the Palestinian cause
4. Israel's Netanyahu remembers Mubarak's leadership
5. Nine dead, more than 100 injured in New Delhi clashes amid Trump's visit.

Birinchi misolda sarlavha qisqacha ma’lumot mazmunini uzatadi. Faqat bu o‘rinda qisqartirish o‘ziga xosdir – chunki fe’lning yo‘qolishi, alfavit qisqartmasidan foydalanish. O‘quvchidan vaziyatlarning dastlabki bilimlari talab qilinmaydi.

---

<sup>100</sup> Shabnam shudring, — kechqurun, kechasi va saharda yuz beradigan yerdagi nurlanish hisobiga havoning sovishi va suv bug‘ining kondensatlanishi tufayli yer sirtida, turli narsalar va o‘simlik yaproklari ustida hosil bo‘ladigan mayda suv tomchilari. Havo temperaturasi muayyan nuqta (shudring nuqtasi)ga tushganda hosil bo‘ladi.

<sup>101</sup> <https://www.youtube.com/watch?v=nf-Yy3EuZi0>

Ikkinchi misolda, aksincha, o'quvchi, albatta, vaziyat bilan tanish, bu yerda epitet va mukammal ulug'vorligini tan va astronomlar nisbatan taniqli tanish; oxirgi so'zlar o'quvchiga eslatmaning guvohlardan olingan ba'zi ma'lumotlarni o'z ichiga olganligini ko'rsatadi.

Uchinchi sarlavha qofiya va aniq ritm tufayli yaxshi eslab qolinadi va bu muhim ahamiyatga ega, chunki uning ostidagi maqola tashviqot mazmunidadir.

To'rtinchisi, maqolaning mavzusi nimadir haqida juda noaniq fikr beradi, lekin o'quvchini tasvirlangan faktlar, ularning baholashlari va so'z o'yinlaridan foydalanish nuqtayi nazaridan yo'naltiradi. Oxirgi sarlavha shov-shuvli hodisalarni sevuvchilar uchun mo'ljallangan. Atributiv zanjirdan foydalanish juda xarakterlidir, uning mazmuni faqat eslatmani o'qish bilan tushunarli.<sup>102</sup>

Maqola yoki xabar matnga ko'p yoki kam qo'shilgan qo'shimcha yangilik sarlavhalar bilan alohida qismlarga bo'linadigan holatlar juda ko'p. Bu esa, o'quvchini iloji boricha ko'proq qiziqtirib, maqolaning birinchi satrlarini ko'zdan kechirib, uni o'qishga va boshqa materiallarga o'tishga yo'l qo'yimaslik uchun amalga oshiriladi. Ko'pgina hollarda, bu xabarga kiritilgan qo'shimcha sarlavhalar quyidagi materiallar bilan bog'liq emas va matndan olingan yorqin, yoqimli so'zlar yoki iboralarni ifodalaydi. Ushbu amaliyot bizning gazetalarimizga mutlaqo begona.

Gazeta maqolalari sarlavhalari stilistikasi bo'yicha tadqiqot olib borgan I.Toshaliyev: "Ideonimlar badiiy matnda nominativ, farqlash, informativ kabi bir qancha funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Bu jihatdan badiiy asar ideonimlari gazeta sarlavhalariga juda yaqin turadi"<sup>103</sup>, degan fikrni bildiradi. Qoraqalpoq tilshunosligida gazeta sarlavhalari bo'yicha tadqiqot olib borgan D.Qurbaniyazov dissertatsiya ishini medialingvistik aspektda amalga oshirgan bo'lib, publitsistik uslub va mazkur uslubning joriy matbuot janrlaridagi qo'llanish xususiyatlari, publitsistik uslubda yaratilgan gazeta maqolalariga sarlavha qo'yishning o'ziga xos

---

<sup>102</sup> Rustamov, I., Ataboyev, I., Rustamova, S., Turg'unova, F. Gazeta sarlavhalarini tarjima qilish xususiyatlari. Chet tillar va tilshunoslik jurnali. 2021. № 2

<sup>103</sup> Бу ҳақда қаранг: Тошалиев И. Сарлавҳа стилистикаси. – Тошкент: Университет, 1995. – 90 б.; Абдусаидов А. Газета сарлавҳаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1995. – 120 б. ва бошқалар.

xususiyatlari, ularning teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarda qo'llanadigan atamalardan farqli jihatlari "Erkin Qaraqalpaqstan", "Qaraqalpaqstan Jasları" va "Jetkinshek" gazetalari maqolalari sarlavhalari asosida qiyosiy tahlil qilingan<sup>104</sup>. Aytish joizki, gazeta sarlavhalari ham ko'plab xususiyatlarga strukturasi, semantikasi, uslubi, qo'llanish doirasiga ko'ra farqlanadi.

Asarga nom qo'yish o'ziga xos bir san'atdir. Chunki nom asar mazmuni, ma'nosidan kelib chiqib qo'yiladi<sup>105</sup>. B.Yo'ldoshev yozuvchi Erkin Samandar o'z tarixiy romanlaridan biri "*Tangri qudug'i*" deb nomlanishi bo'yicha ma'lumotlarni havola qilar ekan, shunday fikrni bildiradi: "Umuman, o'zbek nomshunosligida ideonimlar, bibliionimlar, ktematonimlar, xrononimlar, geortonimlar kabi bir qator onomastik birliklar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda"<sup>106</sup>.

Sarlavhalar maqolaning birinchi belgisi bo'lib, matnning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va semantik, semantik-kompozitsion, stilistik, strukturaviy, funksional, pragmatik jihatlari bilan ajralib turadi. V.A.Kuxarenko: "Sarlavha haqida qancha aytilgan va yozilgan bo'lsa ham, bu mavzuni to'liq tugatib bo'lmaydi – uning matndagi roli juda katta. Uning ko'pgina funksiyalari deyarli barcha matn toifalarining aktualizatori bo'lganligi bilan izohlanadi"<sup>107</sup>, – deydi. Haqiqatan ham, sarlavha – bu "obyektni (voqelikni) nomlaydigan, uni bir qancha o'xshashlaridan ajratib turuvchi, individuallashtiradigan va shu bilan bir qatorda boshqa predmetlardan chegaralovchi so'z (so'zga teng), boshqacha aytganda, voqelikning individual nom elementidir"<sup>108</sup>.

Erkin Vohidov maqola-nutqlari, suhbat va intervyularining ham mavzu doirasi keng va muammolari jihatidan ham xilma-xildir.

Erkin Vohidovning "Iztirob" to'plamiga turli yillarda gazeta va jurnallarda nashr etilgan yigirmadan ortiq maqola va suhbatlarning aksariyati ona - Vatanimiz

---

<sup>104</sup> Курбаниязов Д. Қорақалпоқ матбуотида сарлавҳанинг семантик-структуравий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. – Нукус, 2022. – 24 б.

<sup>105</sup> Ақманова Ш. О'zbek tili bibliionimlarining struktur va funksional-semantik tadqiqi: Filolo. Fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Urganch – 2023. –B.8

<sup>106</sup> Йўлдошев Б. Кўрсатилган манба. – Б. 43.

<sup>107</sup> Кухаренко В.А. Интерпретация текста: учеб.пособие. – М.: Просвещение, 1988. – С.90.

<sup>108</sup> Климкова Л.А. Нижегородская микропонимия в языковой картине мира: монография. – Арзамас: АГПИ, 2007. – С.59.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2- изд., перераб. и доп. – М.: Наука, 1988. – С.91.



va xalqimizning yaqin o‘tmishi, hozirgi hayoti va kelajagi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muammolarga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi. Ularda mehnatkash va dono xalqimizning ko‘p yillik hayotiy tajribasi ham, jamiyatimizda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga faol munosabati va yangi O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lidagi orzu-intilishlari ham haqqoniy ifodalangan.

To‘plamdagi maqola va suhbatlar xalqimizning oqilona o‘y-tashvishlari va kelajakka bo‘lgan umid-ishonchi bilan shoirning bedor qalbidagi iztirobli kechinmalarining yakdil va hamohangligini ham aks ettirib turadi. Bu holatni maqola sarlavhalaridan ham sezish qiyin emas: *“Shoirilar armoni”*, *“Ota yurtning omon bo‘lsa”*, *“Adolat tuyg‘usi”*, *“Inson ma‘mur bo‘lmasa, xalq ma‘mur bo‘lmaydi”*, *“O‘zbekcha salomga o‘zbekcha alik bo‘lsin”*, *“Ruhimiz ehtiyoji”*, *“Umidli dunyo”*, *“Egalik huquqi”*, *“Ulg‘ayish azobi”*, *“Turkiston bozori”*, *“Bizning odatlar”*. Erkin Vohidovning xalqimiz orasida mashhur bo‘lib ketgan o‘lmas she‘r va dostonlari singari bu rang-barang maqola va suhbatlar ham necha minglab vatandoshlarimiz qalbida aks sado berganligi adabiy jamoatchilikka yaxshi ma‘lum. Bular ham Erkin Vohidov ijodiy tafakkuri va qiziqishi olamining kengligini ko‘rsatishi bilan birga, ayni vaqtda, shoirning o‘zi va so‘zi xalq uchun, ma‘naviyatimiz uchun nechog‘lik zarur ekanligidan ham guvohlik berib turadi.

Sarlavhalarini o‘rganishda ingliz va o‘zbek tili publitsistik matnlari sarlavhalarini struktur modellari ham tadqiq qilish mumkin bo‘ladi. Publitsistik matnlari sarlavhalarning struktur modellari so‘z-sarlavhalar, birikma-sarlavhalar va gap-sarlavhalar tarzida tasniflanadi. Ular o‘ziga xos nutq parchasi – kommunikativ birlik sanalib, tuzilishi jihatidan tildagi mavjud sintaktik qoliplarga asoslanadi. Publitsistik matnlarga sarlavha qo‘yishda gaplardan unumli foydalaniladi.

Sodda so‘zli sarlavhalar: *“Avvali”*, *“Armon”*, *“Fitna”*, *“Shapaloq”*, *“Kengash”* (T. Malik. Tanlangan asarlar ( 8-jild) Ushlang, o‘g‘rini. - Toshkent: Sharq, 2010, –304 b); *“Zimiston”*, *“Nonushta”*, *“Dunyo”*, *“G‘ayrat”*, *“Kelishuv”*, *“Ariq”*, *“Ilova”*, *“Qoyil!”* (Erkin Vohidov, So‘z latofati, Toshkent: “O‘zbekiston” 2018.– 216-b.), *“Rise up”*, *“Opinion”* (Guardian weekly.9.08.24)

Juft va qarama-qarshi soʻzli sarlavhalar: *“Ota-ona”* (T.Malik); *“Narxu nava va obu havo”*, (E.Vohidov), *“Opa-singillar”* (A.Muxtor), *“Here and there”* (The Economist 29.06.24) va hokazo.

Tohir Malikning *“Bekajon”* gazetasida bosilgan va keyinchalik *“Tanlangan asarlar”* uning yettinchi jildida kiritilgan *“Dunyoqarash”* toʻplamida maʼrifiy suhbat va 21 ta publitsistik maqola joy olgan. Publitsistik materiallardan qoʻllangan sarlavhalarning katta qismi soʻz birikmasi va gapdan tashkil topgan. Toʻplamdagi maqolalarning bor-yoʻgʻi toʻrttasi soʻz sarlavha hisoblanadi.

Publitsistik asarlar nomlari orasida gap shaklidagi birliklar koʻp miqdorni tashkil qiladi. Gapning turli xil tasniflariga xos boʻlgan sarlavhalarning oʻzbek tilida uchrashi qiziqarli va oʻziga xos hodisa hisoblanadi. Gap modellari turli xil konkret nutqiy aktning abstraktlashtirilgan umumlashmasi, u yoki bu struktur tipning namunasi<sup>109</sup> boʻlib, sarlavhalar hosil boʻlishida yetakchi oʻrinda turadi.

Darak gap mazmunidagi sarlavhalar: *“Insonning mangu dardi”*, *“Tilning joni bor”*, *“Bahsga chorlov”*, (E.Vohidov), *“Hal qiluvchi oʻyindan reportaj”*, *“Tilginamdan aylanay”*, *“Oʻtmish esa hamisha totli”* (T.Malik), *“Janubiy Koreya prezidenti Oʻzbekistonga keldi”*, *“Yodgor Saʼdiyev Oʻzbek Milliy akademik drama teatriga direktor etib tayinlandi”*, *“Valensiyada oʻzbek restorani ochildi”* (<https://kun.uz>) va hokazo. Ingliz tili publitsistik matnida esa quyidagi darak gap mazmunidaga sarlavhalarni uchratdik: *“Plants don’t store carbon very long”*, *“Light may spark superconductivity”* (Science 10.08.24)

Soʻroq gap mazmunidagi sarlavhalar: *“Boʻyinbogʻ desang oʻlarmiding?”*, *“Toʻnni kim teskari kiyadi?”*, *“Fuqarolar deyish toʻgʻrimi?”*, *“It nega qopadi?”*, *“Bir past necha daqiqa?”* (E.Vohidov), *“Navoiy qoʻy boqqanmi?”*, *“Ashulla bozori qayda?”*, *“Satira teatiri qaydasan?”*, *“Kimga mazza?”* (T.Malik), va hokazo. Ingliz tilida: *Where does consciousness come from?*, *“When should you invest in a new lensor swap camera systems?”* (Photography week 8.08.24)

Buyruq gap mazmunidagi sarlavhalar: *“Oʻzbekcha salomga oʻzbekcha alik boʻlsin!”*, *“E, Oʻzimiz ekanmiz-ku!”* (E.Vohidov); *“Yashasin, moʻylov!”*, *“Puldan*

---

<sup>109</sup> Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.30.

*olsinlar, marhabo!*” “Marhabo, talantlar!” (T.Malik) va hokazo. Ingliz tilida: “*Make it last...*” (Science 10.08.24), “*Capture candid action shots*” (Photography 8.08.24)

Publitsistik matn sarlavhalarini ko‘zdan kechirish jarayonida ularda bir qancha yangidan yangi so‘zlarning, adabiy tilimizga o‘zlashmagan, biroq gazeta tilida (OAV) faol qo‘llanilayotgan so‘zlarning mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Masalan, “Bizga ilm *skautlari* kerak”(“Ma‘rifat” 04.07.2018), “Suratga tushib to‘ymayapman yoki selfizm nimaning belgisi?” (“Sinf-dosh”, 2018. 1-son), “Kitob bilan selfi” (“Ma‘rifat”. 17.11.2018), “Coworking – yosh tadbirkorlarga ko‘mak” (“Ma‘rifat”. 10.10.2018), “Umidaxonning to‘yi “Love story”siz o‘tadi?” (“Bekajon”. 11.05.2018), “English o‘rganish qanday bo‘ladi?” (“Yosh kuch”, 2018,5-son), “Biznes start” (“O‘zbekiston” telekanali dasturi), “Dayjest”, “Start up club”, “General English”, “What’s up?” (“Yoshlar” telekanali dasturlari), “Star CUP” (“Sport” telekanali dasturi), “My shop”, “Shareit”, “Like bos”, “Let’s go”, “Kinolife” (“MY5” telekanali dasturlari), “M-NEWS”, “M SPORT KARTING”, “TV SALE” (“Milliy TV” dasturlari), “I’m singer” (“Navo” telekanali dasturi), “Step by step” (“Mahalla” telekanali dasturi ) kabilar.

Yuqoridagi misol tariqasida keltirib o‘tilgan sarlavhalar tarkibida inglizcha so‘zlar mavjud. Albatta, bu so‘zlar texnika va texnologiyalarning juda tez sur‘atlarda rivojlanayotganligi va ularning yurtimizga jadal kirib kelayotganligi natijasida nutqimizdan tobora mustahkam o‘rin egallab kelmoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan sarlavhalar tarkibida “selfi”, “selfizm” kabi badiiy-adabiy tilimizga hali o‘zlashmagan, biroq nutqimizda ko‘p ishlatiladigan so‘zlar mavjud. “Self” so‘zi inglizchadan o‘zbekchaga o‘g‘irganda, “o‘zi: ish-harakat jarayonida bevosita ishtirok etuvchi shaxs yoki predmet”ni bildiradi. Bugungi kunda “selfi” so‘zi “telefon gadjeti orqali o‘zini o‘zi suratga olmoq” ma‘nosida ko‘proq yoshlar nutqida faol qo‘llanmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, “selfizm” atamasi “telefon gadjeti orqali o‘z-o‘zini suratga olish faoliyati” ma‘nosini anglatar ekan.

Har ikkala tillarda ya‘ni ingliz va o‘zbek tillarida nashr qilingan o‘ziga xos sarlavhali maqolalar ba‘zi jihatlardan o‘xshash, ba‘zi jihatlari bilan esa farqlari

ancha sezilarli. Misol uchun zerikarli va uzoq sarlavhalarni qiziqroq va e'tiborni tortish uchun kesimning tushirib qoldirilishi holatlari, atoqli otlardan, shaxs va joy nomlarining ifodalanilishi, so'roq va inkor gaplardan foydalanish, uyushiq bo'laklaridan, sodda va qo'shma gaplardan foydalanish, zamon kategoriyalarining o'ziga xos ifodalanishi; qofiya, hazil, otlar zanjirining va sifat ot birga kelish holatlariga ko'ra tahlil qilish mumkin. Ingliz tilidagi sarlavhalar ko'proq globallashuv jarayonini izohlovchi sarlavhalar ostida nashr qilingan maqolalar ochiq oydin yoziladi. Hatto, eng dahshatli yoki sirli tuyulgan jamiyatdagi holatlar aniq ravshan izohlanadi. O'zbek tilidagi sarlavhalarda esa milliy va an'anaviy, axloqiy, oilaviy, ijtimoiy mavzularga ko'proq murojaat qilinadi.

Xullas, davr shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etish qiyin. O'z-o'zidan, bu jarayon publitsistik matnning til xususiyatlarini o'zgarishiga ehtiyojni hamda ularga qo'yiladigan talablarni tubdan oshirib yuboradi. Bu esa publitsistik matn va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sarlavhalarga yangidan yangi, zamon bilan hamnafas vazifalar yuklaydi.

## **2.2-§. Ingliz va o'zbek tillarida publitsistik matnlarida subyekt va uning ifodalanishi.**

Subyekt atamasi bir necha fanlarning asosiy tushunchalarini ifodalaydi, u falsafada falsafiy subyekt (Falsafada subyekt (*lot. Subjectum*- ostida, pastda, asosda turuvchi) faol faoliyat ko'rsatuvchi, biluvchi, ong va irodaga ega bo'lgan individ yoki ijtimoiy guruh.)<sup>110</sup> tushunchasini, mantiqda mantiqiy subyekt (Logikada mantiqiy ega - subyekt deb ataladi.)<sup>111</sup> tushunchasini, mazmuniy sintaksisida esa gap mazmuniy tuzilishining bir bo'lagini ifodalaydi. A.Hojyev "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" kitobida subyekt atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: 1. Hukm predmeti, logik ega. 2. Grammatik ega.

Darhaqiqat, falsafiy, mantiqiy va mazmuniy subyekt tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa ham, lekin ular bitta narsa emas. Avvalo, ular qimmat jihatdan bir-

---

<sup>110</sup> Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика.-Т.: Ўқитувчи, 1984. - Б. 130

<sup>111</sup> Назаров Қ. ва бошқалар. Фалсафа энциклопидик луғат. -Т.: Ўзбекистон МИ, 2010. -Б. 249

biriga teng emas. Masalan, falsafiy subyekt - faol faoliyat ko'rsatuvchi, biluvchi, ong va irodaga ega bo'lgan individ yoki ijtimoiy guruh. Individ ijtimoiy mavjudod shu ma'noda subyekt ijtimoiy mazmun kasb etadi, ya'ni jamiyat a'zosi bo'lgan ayrim individ ham, jamiyatning o'zi ham subyekt bo'lib kelishi mumkin. Jamiyat uni tadqiq etuvchi tadqiqotchi uchun obyektidir, o'zidan tashqi olam uchun uni o'rganuvchisi subyektdir<sup>112</sup>. Mantiqiy tushuncha sifatidagi subyekt hukmning tarkibiy qismini, ya'ni ikkita a'zodan birini ifodalaydi. Har qanday darak ma'lum bir hukm ifodalaydi. Hukm esa ikki a'zoning subyekt va predikat qismlarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Bu hukmning moddiylashtiruvchisi, uning ifodalovchisi bo'lgan har qanday gap mantiqiy jihatdan ikki qismdan tashkil topadi deganidir. Masalan, *Ayriliq azobi keksalik yoshidagi erga va xotinga boshqa-boshqa tarzda ta'sir etadi* (Tohir Malik. "7x7" gazetasi, 2005.) gapi mantiqiy jihatdan ikki qismning subyekt va predikat qismlarning munosabatidan tashkil topgan. *Ayriliq azobi* - subyekt qism, *keksalik yoshidagi erga va xotinga boshqa-boshqa tarzda ta'sir etadi* - predikat qismidir. Mazmuniy nuqtai nazardan esa unday emas. Yuqoridagi jumla mazmuniy jihatdan bir qancha mazmuniy qismlardan tashkil topadi. Subyekt va predikat qismlar esa bir necha mazmuniy qismlarning bittasi sifatida ishtirok etadi. Yuqoridagi jumlada *azobi* - mazmuniy subyekt, *ta'sir etadi* - mazmuniy predikatdir. Bu jumlada subyekt va predikatdan tashqari temporalis (zamon), instrumentalis (vosita) kabi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ingliz tilida ham subyektни xuddi shunday tahlil qilish mumkin: *Approximately 280 million people worldwide suffer from depression, which affects all aspects of life.* ("Science", 9 august 2024).

Ushbu misolda ayon bo'ldiki, *280 million people*-subekt qismi, *suffer from depression which affects all aspects of life*- predikat qismidir.

Ko'rinadiki, mazmuniy va mantiqiy subyekt va predikat tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa ham, lekin ular qiymat jihatdan bir-biridan katta farq qiladi.

Shu bilan birgalikda, mantiqiy subyekt va predikat tushunchalari o'zaro nisbatlanib, bir-biri bilan nisbiy bog'langan. Agar bu ikki tushunchalar yakka

---

<sup>112</sup> Назаров Қ. Фалсафа энциклопидик луғат. –Т.: Ўзбекистон МИ, 2010. –Б. 250

holatda olinadigan bo'lsa, hukm ifodalay olmaydi. Masalan, yakka olingan "kino" tushunchasi subyekt hukm, yakka olingan "san'at" tushunchasi predikat hukm bo'la olmaydi. Agar biz "kino san'atdir" desak, bunda ikki tushunchaning o'zaro dialektik munosabati ma'lum bir hukmni tashkil etadi, ya'ni bunda "kino" hukmning subyekt elementi, "san'at" uning predikat elementiga aylanadi.<sup>113</sup> Ammo gapning mazmuniy tuzilishida faqat predikatning o'zi ma'lum propositsiyani, ma'lum bir nutq vaziyatini ifodalab, u subyektga ham ishora qilib turishi mumkin.<sup>114</sup> Semantik subyekt va predikat tushunchalari mantiqiy subyekt va predikat tushunchalaridan ham farq qiladi. Mantiqiy hukm grammatik gap orqali reallashadi. Demak, hukm va gap o'zaro dialektik birlikni tashkil etadi. Odatda har bir hukmda uch asosiy element subyekt, predikat va bog'lovchi mavjud bo'ladi. Mantiqda hukmning birinchi tushunchasini hukmning mantiqiy egasi, ikkinchi tushunchasini mantiqiy kesim va bular orasidagi munosabatni vujudga keltiruvchi hukm elementini hukm bog'lovchisi deyiladi. Hukmning umumiy sxemasi S + P dir. Bunda S subyekt, P predikat, "+" subyektning predikat bilan munosabatini ko'rsatuvchi bog'lovchidir.

Masalan: *Galiulining fikri ko'pchilikka ma'qul bo'ldi* (T. Malik) gapi orqali anglashilgan hukm tarkibida *Galiulining fikri* - S, *ko'pchilikka ma'qul bo'ldi* - P. S bilan P orasidagi munosabat bog'lovchidir. Gapning mantiqiy tuzilishi faqat shu uch element bilan cheklanadi. Ingliz tilda: *We need lessons from history now more than ever* (The Guardian weekly 19.07.24). Gapda *lessons from history*-S, *need now more than ever* - P.

Gapning shakliy va mazmuniy tuzilish birliklari o'zaro nisbatlanuvchi, shu bilan birga, bir-biriga teng bo'lmagan birliklar sanaladi. Gapning mazmuniy tuzilishi tarkibidagi subyekt tushunchasi bilan mantiqiy kategoriya bo'lgan va mantiqiy tuzilish birligi sanaluvchi subyekt tushunchasini qorishtirish hollari uchraydi. Aslida mantiqiy kategoriya hukm birligi bo'lgan subyekt bilan

---

<sup>113</sup> Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. –Т.: Ўқитувчи, 1984. - Б. 114.

<sup>114</sup> Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. –Б. 57.

mazmuniy kategoriya, gapning mazmuniy birligi bo'lgan subyekt tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim bo'ladi.

K.Rezenblaz fikriga ko'ra, subyekt atamasi ostida quyidagilar tushuniladi:

1. Bosh bo'laklarning biri, ya'ni ega;
2. Gapning ega qismi (butun kengaytiruvchilari bilan);
3. Hukmning ikki asosiy qismdan biri, mantiqiy subyekt;
4. Harakatni sodir etuvchi;
5. Jumlaning tayanch nuqtasi. Psixologik subyekt (aktual bo'linishning tema qismi) va boshqalar.

Ko'rinadiki, subyekt atamasida aslida xilma-xil tushunchalar o'z ifodasini topadi.

Mavjud grammatik adabiyotlarda subyekt termini xilma-xil talqin qilinadi. Bu o'rinda bu termin ostida ega, boshqasida harakat qiluvchi (деталь), yana boshqasida belgini yaratuvchi (производитель признака) ma'nolari tushuniladi. Bular ichida subyekt bilan egani tenglashtirish eng ko'p uchraydi. Egani subyekt tushunchasi orqali belgilash faqat normativ grammatikalarda emas, bal'ki maxsus tadqiqotlarda ham juda ko'p tarqalgan<sup>115</sup>.

Subyekt atamasining grammatik ega ma'nosida qo'llanilishining ham ma'lum ildizlari bor.

Arastu asos solgan mantiq maktabining vakillari mantiqiy kategoriyalar bilan grammatik kategoriyalarni tenglashtiradilar. Har qanday mantiqda hukmning ifodalanish shakli grammatik gap hisoblanadi, deb e'tirof etiladi. Shuning uchun ham gap mantiqiy hukm kabi ikki a'zodan tashkil topishi, mantiqiy hukmning subyekt qismi grammatik ega orqali, predikat qismi esa kesim orqali ifodalanishi ta'kidlanadi.

Subyekt ko'pincha bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanib, gapning egasi vaziyatida kelishi mumkin bo'lsa ham, lekin ko'pincha bu holat buziladi. Bu esa gapning mazmuniy va shakliy tuzilishi bir-biri bilan doimo uzviy bog'liq bo'lgan,

---

<sup>115</sup> Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. –Б. 58.

bir-biriga nisbatlanuvchi, ayni paytda bir-biridan farqlangadigan nisbiy mustaqil qismlar ekanligini ko'rsatadi. *Yozuvchining ichki dunyosi bilan tanishish qiyin* (T.Malik 8-jild. Ushlang, o'g'rini. 138-b.) tipidagi gaplarda *yozuvchining* bo'lagi mazmuniy subyektini bildirsa ham, sintaktik jihatdan ega vazifasida kela olmaydi. Bunday holatda shakliy tejamlilik tamoyili asosida sintaktik va semantik tuzilish birliklari o'rtasida nomuvofiqlik paydo bo'lgan. Logik va sintaktik kategoriyalar: *Ta'na o'rinlidir* (Tohir Malik "Bekajon" gazetasi, 2006, iyul.) tipidagi gaplarda bir-biriga mos keladi. Bu gap hukm tasdiq hukmni ifodalaydi, bunda grammatik ega logik subyektini, grammatik kesim - logik predikatni bildiradi. Lekin *Direktorlik u uchun baxt emas* (T. Malik 8-jild. Ushlang, o'g'rini. 154-bet) tipidagi gaplarda bu holni ko'rmaymiz. Bunda ega (*direktorlik*) logik obyektini ko'rsatadi, logik subyektini esa ikkinchi darajali bo'lak (*u*) ko'rsatadi.

Lingvistik adabiyotlarda subyektning ma'nolar sistemasi turlicha talqin qilinadi. Mavjud fikrlarni e'tiborga olib, subyektlarning quyidagi ma'nolarini ajratamiz<sup>116</sup>:

1. Harakat subyektini: *Elalloma ishlayapti.* (T. Malik.)  
Ingliz tilida: *But Astral Systems is working on tiny fusion reactors that don't attempt to generate large amounts of power.* (New Scientist, Weekly 2023)
2. Holat subyektini: *Hamid haliyam uxlayapti.* (T. Malik.)  
Ingliz tilida: *The past few years have been tough for the restaurant industry.* (The Economist. 18.10.23)
3. Belgi tashuvchi subyektini: *Bu toifa odamlarining shafqati yo'q. Mening turmada o'tirishga toqatim yo'q.* (T. Malik.)  
Ingliz tilida: *She is not one of those whose career reveals a set of deep convictions or an inner core of beliefs.* (The Economist 24.08.24).
4. Miqdoriy aniqlovchi subyektini: *Barmoqlari beshta emas, tangliklarnikiday uchta. Bu yil g'alla mo'l.* (Tohir Malik.)

<sup>116</sup> Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. –Б. 58.



- Ingliz tilida: *CSIRO is Australia`s peak research body, employing thousands of researchers across fields ranging from agriculture to robotics.* ( Science 17.10.23)
5. Egalik subyekti: *Murdalarning egalari faryod urdilar.O`z yurtigingizga o`zingiz egalik qilingiz!* (Tohir Malik.)
- Ingliz tilida: *The Democrats held their national convention in Chicago.* (The Economist 24.08.24)
6. Mavjudlik subyekti: *Uning muzokarada ishtirok etuviga qanday yo`l qo`ydingiz?* (Tohir Malik.). *Elalloma tiklagan voqealarda men birinchi shaxs sifatida ishtirok etdim.* ( Tohir Malik.)
- Ingliz tilida: *When she takes positions - such as vowing to deal with corporate price-gouging- they may not be expressions of her political beliefs so much as campaign manoeuvres designed to placate voters worried about the cost of living.* (The Economist 24.08.24)
7. Qiyoslanuvchi subyekt: *Haqiqatning devori balandroq.* (Tohir Malik.)  
*Darhaqiqat, Jamshid otasiga qaraganda balandroq.* (Tohir Malik.)
- Ingliz tilida: *Prices are up by a fifth since the start of the year as investors pile into the precious metal ahead of the Federal Reserve`s expected cuts to interest rates.* ( The Economist 24.08.24)
8. To`dalik subyekti: *Exsonov – jinoyatchi.* (T. Malik.)
- Ingliz tilida: *New York has the most traffic congestion of any city in the world, according to a survey by INRIX.* (The Economist 29.06.24)
9. Idrok qiluvchi subyekt: *Manzura eriga bir qarashdayoq ahvolini sezdi.(T.Malik.) Shu damda Qizil komandir Rahmatullohning ovozini eshitdi, aniq eshitdi.* (Tohir Malik.)
- Ingliz tilida: *For the first time astronomers have spotted a middleweight black hole in the nearby universe.* (Science news 10.08.24)
10. Baholash yoki emotsional munosabatdagi subyekt: *Ozodlik hammaga ham yoqadi.* (Tohir Malik.)

Ingliz tilida: *We are not really looking for aliens.*, *We are looking to explain what people are seeing.* (Science news 10.08.24)

Subyekt shu kabi bir necha ma'nolarga ajratib o'rganilgan.

Xulosa qilib aytganda subyekt bir necha fanlarning o'rganish obyekti hisoblanadi. Bunda har ikkala tilda ham falsafiy, mantiqiy va mazmuniy subyekt tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. Shundagina subyekt haqida muayyan xulosalarga ega bo'lishimiz mumkin.

### **2.3-§. Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarning morfologik aspekti**

Nutqda morfologik shakllar ham uslubiy ma'nolar ifodalovchi vosita sifatida keng qo'llaniladi. Morfologik ma'nolar grammatik ma'noning tarkibiy qismi sifatida morfologik shakllar orqali ifodalanadi. Grammatik ma'no leksik ma'nodan farqli ravishda borliqdagi narsa va hodisalarning umumlashgan ma'nolarini va ular o'rtasidagi munosabatni bildiradi.<sup>117</sup>

Morfologiya morfologik ma'nolarni o'rganadi. Morfologik ma'no ifodalovchi muayyan shakllar yig'ilib grammatik kategoriyani tashkil etadi. Otlarning grammatik kategoriyalaridan biri egalik kategoriyasidir. Predmet yoki predmetlik tushunchalarining uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini ifodalovchi shakllar egalik kategoriyasi deyiladi. Otlardagi egalik uch shaxsni, birlik va ko'plikni ifoda etadi. O'zbek tilida egalik ma'nolari morfologik va sintaktik usullarda ifodalanadi.

Egalik kategoriyasida ham sinonimiya mavjud. Ana shu sinonimlardan nutq vaziyatiga mosini tanlab ishlatish uslubiy imkoniyat yaratadi. Yozuvchilar ana shu uslubiy imkoniyatdan foydalanish jarayonida o'z mahoratini namoyon etadilar. Publitsistik matnda o'zbek tilida egalik affikslari va ingliz tilida egalik olmoshlari hissiy-ta'sirchan bo'yoq ifodalashi mumkin. Ular quyidagicha ko'rinishga ega:

---

<sup>117</sup> Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskanarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilining mazmuniy grammatikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. –B. 15.

1) murojaatda qo‘llanuvchi (jonli va jonsiz narsalarga) bolam, vatandoshlarim, azizim, onam, vatanim, qishlog‘imiz kabi so‘zlar tarkibidagi egalik affikslari so‘zlovchining xususiy munosabatini ifodalab hissiy ta’sirchanlikni oshiradi: *Garchi konstitutsiyamizda so‘z bo‘masa-da, bizda hozir ikki tillilik mavjud?! (T.Malik. Gazeta.uz 2022.10.)*

Mazkur matnda qo‘llangan “konstitutsiyamiz” so‘zi tarkibida birinchi shaxs ko‘plik shakli –miz affiksi qo‘llangan. Bu egalik shaklining ishlatilishi ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan (muallif konstitutsiyada deyishi ham mumkin edi.); Xuddi shunday egalik manodagi ingliz tilida olingan misolda egalik olmoshini takroriy qo‘llanilishi bilan hissiy ta’sirchanlikni oshirilayotganini ko‘rishimiz mumkin: *This is our moment. This is our country. And it is our responsibility to leave it stronger, fairer, and more united for the generations to come.* (<https://www.independent.co.uk/asia>)

2) biror shaxsni o‘ziga tanish yoki yaqin tutishni ifodalaydi. Bu hol ko‘pincha qarindoshlik bildiruvchi so‘zlar tarkibida uchraydi; 1. Biz o‘zimiz ham *farzandimizni qarog‘im* deymiz. (E.Vohidov) 2. Onamiz yangi uchi bilan og‘zini ushlab yig‘ladi. – Seldada aql yo‘q ekan-da, - dedi onamiz. – Bira to‘la ochiq mozorga olib borib tashlamabdi-da!

3) kinoya, kesatiq ifodalaydi: – Ha, menda-da bor! Ayolimiz bilan loyimiz bir yerdan olingan. Bo‘ldimi? Ko‘yning joyiga tushdimi? (T.M.)

4) ta’kidni kuchaytirishga xizmat qiladi: Men baxtli bo‘la olmaydi, deganda muhabbatini pok holda asray olmagan, muhabbat tuyg‘usiga gard tushirgan *yigit-qizlarmizni* nazarda tutyapman. (Toxir Malik “Ishq boshqa, havas boshqa” “Bekajon” gazetasi, 2006).

Matn til vositalarining bor imkoniyatlari namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos maydondir. Publitsistik nutqda ta’sirchanlik, kamtarlik, mag‘rurlanish ma’nolarini ifodalash uchun egalik affikslari qo‘llaniladi. Publitsistik matnda ham egalik qo‘shimchalari turli-tuman ma’nolarini ifodalab kelgan.

Ma'lumki, asarlarda egalik qo'shimchalari shaxslar bo'yicha almashinib qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot obyektimiz bo'lgan publitsistik matnda egalik qo'shimchalari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) achchiqlanish, nafrat ma'nosi: Mana shu *fikrlashuvimiz, bahslashuvimiz* to'g'ri yo'lni belgilashda qiynalayotgan qaysi bir yosh yigit yoki qizga yordam berib qolar? (Toxir Malik "Ishq boshqa, havas boshqa" "Bekajon" gazetasi, 2006).

2) piching, kinoya ma'nosi: Mazkur bayonda *fikrlarimizni* balki keskinroq *bildirgandirmiz.* (O'sha maqola)

3) ma'noni kuchaytiradi: Onasi hatto "Voy *qizim-ey*, shunaqa darding bor ekan, aytma-sanmi, *suyganingga berardim*", deb o'kindi. (O'sha maqola)

4) ta'kidlash ma'nosi: Haqiqiy er yigit qadimdan ham *o'z or-nomusini*, ham *sevgilisi* sha'nini qadrlab kelgan. Ingliz tilda: *I will never, ever put America's interests at risk. I will always put America's interests first. I'm not going to let other countries take advantage of us anymore. I'm going to protect our borders, I'm going to protect our people, and I'm going to protect our way of life.* (In a speech from the 2016 Republican National Convention, Donald Trump) Bu yerda Tramp Amerika manfaatlarini himoya qilishga sodiqligini va mamlakat farovonligiga shaxsiy sadoqatini ta'kidlash uchun "bizning" va "Amerikaniki" kabi egalik olmoshlaridan foydalanadi. "Bizning" dan takroran foydalanish umumiy mas'uliyat va jamoaviy o'ziga xoslikni ta'kidlashga xizmat qiladi.

5) masxaralash ma'nosi: Ammo yigitlar orasida *aldamchilari* ko'proq bo'lsa kerak. (O'sha maqola)

6) erkalash ma'nosi: Oppoq soch odam lablarini cho'chchaytirib cho'chchaytirib o'ylab qoladi: – *Bolalarim...* - deydi. Men sizlarni bola deyishgayam tilim bormayapti. (O'sha maqola)

7) xursandchilik ma'nosi: *Qaldirg'ochlarimiz* boshimiz uzra uchdi, charh-charh uchdi (T.M.)

8) norozilik ma'nosi: Ehtimol keksayish yoshiga borayotganim uchun *fikrlarimda* ham eski qarashlar mavjuddir, balki yoshlarning hayotga, muhabbatga *qarashlari* endi bo'lakchadir? (O'sha maqola)

9) ikkilanish, taraddud ma'nosi: *Qarzim* yo'q, *ena*, *qarzim* yo'q. lekin mehmon atoyi Xudo-da! (T.M.)

Ko'rinadiki, morfologik shakllar, xususan, egalik qo'shimchalari ham publitsistik nutqda so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Ular orqali muloqotda turli ijobiy va salbiy ma'nolar anglatish imkoniyati kengdir.

Avvalo, shuni qayd etish kerakki, hali matbuot tilida qat'iy tartib bo'lmay, turli-tuman til uslublari hukm surgan bir paytda, katta san'atkorga xos shuur va his bilan A.Qodiriy bugungi adabiy tilimizda ilk bor yirik va mukammal roman namunasini yaratdi. Adib tili, jadid adabiyoti namoyandalarining tili bilan birgalikda, xalq jonli tili va matbuot tili zaminida bunyodga kelgan bugungi boy, madaniy tilimizning asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Muallifning so'z turkumlaridan foydalanish mahorati haqida muayyan tasavvur hosil qilish uchun uning romanlari matnini morfologik tahlil qilib ko'rish lozim. *Uchinchi kundan buyoqqa qutidorning eshigi tevaragidan Sodiq ayrilmas edi... hozir kechki soat yettilar bo'lib qolg'ani uchun bu kun ham uning kelmasligiga qaror bergan va ketishni chog'lar edi, lekin uzoqdan kelguchi birar otliqni ko'rsa balki shu bo'lmasin, deb yana kutib qolar edi. Ahvol bilish uchun bo'lsa kerak, Homid ham otiga qiyshiq minib o'tib ketdi. Savol nazari bilan qarag'an edi, Sodiq boshini chayqab javob berdi. Nihoyat qutidor ham kundagi vaqtda bozordan qaytib uyiga kirdi.* ("O'tkan kunlar", 184-bet)

Ajratilgan jummalarda ko'rinib turgani kabi muallif tasvirlash jarayonida, asosan, tub so'zlardan foydalangan. Faqat fe'l so'z turkumiga doir birliklar qo'shma shaklda namoyon bo'lmoqda<sup>118</sup>.

Oddiy hikoya usulidagi matnlarda informativ xarakter ustuvor bo'lsa, muallif ko'proq ot va fe'l so'z turkumiga doir so'zlarni ko'proq ishlatishi ma'lum bo'ldi: *Vaqt shomg'a yaqinlashib qolg'anliqdan bitta-yarimta do'konlar ham yopilib,*

---

<sup>118</sup> Abdurazzoqov E. Abdulla Qodiriy romanlari tilining o'ziga xos grammatik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Toshkent, 2023. – B.46

*o'tkunchilar ham siyraksib qoldilar. Shuncha kutkanning o'n daqiqasi deb bo'lsa kerak, ul hamon shu o'rtada aylanib yurar edi. Poyafzal rastasining sharqqa qarab tortilgan ko'chasi boshidan bir to'da yigitlar munga qarab kelar edilar. Boshda ul kelguchilarni tanimag'an edi, yigitlar yaqinlashib kelgach, o'zining o'rtoqlari ekanini bilib o'ngg'aysizlana boshladi.*

Ajratib ko'rsatilgan matndagi so'zlar miqdori kuzatilganda ham unda fikr, asosan, ot va fe'l turkumiga doir so'zlar asosiga qurilganiga guvoh bo'lish mumkin. Ifoda suhbat jarayoniga yaqinlashganda so'z turkumlaridan foydalanish mazmuni va miqdori o'zgaradi.

Olmoshlar deytik birlik sifatida matnda ichki matniy aloqalarni ta'minlovchi vosita sanaladi. Bu turkumga oid so'zlarning qo'llanishi nutqiy vaziyat, presuppozitsiya, adresat va adresant, informativlik kabi omillar bilan bog'liq.

So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro muloqotning samarali o'laroq berilgan savol uning javobi mazmuniga bog'liq. Savolning qay darajada aniqligi javobning qoniqarli bo'lishini ta'minlaydi. Bu o'rinda so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari asosiy vazifani bajaradi. Lekin muallif quyidagi dialogda so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan muhim so'zlarni topa olgan:

*Uy egasi oshg'a savzi bosib, Otabek yonig'a keldi, ul boshqa hissiyot va fikrlarini vaqtinchag'a unutib, o'zini tetiklikka oldi. Uy egasi Otabek yonig'a o'lturar ekan, so'radi:*

– *Sizniki qayerda, mehmon?*

– *Toshkanddan, mulla aka.*

– *Ismingiz?*

*Otabek manglayini qashib olg'ach, javob berdi:*

– *Shokirbek...*

– *Marg'iling'a birinchi kelishingizmi?*

– *Birinchi kelishim...*

– *Savdo vajhi bilan kelgandirsiz? – uy egasi Otabekning qiyofat va ust-boshidan savdogarga o'xshatqan edi.*

– *Yo'q...*

Mazkur dialogda, asosan, qaysi soʻz turkumlari faol qoʻllangani ochiq koʻrinib turibdi. Albatta, ot va olmosh soʻz turkumi boshqalardan nisbatan ancha ustuvor.

Tadqiqotchi E.Abdurazzoqov taʼbiri bilan aytganda, hali matbuot tilida qatʼiy tartib boʻlmay, turli-tuman til uslublari hukm surgan bir paytda, katta sanʼatkorga xos shuur va his bilan A.Qodiriy bugungi adabiy tilimizda ilk bor yirik va mukammal roman namunasini yaratgan. Bu mukammal roman namunasida grammatik vositalarning ifoda xususiyatlari juda rang-barangdir. Oʻsha rang-baranglik bugungi kun matbuotiga koʻchgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Juft va takroriy soʻzlar muloqot jarayonida taʼkidlash, kuchaytirish maʼnosini ifodalash, dialoglarning jonli va taʼsirliligini oshirish maqsadida qoʻllanadi. Matbuot<sup>119</sup>da juft va takroriy soʻzlardan ham unumli foydalaniladi: *Ota-ona, bobo-buvilar* ham yoʻlda harakatlanar ekan, farzandlari, nevaralarini belgilangan joydan kesib oʻtishga oʻrgatsalar foydadan holi boʻlmas edi. (“Jizzax ovozi”, 09.07.2024); Shuni ham aytib oʻtish joizki, bolaning *his-tuygʻulari gʻoyatda nafis va nozik* boʻladi; Oʻqituvchining bilimdan, *aql-zakovatidan, mehr-muhabbatidan* bahra oladi. (Jahonda boʻlmasa muallim agar... maqolasidan. “Jizzax ovozi”, 30.09.2022.)

Ingliz tilidagi ushbu publitsistik matndan olingan misolga ham nazar tashlaydigan boʻlsak;

*“It is not just going to be entry-level people who are affected. And so we need to think about **what** this means for the economy, **what** it means for society as a whole, **what** are people going to do if robots and AI take a lot of jobs.”* (The Guardian weekly. 19.07.24)

Matnda takror ishlatilgan soʻzlar taʼkidlash, eʼtiborni tortish maʼnosida takroriy ishlatilganini va taʼsirchanlikni oshirish maqsadida qoʻllanilganining guvohi boʻlamiz.

---

<sup>119</sup> **Matbuot** — barcha bosma mahsulotlar majmui tor maʼnoda davriy nashrlar, asosan, gazeta va jurnallarni ifodalaydi.

Yangi soʻzning vujudga kelishi, soʻzlarning “tirilishi”, isteʼmoldan chiqib ketishi ham bevosita matn tahlilida katta rol oʻynaydi. Tilning fonetik va grammatik sathlari ijtimoiy oʻzgarishga befarq, unda faqat vaqt oʻz izini qoldiradi. Chunki yaqin yillarda tubdan oʻzgarishga uchragan ijtimoiy hayotning taʼsiri natijasida, masalan, oʻzbek tilining morfologik strukturasi, sintaktik qurilishida oʻzgarish kuzatilmaganligi buning yorqin dalilidir. Lekin asrlar davomida bunday oʻzgarish boʻlib turadi. Masalan, eski oʻzbek tilida [-gu] affiksi yordami bilan yasalgan ish otiga [-m], [-ng] affiksi qoʻshilib, ushbu soʻzning kesim ekanligini koʻrsatgan: *Men koʻrgum* tipida. Bu hozirgi oʻzbek tilida kuzatilmaydi. [Ul], (*alar*), (*andin*), (*anda*), (*koʻzun koʻrub*) (*koʻzi bilan koʻrib*) kabi qator soʻz shakl fikrimiz dalili. Yoki eski oʻzbek tilida *Bu sening*, *Bu mening* koʻrinishidagi sintaktik qurilma mavjud boʻlgan<sup>120</sup>.

Tadqiqotchi A.Gapparov publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy leksikaning soʻz yasaliş imkoniyatining boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan mahsuldor ekanligini taʼkidlaydi va oʻzbek, nemis tillari publitsistik matnlarining qiyosiy tahlilini amalga oshirgan: “Sifatsiz va *qalbakilashtirilgan* dori vositalariga qarshimiz! (Adolat.23.12.2022); “... oʻtgan yilning kuzidan boshlab shikoyatchiga, arizagoʻyga aylanishga majbur boʻldim” (Adolat, 2020. – № 9); “Bank xodimining qingʻir ishlari alaloqibat fosh boʻldi” (Adolat, 2019. – № 27); “Tabletkafurushlar tanobi tortildi...mi?; “Biroq saylov qonunchiligi shunday sohaki, u doimo zamon bilan hamnafas tarzda yangilab borishni taqozo etadi” (Adolat, 2019. – № 27); “Adolat – har bir inson uchun” saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini taʼminlashga yoʻnaltirildi” (Adolat , 2021. 03. 22) va h.k.

Xuddi shunday, publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy leksikaning morfologik usulda yasaliş ingliz tilida ham juda faol hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy leksika, asosan, jamiyat va siyosatga oid tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar va iboralardan iborat. Publitsistik matnlarda bu leksikaning ishlatilishi, odatda, oʻquvchilarning

---

<sup>120</sup>. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B. 215.



e'tiborini tortish, muayyan g'oyalarni ilgari surish va ijtimoiy-siyosiy masalalarga nisbatan fikr yuritishga undash maqsadida amalga oshiriladi. Ingliz tilidagi publitsistik matnlarda ijtimoiy-siyosiy leksikaning so'z yasash imkoniyatlari keng va xilma-xildir. Ushbu leksikani yaratishda turli morfologik jarayonlar, masalan, affiksatsiya (prefiks va suffiks qo'shish), kompozitsiya (bir nechta so'zlarni birlashtirish) va qisqartirish kabilar ishlatiladi. Masalan: *Moderate Democrats ousted a left-wing congressman in a primary election in New York. It was the most expensive Democratic congressional primary ever.* (The Economist 29.06.24) . Quyida keltirilgan matnda "demokratiya" so'zining affiksatsiya orqali yangi so'z yasash natijasida mano ekspressivligini kuchaytirayotganini ko'rishimiz mumkin.

Ingliz tilidagi publitsistik matnlarning morfologik aspekti ularning tuzilishi, so'zlarning shakllanishi va ishlatilishiga bog'liq. Publitsistik matnlar odatda jamoatchilik fikrini shakllantirish, ma'lumot berish yoki muayyan masalalar bo'yicha fikr yuritish maqsadida yoziladi.

Ingliz tilida publitsistik matnlarida ham ko'plab morfologik elementlar mavjud. Masalan: Sifatlar va otlar. Sifatlar ko'pincha kuchli hissiyotlarni ifodalash uchun ishlatiladi: *urgent action, mega coral, devastating effect, sustainable future, catastrophic consequences, rapid increase.*

Shuningdek, ingliz tili publitsistik matnlarida zamonaviy so'zlar va terminlar tez-tez paydo bo'lishi, natijada matnlarning manodorligini va keng qamrovliligini ifodalashi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Masalan: *fake news, social media, sustainability, AI, climate change, cybersecurity* - bular yangi fenomenlarni ifodalovchi terminlar. Ushbu terminlardan foydalanish keyingi paytlarga kelib ommalashib bormoqda. Bu ham publitsistik matnlarda ommani jalb etishga qaysidir manoda zamin bo'layotir.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarning morfologik aspektlari ularning tuzilishi va ifoda etilishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har ikkala tilning o'ziga xos morfologik qoidalari, yangi so'zlar va iboralar yaratish imkoniyatlari mavjud, bu esa publitsistik matnlarni yanada qiziqarli va ta'sirchan qiladi.

## **2.4-§. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarning sintaktik aspekti**

### **2.4.1-§. Publitsistik matnda so‘z birikmalarining xususiyatlari.**

So‘z birikmasi sintaksisning ikki asosiy birliklaridan biri bo‘lib, hozirgi zamon tilshunosligida u har tomonlama ishlangan. Lekin shunga qaramasdan haligacha so‘z birikmasining ta’rifi haqida aniq bir yagona fikr mavjud emas. Bu yerda 3 asosiy nuqtayi nazar mavjud. Birinchi nuqtayi nazarga ko‘ra sintaksisda “so‘z birikmasi” degan birlik umuman mavjud emas. Sintaksisning yagona birligi bo‘lib “gap” chiqadi. Ikkinchi nuqtayi nazarga ko‘ra, har qanday ikki yoki undan ortiq so‘zning yig‘indisi “so‘z birikmasi” hisoblanadi. Bu tilshunoslar guruhiga F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy, M.M.Guxman, V.I.Yarseva, G.V.Voronsova, G.Suit va boshqalar kiradi. Uchinchi nuqtai nazarga ko‘ra, so‘z birikmasi deb faqatgina ikki yoki undan ortiq ma’no bildiruvchi so‘zlar jumlasiga aytiladi. V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, B.A.Ilish, L.Blumfeld, E.Sepir, Dj.Laeonz, A.Xaymovich, Rogovskaya, S.Maslov va boshqalar shu olimlar sirasiga kiradi.

Ma’lumki, sintaksis grammatikaning bir qismi bo‘lib, unda gap strukturasi, tizimi, gap bo‘laklari, gap turlari, so‘zlarning bir-biri bilan bog‘lanish yo‘llari va so‘z birikmalari o‘rganiladi. Gap haqidagi ta’limot sintaksisning asosi bo‘lsa, so‘z birikmasi gapning qurilish materialini, vositasi bo‘lib, u ham sintaksisda tekshiriladi. Sintaksisda har qanday so‘z birikmasi o‘rganilavermaydi. Ikki yoki undan ortiq so‘zning qo‘shilib qo‘shma so‘z hosil qilishi leksikologiyaning o‘rganish obyektiidir.

Publitsistika keng ma’noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o‘z ichiga oladi. Publitsistik uslub o‘zbek adabiy tilining nutq stillari tizimida, asosan, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo‘la boshladi. Chunki bu davrga kelib, ya’ni 1883-yilning boshlaridan-boshlab o‘zbek tilida to‘ng‘ich gazeta – “Turkiston viloyatining gazetisi” chiqib boshladi. XX asr boshida esa nashriyot va vaqtli matbuot ishlari doirasining yanada kengayishi hamda o‘zbek demokratik yozuvchilar ijodida badiiy publitsistikaning keng o‘rin olishi kabi omillar o‘zbek adabiy tilida publitsistik uslubining paydo

bo'lishi va shakllanishida katta rol o'ynadi. Yangi demokratik publitsistika stili Furqat, Hamza, Ayniy, Sattorxon singari ilg'or yozuvchilar ijodida yanada rivojlandi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiy tilining publitsistik stili har tomonlama takomillashdi, o'z taraqqiyotining yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Ayniqsa, hikoyanavislikda publitsistik uslubning keng qamrovli qirralari yaqqol namoyon bo'la boshladi. Publitsistik matn yaratish ijodkordan anchayin mahorat talab qilishi barchaga ayon. Istiqlol sharofati bilan gazeta va jurnallarda davomli tarzda hikoyalar soni anchayin ortdi. Vaqtli matbuotlarda taniqli san'atkorlar, fan arboblari, mashhur shaxslar va yurtimiz fidoiylari faoliyatiga oid o'quvchilarni qiziqtiradigan ko'plab maqolalar omma e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgani publitsistik stilning taraqqiyotiga kuchli ta'sir qildi.

Publitsistik uslub kitobiy yozma nutqning sintaktik norma-qoidalariga asoslanadi. Bayonning keng va mufassal bo'lishi publitsistik stil uchun xos xususiyatlardan biridir. Unda so'zlashuv stili uchun xarakterli bo'lgan elliptik konstruksiyalar kamdan-kam uchraydi. Publitsistik stilda ko'pincha parallelizm, anafora (gaplarning boshida ohangdosh so'z, iboraning takrorlanib kelishi), epifora (gap oxirida so'z, ibora yoki oborotning takrorlanib kelishi) kabi sintaktik vositalar ishlatiladi. Publitsistikada bu vositalar fikrni mantiqiy ifodalash vazifasini bajarish bilan birga, u yoki bu gap bo'lagini emotsional nuqtai nazardan alohida ajratib ham ko'rsatadi.

Zamonaviy qarashlar asosidagi yangicha talqinlar negizida so'z birikmasini sintaktik qurilmalarning asosiy turlaridan biri sifatida o'rganishga e'tibor yanada kuchaymoqda<sup>121</sup>.

So'z birikmalari nutq tizimida leksik, sintaktik va grammatik sath birliklari bilan uzviy munosabat hosil qiladi va matn yaratilishining eng asosiy uzvlaridan hisoblanadi. Ta'kidlash o'rinliki, matnning grammatik hamda lug'aviy shakllanishida, uni mazmunan boyitishda, semantik jihatdan kengaytirishda,

---

<sup>121</sup> Bu haqda qarang: Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – B. 271; Xo'jayev T. So'z birikmasi talqiniga qisqacha sharh // <http://library.ziynet.uz/>; Raupova L.R. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2015.

fikrning to‘liq, ekspressiv bo‘lishida, matnning emotsional-hissiy, badiiy-obrazli ta’sir kuchini olishida eng muhim asosiy vazifani bajaruvchi til birligi – so‘z birikmalaridir. Xuddi mana shu vazifalarni publitsistik matnlarda, ayniqsa, so‘z birikmalari qoyilmaqom tarzda bajaradilar.

Nutq jarayonida so‘zlar shu tilga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlar asosida bir biri bilan bog‘lanadi. So‘z birikmasi ifodalovchi so‘zlardan tuzilgan, ham grammatik, ham semantik butunlikka ega bo‘lgan birlikdir. Masalan: *The two men walked in silence* (A.Cronin) gapida 1) *the two men*, 2) *walked in silence*.

Matnning ekspressiv tabiati bir qator grammatik vositalar ishtirokida shakllanadi. Hatto R.O.Yakobson ham A.S.Pushkinning she’rlarini tahlil qilar ekan, keskinlik, emotsional-ekspressivlikka grammatik shakllarni mohirona almashtirish orqali erishish mumkin degan xulosaga keladi<sup>122</sup>. Shuningdek, I.I.Kovtunova ham grammatik vositalar boshqa til birliklariga qaraganda she’riy matnlar badiiyligini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi<sup>123</sup>. Ingliz va o‘zbek ijodkorlarning lisoniy vositalardan foydalanish mahorati o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan publitsistik asar tilining sintaktik xususiyatlari qiyosiy jihatdan maxsus o‘rganilmaganligi sababli mazkur bo‘limda publitsistik matnlar shunday xususiyatlariga atroflicha to‘xtalamiz. Adiblar publitsistik asar va maqolalarini yozishda sintaktik vositalarning milliy tabiatiga alohida e’tibor bergan.

Bir so‘z birikmasi gapda turli o‘rinda kela oladi:

- 1) *The two men walked in silence.*
- 2) *We have seen the two men walking in silence.*

Ko‘makchi so‘zlar mustaqil so‘z bilan birgalikda bir element sanaladi. Predlog + ot tipidagi qo‘shilmalar, masalan: *in the evening*, *at night*, *in time*, *for a while* kabilar so‘z birikmasi sanalmaydi.

*As soon as*, *down to*, *in front of*, *on behalf of*, *in order*, *in accordance with* kabi konstruksiyalar ham so‘z birikmasi hisoblanmaydi, chunki ular gapda predlog va bog‘lovchilar vazifasida keladi.

---

<sup>122</sup> Яковсон Р.О. Поэзия грамматики и грамматика поэзии. – М., 1983. – С. 462.

<sup>123</sup> Ковтунова И.И. Поэтический синтаксис. – М., 1986. – 206 с.

Birikmalar erkin va turg'un bo'lishi mumkin.

Erkin so'z birikmasida so'zlarning birikishi erkin bo'ladi.

Erkin so'z birikmalarining ma'nosi komponentlarning ma'nosiga teng bo'lib, qismlar o'rtasida hokim tobelik mavjud bo'ladi.

Turg'un birikmasining ma'nosi bir so'zga tenglashib, unda hokim tobelik bo'lmaydi. Turg'un so'z birikmasi frazeologiyada o'rganiladi.

Turg'un so'z birikmasiga misol:

to take a fancy - qiziqib qolmoq;

to put up with - chidamoq;

out of the blue - tomdan tarasha tushgandek. (Turg'in birikmalar to'g'risida 3.3-faslda yoritishni maqsad qilib olganligimiz sababli bu o'rinda batafsil to'xtalmadik.)

Publitsistik matnda sintaktik birliklardan sanalgan so'z birikmalarining ham o'ziga xos o'rni mavjud. Bunday birliklar asosan publitsistik matnning ta'sir kuchini yanada bo'rttirib, turli bo'yoqlar orqali ifodalanganda esa o'quvchida beixtiyor matnga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Masalan: *"Ishq" deyilganda avvalo Allohga bo'lgan muhabbat tushuniladi. So'ngra ota-onaga, Vatanga muhabbat, oilaga, do'stlarga muhabbat ham mavjud. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-biriga quvvat beradi. Har biri o'z o'rnida ardoqli fazilatdir. Birini deb ikkinchisidan voz kechilmaydi. Biz ayni damda bular haqida emas, oqibati nikoh iplari bilan bog'lanuvchi ikki dil muhabbat haqida so'z yuritmoqchimiz.* (Tohir Malik "Ishq boshqa, havas boshqa" "Bekajon" gazetasi, 2006). Ingliz tilida: *The area of Columbia planted with **coca bushes** rose by 13 % in 2022 to reach a **record high**, according to the UN office on drugs and crime. Columbia's **left-wing president**, Gustavo Petro is a critic of the " war on drugs" led by America.* (The Economist 16.09.23)

Ko'rinib turibdiki, publitsistik uslubning sintaktik tuzilishi ham o'ziga xos. Publitsistik matnda turli ko'rinishlardagi so'z birikmalarni ishtirok etganining guvohi bo'lish mumkin. Yuqorida keltirilgan Tohir Malik qalamiga mansub maqola so'zimiz isboti hisoblanadi. Unda turli ko'rinishdagi, jumladan, bosh

soʻzning ifodalanishiga koʻra otli va feʻlli soʻz birikmalarini, ergash soʻzning ifodalanishiga koʻra esa, aniqlovchili, toʻldiruvchili va holli birikmalarni uchratish mumkin. Shu munosabat bilan publitsistik matndagi soʻz birikmalarining xususiyatlarini quyidagicha tasniflashni maʼqul topdik.

Birinchidan, bosh soʻzning ifodalanishiga koʻra: a) *otli* (bunday hollarda bosh soʻz ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, modal soʻzlar, undov soʻzlar va taqlid soʻzlar bilan ifodalangan) *birikmalar*; b) *feʻlli* (sof feʻl shakli, ravishdosh va sifatdosh shakllari bilan ifodalangan) *birikmalardir*.

Yozuvchi oʻzining “Ishq boshqa, havas boshqa” deb nomlangan publitsistik maqolasida: *oʻlim bilan teng haqorat!*; *oʻlimdan ham ayanchliroq haqorat!*; *chin muhabbat*; *erkin muhabbat*; *hayvoniy muhabbat*; *nikoh iplari bilan bogʻlanuvchi ikki dil*; *yigitning pinjiga kirib ketay deyayotgan qiz*; *muhabbatini pok holda asray olmagan, muhabbat tuygʻusiga gard tushirgan yigit-qizlar*; *bir necha yigitga sevgi izhor qiluvchi qizlar*; *buzuq filmlar*; *iboli, hayoli qiz*; *ozmi-koʻpmi bor*; *yigitda koʻngli borligi*; *muhabbatini himoya qilish* kabi otli soʻz birikmalarini keltirib oʻtadi. Matndagi otli soʻz birikmalarini qoʻllash barobarida yozuvchi oʻzbek xalq maqollari, tilimizda mavjud boʻlgan turli xildagi naql hamda aforizmlardan ham atroflicha foydalanishni maʼqul koʻradi va ularning sodda hamda murakkab shakllarini qoʻllashga intiladi. Publitsistik matnni shakllantirishda sodda va murakkab soʻz birikmalarining oʻziga xos oʻrni bor. Chunki murakkab birikmaning maʼnosi unga asos boʻlgan sodda birikmaning maʼnosini kengaytirish, konkretlashtirish bilan xarakterlanadi. Murakkab birikma hosil qilishning yoʻllari ham, bunday birikmalarning tiplari ham har xil.

The Economist jurnalidan olingan matnda *coca bushes*, *record high*, *left-wing president*, kabi soʻz birikmalari keltirilgan.

D.Qoʻshboqova “Muhammad Yusuf sheʼriyati tilida ot birikmalar sinonimiyasi va uslubiyati” mavzusidagi magistrlik ishida poetik nutqda qoʻllanuvchi otli birikmalar haqida quyidagilarni bayon etadi: Poetik nutqda otli birikmalarning uch guruhiga mansub [belgi-predmet] manoli, [qaratuvchi-qaralmish] maʼnosini anglatuvchi va [tur-jins] maʼnosini ifodalovshi turlari

badiiy tasvir va ifoda vositalarini hosil qilishini III bobdagi tahlil natijalari tasdiqlaydi. Poetik nutqda otli birikmalarning uchala guruhi baravar qo'llana olishi nazariy jihatdan e'tirof etilsa ham, amalda tasdiqlanmadi. Chunki uch shoir poetik sintaksisiga xos otli birikmalar turli-tuman, betakror variantlarda reallashgan bo'lsa-da, ikki guruhdagi, ya'ni [belgi-predmet] va [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli otli birikmalar uchinchi – [tur-jins] ma'noli birikmalar guruhiga nisbatan ko'proq qo'llanilishi ma'lum bo'ldi. Tahlil qilganimiz uch turdagi poetik nutqda [belgi-predmet] ma'noli otli birikmalar [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli turiga qaraganda miqdoriy ustunlikka ega<sup>124</sup>.

So'z birikmasi bilan gap o'rtasida farq kattadir. So'z birikmasi nominatsiya (atash) vazifasini bajarish jihatdan so'zga yaqin turadi va u gap singari intonatsion tugallikka ega bo'lmaganligi uchun kommunikativ birlikni tashkil qilmaydi. Shu o'rinda so'zdan farq qiladi va sintaktik birlik hisoblanadi.

Ingliz tilida ham so'z birikmalari shunday tarkib topgan bo'ladi. So'z birikmasi strukturasi bir so'z hokim (head), qolgani tobe (subordinate) bo'ladi.

Odatda sifat bilan ot birikkanda sifat tobe, ot hokim: ravish bilan fe'l birikkanda fe'l hokim, ravish tobe bo'ladi: a powerful man, a grey suit, Red Square, curly hair, enormous eyes, little regular features, neatly dressed, play well, said smilingly, beamed with pleasure. Hokim so'z fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, fe'lli so'z birikma, ot bilan ifodalangan bo'lsa, substantivli so'z birikma, olmosh bilan ifodalangan bo'lsa, olmoshli so'z birikma, ravish bilan ifodalangan bo'lsa, ravishli so'z birikma, son bilan ifodlangan bo'lsa, sonli so'z birikma deb yuritiladi.

Hozirgi zamon ingliz tilida ot+ot tuzilishidagi so'z birikmasi ko'p uchraydi.

Ot+ot so'z birikmasi ham o'z navbatida bir necha ko'rinishga ega:

- 1) Bosh kelishikdagi ot+ot: stone wall, uncle Tom;
- 2) Qaratqich kelishikdagi ot+ot: Rahim's book, Tom's sister.

Ot+ot so'z birikmasi ko'p hollarda predlog bilan ham keladi: Ot+of+ot  
a drop of rain, the edge of the shelf.

---

<sup>124</sup> Qo'shboqova D. Muhammad Yusuf she'riyati tilida ot birikmalar sinonimiyasi va uslubi. MD Jizzax–2015.

Aniqlovchining otdan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra so'z birikmasi bir necha turlarga bo'linadi. Bunday holat *variantlanish* deyilib, u so'z birikmasining ichidan kengayishi so'z birikmalarning ko'p uchraydigan turiga **sifat+ot** birikmasi ham taalluqlidir: Big Ben, white hair, an old man, strange hunter.

Mazkur so'z birikmasining sifat+predlog+ot turi ham mavjud. Masalan: Afraid of work. Bu turdagi so'z birikmasida ikkita sifat ketma-ket kelishi mumkin. **Sifat+sifat+ot** so'z birikmasi ham ko'p qo'llanadi.

Masalan: New high buildings.

So'z birikmasining boshqa turlari ham mavjud. Fe'l+ot: wrote a letter, smoking a cigar, valued rest.

Buyruq maylidagi **fe'l+ot** strukturasidagi birikmalar (masalan, wait a minute), buyruq gapga teng bo'ladi.

- 1) fe'l+ravish: spoke louder, ran fast.
- 2) Son+ot: fifteen Republics, twenty days.
- 3) Ravish+sifat: very happy, profoundly happy, midely famous.
- 4) Ravish+ravish: very well, too young.
- 5) Fe'l+predlog+ot: to go with (one's) friend, to accept with gratitude.
- 6) Sifat+fe'l: yeasy to write, hard to know.
- 7) Sifat+gerundiy: worth seeing.
- 8) Sifat+predlog+gerundiy: famous for painting.
- 9) Sifat+predlog+sifat: far from important.

So'z birikmasining yasalishida mustaqil so'zlar qancha ko'p ishtirok etsa, uning turlari ham shuncha ko'p bo'ladi.

So'z birikmasi komponentlar orasidagi sintaktik munosabatlar (Syntactical Relations between the Components of a Phrase).

So'z birikmasining komponentlari bir-biri bilan so'z formalari, yordamchi so'zlar, intonatsiya, so'z tartibi yordamida birikadi.

So'z birikmasining komponentlari biri ikkinchisiga tobelanish yo'li orqali bo'ladi.



So‘z birikmasi qismlari o‘rtasidagi hokim-tobelik quyidagi yo‘llar bilan ifodalanadi:

**Moslashuv.** Moslashuvda tobe so‘z (subordinate word) hokim so‘zga (head word) mos formada kelishi kerak. Ingliz tilida aniqlovchi aniqlanmish bilan moslashmaydi. Ko‘rsatish olmoshlari bilan ifodalangan aniqlovchi bu qoidadan mustasnodir. Masalan:

this book	that book
these books	those books

Ega bilan kesimning moslashuvi so‘z birikmasida emas, gapda o‘rganiladi.

**Boshqaruv.** Boshqaruvda hokim so‘z qanday formada bo‘lmasin, u tobe so‘zni ma‘lum formada kelishini talab qiladi. Tobe so‘zning formasi hokim so‘z formasi bilan bir xil bo‘lmaydi.

Hozirgi ingliz tilidagi so‘z birikmalarida boshqaruvning roli unchalik katta emas. B.A.Illishning ko‘rsatishicha, faqat obyekt (objective case) kelishigida kelgan kishilik olmoshlari va **who** so‘roq olmoshi hokim so‘z-fe‘l talabiga ko‘ra o‘z formalarini o‘zgartirishlari mumkin: Give me, him, her, us, them, whom.

**Birikuv.** Bunday bog‘lanishda birikkan so‘zlardan birining grammatik ikkilanishi ikkinchisiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Ularning o‘zaro aloqasi tartib yoki intonatsiya orqali ifodalanadi. Ingliz tilida bunday bog‘lanish keng tarqalgan.

Publitsistik matnda qo‘llanuvchi fe‘lli birikmalarning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Masalan, ...*suykalishib yurgan; hatto quchoqlashib; o‘tli nafasi boshqaradi; chin muhabbat deb ta‘riflamoq; ikkinchisidan voz kechilmaydi.* Matndan keltirilgan ushbu fe‘lli birikmalarda sintaktik parallelizmlar o‘z o‘rni bilan matnni shakllantiruvchi vosita sifatida qo‘llanilgan. The Economist jurnalida quyidagi inglizcha otli birikmalarni uchratish mumkin: *went on trial, maintain it’s monopoly, deal with internet, display it’s search engine.*

Ikkinchidan, ergash so‘zning ifodalanishiga ko‘ra: *to‘ldiruvchili(obyektli), aniqlovchili(atributivli), holli(relyativli) birkmalarga bo‘linadi.*

Yuqoridagi publitsistik maqola matnida: *tikanni bosmoq* (Bilmay bosdim tikanni) – *jabrini tortmoq* (Tortadirman jabrini); *muhabbat dardiga muhtalo bo'lmoq* – *shifo bera olmoq*; *so'zlariga e'tibor bermoq*; *ta'rifu tavsifini keltirmoq*; *mojarosiga guvoh bo'lmoq* kabi to'ldiruvchili so'z birikmalarini ko'plab uchratish mumkin. Bu kabi so'z birikmalarining ba'zilar antiteza orqali, yana ba'zilar esa takrorlash orqali matnning ahamiyatini, ta'sir kuchini oshirish uchun xizmat qilgan.

Aniqlovchili birikmalardan esa: *ardoqli fazilat*; *nikoh iplari bilan bog'lanuvchi ikki dil*; *pokiza tuyg'u*; *qizning boshini aylantirib yuruvchi yigitlar*; *iflos oyoq* kabilarni uchratishimiz mumkin. Bunday misollarning bir qanchasini tahlilga tortish mumkin, ammo biz bularning faqatgina ekspressivlik ahamiyat kasb etadiganlariga e'tiborni qaratishni lozim deb bildik. Chunki publitsistik matn tili o'zining serqamrovligi bilan barcha uslublarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Aniqlovchili so'z birikmalarini matn doirasida asosan birikmali hollarda ko'plab kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldik. Shuni inobatga olgan holda bu kabi so'z birikmalari asosan matndagi ta'sirchanlik hissini oshirishga xizmat qiladi degan xulosaga keldik.

Holli so'z birikmalari publitsistik matnda eng faol va eng ko'p qo'llanuvchi ekanligi barchaga ayon. Yuqorida keltirilgan publitsistik maqolada ham holli birikmalarning rang-barangligining guvohi bo'lamiz. Masalan, *ma'lum yoshda dardga chalinmoq*; *quvonch bilan tasdiqlashadi*; *Or-nomus uchun jangga kirmoq*; *iflos oyoq bilan kirilmaydi*; *kuzatuvchan bo'lmoq*; *keskinroq bildirmoq*; *ochiqchasiga fikrlashmoq* singari birikmalarni keltirib o'tishimiz mumkin. Holli so'z birikmalari ba'zan bosh so'z bilan aloqalanishda distant aloqaga ham kirishadi: *dard tufayli ayrimlar halok bo'ladilar* tarzida.

Maqolada yana *yuziga tuproq tortmoq*, *bir fohisha o'rnida qabul qilmoq*, *Albatta haqorat, o'lim bilan teng haqorat! Hatto o'limdan ham ayanchliroq haqorat, bilmayin bosdim tikanni – tortadirman jabrini, Allohga bo'lgan muhabbat tushuniladi, bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi, do'st achitib gapirar* kabi barqaror birliklarning ifodalanishi ham matnni aloqalantiruvchi

muhim vosita sanaladi. Bunday birliklar garchi fe'lli birkmalar tarkibiga kirmasada, ularda sintaktik takrorlar fikr va hisni yaqqol ifodalash bilan birga, ta'sirni kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi. Yozuvchi takrorlarni so'z birikmalari shaklida qo'llash orqali ekspressivlikni yanada kuchaytiradi. Publitsistik matn tarkibidagi bunday sintaktik parallelizmlar ko'proq badiiy uslubga ishora qilgandek tuyulsa ham, aslida pand nasihatga, ogohlikka undaydi va kishini kerakli xulosalar chiqarish uchun da'vat etadi.

Keyingi paytlarda teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarda ham bunday holatlar ko'plab kuzatilmoqda. Chunki publitsistik uslub o'zining yozma hamda og'zaki ko'rinishlariga ega.

Publitsistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ular publitsistik uslubning umumiy talablariga bo'ysunadi. Chunonchi, bu uslubning ikkala turida publitsistikaga xos siyosiy aktivlik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy salobat, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Publitsistikaga xos umumiy belgilarga muallif munosabatining oshkora va aniq ifodalanish xususiyati ham kiradi. Muallif hayot va voqelikka aktiv munosabatda bo'ladi. Muallifning voqelikka bo'lgan munosabati faktlarni tanlashida, ularni o'z dunyoqarashi va estetik prinsipi asosida mantiqiy tahlil qilishida va nihoyat, tilning emotsional-ekspressiv vositalaridan foydalanishida o'z ifodasini topadi. Publitsistik katta hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishi, isbotlashi bilan birga, o'quvchi yoki tinglovchini bunga ishontirishi, uning iroda va his-tuyg'ulariga ta'sir etishi lozim. Shuning uchun publitsistik stil o'zida yozuv nutqi stillariga xos xususiyatlari ham (masalan, maxsus ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohaga oid terminologiyaning ishlatilishi), badiiy adabiyot stiliga xos xususiyatlarni ham (masalan, obrazli ifodalarni ishlatish, emotsional bo'yoqqa ega bo'lishi) birlashtiradi.

Til vositalarini tanlash va ulardan foydalanish imkoniyatlari, eng avvalo, publitsistik nutqning janr turlariga, ularning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Bundan tashqari, publitsistik materiallarning barcha turlarida, chunonchi, pamflet,

feleton va notiqlik nutqlarida muallifning o'ziga xos individual uslubi ham sezilib turadi.

#### **2.4.2-§. Publitsistik matnda gap turlarining funksional-stilistik xususiyatlari.**

Taniqli adib Tohir Malikning publitsistik asarlari matnlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, uning publitsistik maqolalarida jumla ravonligi, soddaligi va ixchamligiga alohida e'tibor qaratilgan. Qo'shma gaplar kam ishlatilgan bo'lsa-da, ularni qo'llashda o'ziga xosliklar mavjud. Tohir Malik publitsistikasida bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar, shart va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar, maqol tipidagi bog'lovchisiz qo'shma gaplarning alohida o'rni bor. Bular orasida maqol tipidagi qo'shma gaplar muhim stilistik vosita vazifasini o'tagan.

Publitsistik asarlar matnlarida qo'shma gaplarning teng va tobe tarkibli turlari qo'llanilgan bo'lib, ularning birinchi yoki ikkinchi qismlari bir tarkibli gaplardan iborat bo'lganda, matnda o'quvchiga ma'lum bir voqea – hodisalar to'g'risida axborot yetkazish, ta'kidlash, voqealarning ketma-ket amalga oshishi, xulosalash, urg'u berish, undash, izohlash, qat'iylik, eslatish kabi qator ma'no munosabatlari ifodalanadi<sup>125</sup>.

Sintaktik xususiyatlariga ko'ra gazeta va jurnallar tili radio-televidenie tilidan anchagina farqlanadi. Har bir material ustida bemalol o'ylash, kerakli joylarga o'zgartishlar kiritish va tahrir qilish imkoniyati matubot tilining bir qadar mukammal bo'lishiga yordam beradi.

Tohir Malik publitsistik maqolalarida zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplarning qo'llanishida o'ziga xoslikni ko'rish mumkin. Ushbu holat keyingi yillar vaqtli matbuotida tez-tez uchramoqda<sup>126</sup>. Qoidaga muvofiq, zidlov bog'lovchisidan oldin vergul qo'yiladi. Yozuvchi ijodida esa deyarli barcha holatlarda nuqtadan so'ng qo'llanilgan. Misollar: "Zero, bu boradagi har qanday urinishning behudaligi turgan gap. Ammo birinchi qo'shiqning mazmuni haqida turli taxminlarga o'rin berish mumkin". Birinchi qo'shiq sevgini madh etganmidi?

---

<sup>125</sup> Djumabayeva D. Mustaqillik davri publitsistik asarlardagi qo'shma gaplar talqini: Filol.fan.nomz...dis.avtoref. – Toshkent 2006. 15-46-b.

<sup>126</sup> Qarang: O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. Uch tomlik. 2-tom. Toshkent : Fan, 1989. 227-228-b.

Ehtimol. Yoki yurt olqishidan iborat bo‘lganmi? Balki shundaydir. (T.Malik. Muqaddas burch. // “Toshkent oqshomi” gazetasi 1980. mart)

Umuman, kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, publitsistik matnda sintaktik vositalarning qo‘llanishida o‘ziga xosliklar mavjud. Yozuvchi Tohir Malik publitsistikasi bo‘yicha fikr yuritadigan bo‘lsak, unda sintaktik birliklar orasida qo‘shma gaplarning stilistik vosita sifatida o‘rni nihoyatda katta. Sodda gaplar publitsistik maqolalarda asosiy sintaktik birlik sifatida, fikrni ixcham, sodda va mazmunli ifodalashga xizmat qilgan bo‘lsa, qo‘shma gaplarning ham qisman bo‘lsa-da, o‘ziga xos stilistik ma‘noni ifodalashda ma‘lum o‘rni bor.

Professor S.Karimov tadqiqotlarida qayd etishicha, maqollar tahlili misolida xalq og‘zaki ijodi namunalarining sintaktik xususiyatlari haqida yirik tadqiqotlar olib borgan. X.Abdurahmonov bu janr nutqiy me‘yorlarining o‘ziga xos ko‘rinishlari to‘g‘risida ishonarli xulosalar bergan<sup>127</sup>. Masalan, maqollarning buyruq gap shaklida berilishi (Avval o‘yla, keyin so‘yla) me‘yoriy holat, so‘roq va undov gaplar shaklida kelishi esa tilimiz uchun xos xususiyat emas. Gapda ega ko‘proq otlashgan so‘z yoki so‘z birikmalari orqali ifodalanadi va u nechta so‘z va so‘z birikmalari bilan ifodalansa, kesim ham shuncha so‘zli birikma orqali ifodalanadi. (Oz so‘z – soz so‘z, yoz mevasi – qish xazinasini).

Ko‘p o‘rinlarda so‘z qaratqich, tushum va boshqa kelishiklar bilan shakllanishi lozim bo‘lganda, belgisiz ishlatiladi.

Bir tarkibli gaplarning shaxsi umumlashgan turi maqollar sintaksisi uchun asosiy me‘yoriy xususiyat sanaladi. (Olim bo‘lsang, olam seniki; Mard bir o‘ylar, nomard yuz o‘ylar kabi). Maqollarning bog‘lovchisiz qo‘shma gap shaklida kelishini ham ularning muhim me‘yoriy belgilari deb hisoblash lozim. (qo‘shning tinch – sen tinch; Gap ko‘p – ko‘mir oz; Rahmat olgan omondir, la‘nat olgan yomondir singari). Shu narsa ham muhimki, bu tipdagi gaplarda qiyoslash, zidlash mazmuni, parallelizm yorqin sezilib turadi. So‘z tarkibi esa turg‘un. Qo‘shning tinch – sen tinch tartibidagi shakllangan gapni Sen tinch – qo‘shning tinch, deb

---

<sup>127</sup> Karimov.S. Til ta‘limi va me‘yor. O‘quv qo‘llanma . – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 145-169-b.

o'zgartirish maqsadga muvofiq emas. Demak, komponentlar turg'unligi bunday gaplar uchun me'yoriy holat hisoblanadi.

O'zbek tili sintaksisi doirasida me'yoriy chegaralarni belgilash nihoyatda murakkab vazifa. Tildagi har bir sintaktik kategoriya, har bir sintaktik birlik matn xususiyatiga qarab, vazifaviy uslublar doirasida qo'llanishiga ko'ra o'ziga xos mazmun va shakl kasb etishi mumkin. Demak, kelajakda sintaktik me'yorlar har bir uslub, ularning alohida tur va janrlari misolida batafsil tadqiq etilishi lozim bo'ladi. Bu muammoni hal etishda Tohir Malik publitsistik asarlarida qo'llagan qo'shma gap tipidagi maqollar ham xarakterli bo'lishi mumkin.

Tohir Malik ijodida qo'shma gap tipidagi maqollar aynan ishlatilgan holatlar uchraydi. Misollar: Ha, aynan shunday: "ishq boshqa, havas boshqa – bu yo'lda xato qilma", deb ogohlantiradilar. Yana bir maqol bor: "Bilmayin bosdim tikanni – tortadirman jabrini. Bilsam erdim, bosmas erdim – tortmas erdim ul tikanning jabrini" (T.Malik. Ishq boshqa, havas boshqa. // "Bekajon" gazetasi, 2006, iyul)

Hamonki ustoz otadan ulug' ekan, "Ota rozi – Xudo rozi", degan maqolni "Ustoz rozi – Xudo rozi" degan ma'noda ham anglashimiz va shunga yarasha harakat qilishimiz shart ekan. (T.Malik. Ulug'imsiz – ustozim! // "Bekajon" gazetasi, 2006, oktabr)

O'zbeklarda "Bitta ota o'nta o'g'ilni boqadi, o'nta o'g'il bitta otani boqolmaydi", degan maqol bor. "Bog'bon"ni ko'rib bo'lgach, xayolga kelgan dastlabki fikr shu bo'ldi (T.Malik. "G'ariblar" – "Bog'bon". // "7x7" gazatasi)

Qo'shma gap tipli maqolning qisqargan shaklda ishlatilishi ekspressivlikka xizmat qiladi. Shunday shaklda qisqargan maqollar yozuvchi maqolalarida ham oz bo'lsada uchraydi. Misol: "Mazkur bayonda fikrlarimizni balki keskinroq bildirgandirmiz. Bu keskinlik kimningdir izzat – nafsiga ham tekkandir. Nachora, "do'st achitib gapirar", deydilar-ku? Ehtimol, keksayish yoshiga borayotganim uchun fikrlarimda ham eski qarashlar mavjuddir, balki yoshlarning hayotga, muhabbatga qarashlari endi bo'lakchadir?" (T.Malik. Ishq boshqa, havas boshqa. // "Bekajon" gazetasi, 2006)

Ergash gap ham grammatik tomondan, xuddi sodda gap tiplari kabi, nisbiy tugal fikr bildiradi, o‘ziga xos ohang bilan aytiladi; o‘zida predikativlik belgilarini saqlaydi. Lekin semantik va stilistik tomondan, xuddi ikkinchi darajali bo‘laklar kabi, juda muhim uslubiy vazifa bajaradi: berilgan gap mazuniga biror aniqlik kiritadi, biror muhim o‘rinni izohlaydi, umumiy tushunchani konkretlashtiradi, mazmunni to‘ldiradi; o‘rni bilan hatto zarur badiiy vosita (o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a kabi) sifatida qo‘llanadi. Demak, ergash gapdan, avvalo, gap oldiga qo‘yilgan fikriy talab, “aloqa ehtiyoji” tufayli foydalaniladi.

Ikkinchi darajali bo‘laklar bosh bo‘laklarga qiyosan olingan termindir. Aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol bosh bo‘laklarsiz qo‘llanmaydi; ega va kesimga ergashib, doim tobe vazifada keladi. Lekin ayrim yig‘iq gaplarni istisno qilganda, aksariyat gap ikkinchi darajali bo‘laklarsiz qo‘llanmaydi. Biror gapning to‘la shaklini, tugalligini va yetakchi ma’nosini ko‘rsatishda ikkinchi darajali bo‘laklar o‘ziga xos mohiyat kasb etadi<sup>128</sup>.

Solishtiring: Men ketdim. – Men onamdan yosh yetim qoldim.

Ergash gaplar haqida ham shuni aytishga to‘g‘ri keladi. Hozirgi o‘zbek tilining hamma nutq uslublarida “*Nur borki, soya bor*”, “*Odam borki, odamlarning naqshidir*”, “*Sezdimki, rais xafa*” tipidagi konstruksiyalar ko‘p uchraydi. Har ikki qismda ham ma’lum bir maqsad bor, har biri o‘ziga xos intonatsion tugallikka ega. Lekin uslub tomondan “*Soya bor*”, “*Odam bor*”, “*Sezdim*” gaplarida nimadir, juda zarur, hukmni oydinlashtirish ehtiyojini qondiradigan bo‘lak yetishmaydi. Buni gaplarning mantiqiy yo‘nalishi ham, struktura ham, ifoda ham aniq ko‘rsatib turibdi; birinchi bosh gapga (*Soya bor*) sabab holi, ikkinchi bosh gapga (*Odam borki*) aniqlovchi, uchinchisiga (*Sezdim*) to‘ldiruvchi zarur.,,

Akademik V.V.Vinogradov rus tili faktlari asosida “*Men Moskvani bilaman*” tipidagi gaplar bilan “*bilaman(ki)*” gaplarini chog‘ishtirib, keyingi

---

<sup>128</sup> Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983. – 248 б.

tipda fikrni to'laroq ifodalash uchun zarur biror bo'lakning yetishmasligini ta'kidlaydi.

Mana shunday hollarda bosh gapda ifodalanmay qolgan, lekin fikriy aniqlik uchun juda "zarur" bo'lgan bo'lak o'rnida butun bir gap olinadi: *Men bilaman(ki), iqbol bizniki.*– *Iqbol bizniki* gapi bosh gapning *bilaman* fe'lidan anglashilgan ma'noni to'ldirish uchun xizmat qiladi.

*Iqbol bizniki* tipidagi gaplar ikki xil vazifa bajaradi: a) nisbatan tugal fikr bildiradi, o'zida predikativlikni ifodalaydi, intonatsion tugallikka ega – gap uchun xos hamma belgilari mavjud; b) lekin ikkinchi bir holatda u to'ldiruvchiga o'xshab, uning savollariga javob bo'ladi, ikkinchi darajali bo'lak uchun xos bo'lgan belgilarni ko'rsatadi. Bosh gapda ifodalanmay qolgan bo'lak o'rnini qoplab (kompensatsiya), stilistik vazifa bajaradi: fikrga aniqlik kiritadi, gap qurilishiga ma'lum daraja ta'sir etadi.

Bosh gapda ifodalanmay qolgan biror bo'lak o'rnida ekvivalent tarzida biror ergash gap olinishi mumkin.

Ega o'rnida: *Hammaga ma'lumki* (nima?), *paxtaning sifati uning tezroq terib olinishiga ham bog'liq.*

Kesim o'rnida: *U ham dongdor. Paxtachilik institutida o'qiy-di... Lekin Umarovdan farqi – u hali yosh.*– Birinchi gapda (*Umarovdan farqi*) kesim, *U hali yosh* gapi bosh gapning *farqi* degan egasi uchun kesimlik funksiyasini bajaradi.

To'ldiruvchi o'rnida: *Sen sezdingmi* (nimani?), bizning nafasdan Koinotda otgan edi nur.

Aniqllovchi o'rnida: Bir o'lkaki (qanday?), *tuproq'ida oltin gullaydi.* (O.)

Hol o'rnida: *Men osmonga qo'l uzatganda, Sayyoralar qo'nar kaftimga.*(E. Vohidov.)

Bunday konstruksiyalarda bosh va ergash gaplar semantik jihatdan bir-birining zarur elementiga aylanadi: biri ikkinchisiz qo'llanmaydi. To'ldiruvchi ergash gap bilan bosh gap orasidagi mazmuniy yaxlitlik xuddi o'timli fe'l bilan vositasiz to'ldiruvchining aloqasi kabidir: ular bir-birining mohiyatini ko'rsatadi; o'z ma'nosi bilan biri ikkinchisining tarkibiy qismiga aylanadi, ergash gap o'rin



aniqlashda ham qo'shma gap yaxlit holda olinadi. Bu fikrning isboti uchun ana shunday qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirish kifoya: ergash gap sodda gapning juda muhim yoyiq bo'lagiga aylanib, asosiy gap tarkibidan mustahkam o'rin oladi: *Ko'rdimki, komandir kelayotir.— Komandirning kelayotganini ko'rdim. Sezdimki, daryo sayoz.— Daryoning sayozligini sezdim.*

Bular stilistikada parallel konstruksiyalar nomi bilan yuritiladi. Ulardan biri (*Sening yaxshiligingni bilaman. Yiqilganni suyaydigan odamlar bor*) jonli nutqda ko'proq qo'llansa, ikkinchisi (*Bilaman: sen yaxshisan. Odamlar bor: yiqilganni suyaydi.*) badiiy va publitsistik nutqda keng tarqalgan.

Bosh gapning kesimi fe'l bilan ifodalansa, ergash gaplarga ko'proq talab bo'ladi: harakat va holatni konkretlashtirish uchun bir qator gap bo'laklari zarur bo'lib qoladi. Jumladan, o'rin va payt "harakatlarning asosiy yashash formasi" bo'lib, bosh gapda ana shu tushunchalarni ifodalovchi gap bo'laklari yashirinsa, gap mazmunining o'zi payt yo o'rin hollarining zarurligini ko'rsatib turadi va ana shu bo'laklar o'rnida payt ergash gap yo o'rin ergash gap qo'llanadi: *Sen yovni quvgan chog'da, O'q tashisam paydar-pay senga. Odam odamlikni egallab olgach (qachon?), Bir etak yulduzni to'kdi koinot.*

Badiiy va publitsistik nutqda nisbiy olmoshli konstruksiyalar ko'p uchraydi. Bunda mazmun g'oyat umumlashgan bo'ladi. Bu vaqtda ergash gap shaxs, predmet, o'rin, holat, sifat-belgilar orasidagi munosabatni qiyoslash, ularga ma'lum darajada aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi: *Kim egri bo'lsa, so'zi ham to'g'-ri emas, Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidir. (Bobir.) Kimiki mard erur, insof lozim. (Fuzuliy.) Qayga desang, qaytmay borurman.— Birinchi ergash gap bosh gap uchun aniqlovchilik, ikkinchi ergash gap bosh gap uchun ega, uchinchi ergash gap (Kimiki mard erur) bosh gap uchun to'ldiruvchi va to'rtinchi ergash gap (Qayga desang...) bosh gap uchun o'rin holi vazifasini bajargan.*

Bosh gapda ifodalanmay qolgan bo'lak o'rnida ba'zan *shu, shuni, u, unga, undan, u yerda, o'sha* kabi ko'rsatish olmoshlarini qo'llash mumkin. Bu vaqtda bosh gap shaklan to'liq gap tusini oladi, lekin mazmunda yana to'liqsizlik seziladi; bu olmoshlar ham "g'oyat umumlashgan", "mavhum" narsa-

tushunchalarni bildiradi va izoh talab qiladi. Bunday holatda ham ergash gap bosh gapning olmosh bo'lagini izohlab, uning mavhum ma'nosini ochadi: *Shun-dan xursandmanki, ular Elobodni ham bilar ekanlar. Qayerda ahillik bo'lsa, shu yerda baraka bor. Kim kinavar o'lsa, asta andin qochmoq. (N.)*

Bunday gaplar yoyiq sodda gapga aylantirilganda, ergash gap bosh gapning olmosh bo'lagi o'rnini egallaydi: *Kim istasa saltanat saxovatdir anga shart. – Saltanat istaganga saxovat shart. Kim kinavar o'lsa, ista andin qochmoq. Qasoschidan qoch. Ong bilan vijdon, avvalo, shuni taqozo etadiki, olim o'z tili va dili bilan barchaga namuna bo'lishi lozim, – Ong bilan vijdon olimning, avvalo, o'z tili va dili bilan barchaga namuna bo'lishini taqozo etadi. Odam borki, bo'rini ham soladi yo'lga. – Odam bo'rini ham yo'lga sola oladi. Qayerda navbahor yomg'iri quysa, Xushbo'y o't-o'langa qoplanadi yer. Nav-bahor yomg'iri quygan joyda yer o't-o'lan bilan qoplanadi.*

Albatta bu gaplar orasiga uzil-kesil tenglik qo'yib bo'lmaydi: hukmda, maqsadda yaqinlik bo'ladi, lekin gap tarkibida, bog'lovchilarda, demak, qo'shma gap va yoyiq sodda gap orasida ayrim tafovutlar bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida ko'rib o'tgan hodisalar stilistikaning qolaversa, matn tilshunosligining vazifasi hisoblanadi.

## **Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar**

Ushbu bob bo'yicha olib borgan kuzatishlarimiz quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Ingliz va o'zbek tillarida matnlarning funksional uslublar, tilning ekspressiv imkoniyatlari va uning qo'llanishidagi chegaralanish va xoslanishlari nutqiy jarayon tufayli namoyon bo'ladi. Tilining ijtimoiy vazifasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan funksional uslubshunoslik til va nutq dialektikasining bevosita mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

2. Nutqning vazifaviy uslublarini tadqiq etish, ularning lingvistik belgilarini aniqlash, nutq uslublarida lisoniy birliklar funksional xususiyatlarini ochish va

lisoniy dalillar asosida ularni ajrata bilish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biridir.

3. Ingliz tili publitsistik matnlarida taniqli jamoat arboblarning taxalluslari (laqabi) qisqartirilgan ismlar juda ko‘p uchraydi. Lekin qisqa shakllarning aksariyati va barcha taxalluslar o‘zbek tiliga to‘liq shaklda tarjima qilinadi, chunki o‘zbek o‘quvchilari bunday nomlarga qisqartirishni hurmatsizlik deb biladilar.

4. Ingliz va o‘zbek publitsistik sarlavhalarining ifodaliligi turli mezonlarga asoslanadi. Ingliz tilidagi sarlavha o‘zbekcha sarlavhadan ko‘ra ko‘proq so‘zlashuv uslubi so‘zlarini o‘z ichiga oladi. Maqola juda rasmiy ma’lumotga qaratilgan bo‘lsa ham, o‘quvchi e’tiborini jalb qilish uchun sarlavhada jargon so‘zlar bo‘lishi mumkin.

5. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarning morfologik xususiyati o‘ziga xosdir. publitsistik matnda egalik kategoriyasida nutq vaziyatiga mosini tanlab ishlatish uslubiy imkoniyat yaratadi. Yozuvchilar ana shu uslubiy imkoniyatdan foydalanish jarayonida o‘z mahoratini namoyon etadilar. Publitsistik matnda egalik affikslari hissiy-ta’sirchan bo‘yoq ifodalashi mumkin. Tadqiqot obyektimiz bo‘lgan publitsistik matnda egalik qo‘shimchalari o‘ndan ortiq ma’nolarni ifodalashi asoslab berildi.

6. So‘z birikmalari nutq tizimida leksik, sintaktik va grammatik sath birliklari bilan uzviy munosabat hosil qiladi va matn yaratilishining eng asosiy uzvlaridan hisoblanadi. Matnning grammatik hamda lug‘aviy shakllanishida, uni mazmunan boyitishda, semantik jihatdan kengaytirishda, fikrning to‘liq, ekspressiv bo‘lishida, matnning emotsional-hissiy, badiiy-obrazli ta’sir kuchini olishida eng muhim asosiy vazifani bajaruvchi til birligi – so‘z birikmalaridir. Xuddi mana shu vazifalarni publitsistik matnlarda so‘z birikmalari yuqori darjada bajarishi nazariy isbotlab berildi.

7. Publitsistik matnda sintaktik vositalarning qo‘llanishida o‘ziga xosliklar mavjud. Sintaktik birliklar orasida qo‘shma gaplarning stilistik vosita sifatida o‘rni nihoyatda katta. Sodda gaplar publitsistik maqolalarda asosiy sintaktik birlik sifatida, fikrni ixcham, sodda va mazmunli ifodalashga xizmat qilgan bo‘lsa,

qo'shma gaplarning ham qisman bo'lsa-da, o'ziga xos stilistik ma'noni ifodalashda ma'lum o'rni bor.

### III BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PUBLITSISTIK MATNLARDA LUG‘AVIY BIRLIKLARNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

#### 3.1-§. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarda nutqiy aktlarning faollashuvi

Kishi olamni aql-idroki va sezgilari yordamida o‘zlashtirar ekan, yangidan yangi ma’lumotlar hisobiga o‘z bilimlarini tobora oshirib boradi. U voqelik faktlariga o‘zining munosabatini bildirishi va baholashida tildan eng muhim aloqa vositasi sifatida foydalanadi. So‘zlovchi til vositasida adresatni ma’lum bir yangiliklardan xabardor qiladi, undan nima haqdadir so‘raydi, qandaydir harakatni bajarishga undaydi yoki ichki kechinmalari, ruhiy holati, his-tuyg‘ularini ifodalaydi, shuningdek, narsalarning belgi-xususiyati, kishilarning xulq-atvori, hatti-harakatiga baho beradi<sup>129</sup>. Ma’lum bir kommunikativ niyatni amalga oshirish maqsadida hamsuhbatiga ta’sir etishida muloqot vaziyatining ahamiyati katta. So‘zlovchi bundan maksimal samaraga erishish uchun kommunikativ strategiyaga amal qilishi va tanlab olingan so‘z, ibora hamda ulardan o‘rinli foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Yozuvchi har qanday asarda kitobxonga ma’lum bir voqea-hodisa to‘g‘risida ma’lumot beribgina qolmay, uning ruhiyatiga ta’sir ham o‘tkazadi, ma’lumot yetkazadi, o‘z qarashlarini targ‘ib qiladi. Bilamizki, asar ijodkorlari til birliklaridan foydalanishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Chunki, har bir ijodkorning lisoniy vositalarni tanlash va qo‘llay olish mahorati uning individual uslubini belgilab beradi. Yozuvchining o‘ziga xos uslubini o‘rganish asar matnini lingvistik nuqtayi nazardan batafsil tahlil qilish pragmatik faoliyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu turdagi tahlil har bir muallifning tildan foydalanishda o‘ziga xosligini o‘rganish, uning asar g‘oyaviy mazmunini yoritishda, voqelik motivini bayon qilishda uslubiy vositalarini qo‘llash mahoratini o‘rganish uchun xizmat qiladi. Har qanday shaxsning lisoniy birliklardan foydalanish mahorati zamirida uning kognitiv til zahirasi yotadi. Pragmatik layoqat u yoki bu shaxsning, yozuvchining individual til

---

<sup>129</sup> Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. O‘quv qo‘llanma, – Samarqand, 2013. – B. 53-54.

xususiyatlari yig'indisini umumlashtiradi. Publitsistik matnning tilini lingvopragmatik aspektda, lisoniy birliklarni turli guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin va bunda har bir lug'aviy birlikning tizimiy hamda vazifaviy xususiyatlariga e'tibor qaratiladi va tahlil qilinadi.

An'anaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, tasdiq, so'roq, undov mazmunidagi xabarlar, shuningdek, keyingi yillardagi qarashlarda esa sintaktik birliklarning emotsional va emotsional bo'lmagan ifodalar tarzida tasnif qilinishi to'g'ri sanaladi. Biroq odamlar o'rtasidagi kundalik muloqot jarayoni sinchiklab kuzatilsa, tilshunoslikda hali o'rganilishi lozim bo'lgan juda ko'p muammolar mavjudligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Jumladan, yuqoridagilardan tashqari, nutq subyekting bir olam ichki his-tuyg'ular muallifi ekanligi, aloqalaralashuv jarayonida ana shu his-tuyg'ular so'zlovchining xususiy munosabati sifatida namoyon bo'lishi, bularning so'zlovchi nutqiga xos buyruq, iltimos, va'da, ogohlantirish, minnatdorlik kabi ifoda shaklida bayon qilinishi kuzatiladi.

Nutqiy jarayonda so'zlovchi shaxsga e'tiborning tortilishi tilshunoslik tarixida katta voqea bo'ldi. Chunki yillar davomida, struktur tilshunoslikning belgining belgi bilan munosabatini o'rganishga asosiy e'tiborni qaratganligi natijasida belgining obyekt bilan, belgining subyekt bilan munosabati masalasi tilni sof "shakl" sifatida talqin qiluvchi strukturalistlar nazaridan ancha chetda qolgan edi.

Pragmalingvistika bo'yicha monografik tadqiqotni amalga oshirgan tilshunos olim Sh.Safarovning quyidagi fikri ham aytilganlarni tasdiqlaydi: "Tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa g'oyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko'rdi. XX asr davrda empirizm<sup>130</sup>, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g'oyalarni o'zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo'nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo'nalishlardan biri, albatta, pragmalingvistikadir."<sup>131</sup>

O'tgan asrning ikkinchi choragida shakllana boshlagan bu paradigmalar tilshunoslik olamida haqiqiy inqilob bo'ldi deyish mumkin, zero tilshunoslikdagi

---

<sup>130</sup> Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 10-12.

<sup>131</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 10.

bu yo‘nalishlar faqat tilning sistem tuzilishi nazariyasi atrofida o‘ralashib qolmay, tilni mavhumlikka tortib ketgan shakllardan ko‘ra uni ijtimoiy hayotdagi faol roliga e‘tibor qaratdi.<sup>132</sup> Keyingi yillarda qator tilshunoslarning diqqat-e‘tibori belgi bilan so‘zlovchi shaxs o‘rtasidagi munosabatlarga qaratilgan pragmatik lingvistika bilan chambarchas bog‘langan sohalar<sup>133</sup>ni o‘rganishga qaratildi.

Pragmatika filologiya sohasining alohida mustaqil bo‘limi sifatida dastlab tilshunoslikda shakllandi. Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o‘rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, ushbu maqsad va mazmunning og‘zaki hamda yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o‘rnini, kommunikativ ta‘sirini, so‘zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o‘rganuvchi fan tarmog‘idir. Lisoniy belgilarning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi nazariyalar qachondan beri mavjud, ammo, lisoniy hodisalarni o‘rganishga nisbatan pragmatik yondashuv XX asrning 60-70-yillaridan boshlab jadal rivojlana boshlab, bugungi kunga kelib alohida fan tarmog‘iga aylangan bo‘lsa-da, hozirgacha “ilmiy munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda”<sup>134</sup>.

Shunday ekan, bu borada tadqiqot olib borishda pragmatik rejalashtirish muhim o‘rin tutadi. So‘zlovchi yoki yozuvchi o‘z fikrlarini nutq qaratilgan shaxsga yetkazishda o‘z oldiga ma‘lum bir kommunikativ maqsadni qo‘yadi. Shunga ko‘ra u tomonidan tanlangan til birliklari ma‘lum bir nutqiy muloqot jarayonida turli lingvopragmatik vazifalarni bajarishga xoslangan bo‘ladi. So‘zlovchi o‘zi va nutq qaratilgan shaxsning ijtimoiy mavqei, jinsi, yoshi, o‘ziga yaqinlik darajasi, kasbi, nutqiy muloqot bo‘lib o‘tayotgan vaziyat, joy kabilarni hisobga olib tilda mavjud bo‘lgan birliklarni tanlaydi va o‘z kommunikativ maqsadidan kelib chiqib ularni qo‘llaydi. Tanlash imkoniyatining mavjudligi bir tomondan til birliklarini nutqning

---

<sup>132</sup> Sattorova F. Pragmatika: nazariyadan amaliyotga qadar // Ilm sarchashmalari, 2022, 1-son – B. 30.

<sup>133</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987. – 363 с.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика.–Тошкент: ЎзМЭ, 2008. –285 б.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.; Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 172 б.; Худойберганова Д. Матнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: “Фан”, 2013. – 135 б

<sup>134</sup> Қўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд, СамДҲТИ, 2015. –123 бет.

u yoki bu ko‘rinishi uchun xoslab qo‘ysa, ikkinchidan ularni ma’lum vazifalar bilan qurollantirib faoliyat sari yo‘naltiradi. Bu til birliklarining lingvopragmatik tabiatini belgilab beradi.

Tilning ijtimoiy vazifalari faqat til birliklari vositasidagina namoyon bo‘ladi. Til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlari, faoliyat birligi, ma’lumot yetkazish vositasi sifatida qo‘llanish imkoniyatlari matnda to‘laligicha amalga oshadi. Matn inson kommunikativ faoliyatining asosini tashkil qiluvchi markaziy tushunchalardan biri sifatida mazkur faoliyatning boshqa qismlari bilan muntazam munosabatda bo‘ladi<sup>135</sup>.

Matn va uning turli ko‘rinishlari o‘z mazmun-mohiyati, tuzilishi va hajmiga ko‘ra farq qilishidan qat’i nazar, so‘zlovchi kommunikativ maqsadi, nutq qaratilgan shaxsning matn mazmunini idrok etish va qabul qilib olishiga mos bo‘lishi lozim. Shuning uchun inson nutqiy faoliyatida uning hayotiy tajribasi, til birliklaridan foydalanish qobiliyati o‘z aksini topadi<sup>136</sup>.

Keyingi yillarda matnni pragmatik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda “pragmatik mazmun”, “pragmatik vazifa”, “pragmatik samara”, “pragmatik imkoniyat”, “kommunikativ maqsad”, “kommunikativ situatsiya”, “kommunikativ strategiya” (bu atamalar haqida ishning 1.3-§. Publitsistik matnni lingvopragmatik tahlil qilish tamoyillari faslida atroflicha fikr yuritilgan) kabi atamalar keng qo‘llanilayotganligining guvohi bo‘lyapmiz. Bunday atamalar matnning barcha turini tadqiq qilishda keng qo‘llaniladi.

Lingvistik tadqiqotlarning pragmatik tashkiliy-tarkibiy qismi, bizning fikrimizcha, nutqda (so‘zlashuvda) tilga oid faktlarning o‘zaro ta’siri va ularning konkret kommunikativ aks ettirilishini, ya’ni muayyan kommunikativ vaziyatda o‘rganishdadir. Shunda ushbu o‘zaro ta’sirning usullari va shakllari qo‘yilgan kommunikativ maqsad orqali belgilanadi. Kommunikativ maqsadga erishish uchun so‘zlashuvchi o‘z jumlasini shunday qilib tuzadiki, u uchun eng muhim bo‘lgan informatsiyani ta’kidlashi birinchi navbatda turishi lozim. Shu bilan so‘zlashuvchi

---

<sup>135</sup> Сузов И.П. О двух путях исследования содержания текста// Значение и смысл речевых образований. – Калинин, 1979. – 96 с.

<sup>136</sup> Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. – Москва: Наука, 1984. – 114 с.



hamsuhbatida kutilgan reaksiyani qo‘zg‘atib, unga ta‘sir o‘tkazadi. Shu munosabat bilan ta‘sirning quyidagi ko‘rinishlarini qayd qilish mumkin: hamsuhbatning xabardorligi kengayishini; uning emotsional holatidagi, nuqtayi nazarlari va baholashdagi o‘zgarishlarini; u bajargan harakatlarga ta‘siri, estetik samara.

Yuqorida aytilgan fikrlarga tayanadigan bo‘lsak, har bir matn tahlilida ana shu usuldan foydalanishimiz, mavzuga kengroq yondashishimiz lozim bo‘ladi.

*“Biodiversity is one of our main support systems for human life on earth. We rely on natural ecosystems full of diverse plants, animal and organisms for essential things like clean water, food and medicine. We need healthy forests to absorb carbon dioxide from the air.”* (Vox.com)

Tanlagan tadqiq usulimiz qay darajada to‘g‘riligini ko‘rish uchun publitsistik matn parchasi tahliliga e‘tiborimizni qaratamiz. Jurnalistning **pragmatik maqsadi** hammani ogohlikka chaqirib, ekosistemani insosniyat uchun qanchalik muhim ekanligidan xabardor etish. Ijod mahsulining **pragmatik mazmuni** adresant nutqida fikr bildirishning ko‘chma ma‘nolari, turli xil ishoralar, istioralar, shamalar, qochirimlar va hokazolar vositasida semantik-pragmatik rejani belgilab olish va semantik referensiyani birlashtirish, ya‘ni – matnning ayrim mavzuiy masalalar bilan munosabatdorligini ta‘minlash tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu matnning pragmatik mazmuni- tabiatni avaylab asrash va resurslar qadriga yetishlik. **Pragmatik samarasi** esa muloqotchilar nutqida so‘zlovchining baholash so‘zlaridan foydalanib, eshituvchiga ta‘sir o‘tkazish natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga pragmatik samara tarkibiga faqat pragmatik ta‘sir mexanizmlari emas, balki kommunikatsiya jarayonida muayyan ekstralingvistik samaraga erishish imkoniyatini ham kiritgan. Va albatta, so‘zlovchining fikr ifodalash usuli – kommunikativ taktika. Bunday holda ushbu matn pragmatik samarasi sifatida- o‘rmonlarni ko‘paytirishi natijasida ko‘zlangan natijaga erishishi bo‘ladi.

Publitsistik matnda ko‘chimlar ham pragmatik vazifa bajarishi mumkin. Ma‘lumki, so‘zlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llash dastlab, lug‘atlardagi so‘zlarning ma‘no jihatdan kambag‘alligidan kelib chiqqan bo‘lsa, asta-sekin go‘zallik va jozibadorlikka bo‘lgan ehtiyoj ularning ma‘nolarini kengaytira boradi, bu esa

xuddi kiyim dastavval sovuqdan himoyalaniş vositasi sifatida vujudga kelgan bo‘lib, keyinchalik esa kishi tanasini bezaydigan libosga aylanganiga o‘xshaydi<sup>137</sup>. Masalan, Dilmurod Quronovning “Cho‘lponning tug‘ilgan yili”<sup>138</sup> maqolasida shunday jumlar bor: 1987-yilda – Cho‘lpon asarlarini egalariga qaytarishga o‘zmoz imkon paydo bo‘lgan bir vaqtda, bu yo‘ldagi ilk *ehtiyotkor qadamni* “Yoshlik” jurnali *qo‘ydi*. Mazkur muallifning “Sharq yulduzi” jurnalining 2016-yil 2-sonida chiqqan maqolasida keltirilgan – Afsuski, faqat shugina: “aytib kelamiz”, –vassalom! – kabi jumalarda til birliklari muallif individual uslubiga xos pragmatik ma’no ifodalamoqda.

“*The climate crisis is a **stark** reality for people like Seid.*” (November 2023. NewScientist) – ushbu publististik matnda ham ko‘rishimiz mumkinki, “*reality*” so‘ziga nisbatan “*stark*” so‘zining ko‘chma “*acchiq haqiqat*” ma’nosida pragmatik talqin etilayotganini. Bu ham qaysidir ma’noda matnning o‘quvchiga yetib borishiga asos bo‘lmoqdaligini ko‘rsatadi.

Bunday xususiyat shuningdek, badiiy matnda ham ko‘proq bo‘ladi. Masalan: *Bu binoning loyihasini Bessarab dashtlarida tug‘ilib, noyob iqtidori bilan “bepoyon o‘lkam”ning poytaxtini zabt etgan, uning qoq yuragida “dunyo yo‘qsillarining dohiysi” maqbarasini ham chizmalab bergan bir me‘mor yaratgan. Qolaversa, bu kabi tarixiy obidalarning tamal toshini yengiltaklikni jini suymaydigan, har ishda haybat-u dabdabaga o‘ch mo‘ylovdor dohiyning shaxsan o‘zi qo‘ygan.* (E.A’zam).

Darhaqiqat, publitsistik matnda ifodalanadigan presuppozitsiyaning murakkab semantik tarkibi, turli vositalar orqali ifodalanishi bugungi kunda ko‘pchilikni qiziqtirib kelayotgan va tilshunoslik sohasida o‘rganilishi muhim bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, yashirin ifodalanadigan presuppozitsion ma’nolar yozuvchining mahorati, til boyliklarini qay darajada o‘zlashtirganligi va til birliklarining uslubiy imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish qobiliyatiga ham uzviy bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida matnda yashirin

<sup>137</sup> Фрейденберг О.М. Античные теории языка и стиля. – М.; Л.: ОГИЗ, Соцэкгиз, 1936.- 344 с.

<sup>138</sup> Куронов Д. Cho‘lponning tug‘ilgan yili. “Sharq yulduzi”. 2018 йил, №10-сон.

ifodalash vositalarini aniqlash uchun keng maydon bo‘la oladi, degan xulosaga olib keladi. Yozuvchining o‘z asari orqali nechog‘li implitsit axborot taqdim etish maqsadi, ifodalangan mazmunning yashirin bayonini anglash adresatning fikrlash qobiliyati hamda olam haqidagi tasavvurlari darajasiga bog‘liqdir<sup>139</sup>.

Yozuvchining mazkur hikoyadagi maqsadi – Arbob Qulovning Parijga bora olmaganligini tahlil qilish. Yozuvchi nutqiy vaziyat jarayoni kechayotgan hududda yashovchilarni tavsiflash bilan o‘quvchini navbatdagi voqealarga tayyorlaydi: *Jiydaliga qaytsak – serviqor tog‘lar etagini ishg‘ol etgan, suvi toza, havosi toza, og‘ir mehnat yo‘q, qo‘shni deparalar singari jon koyitib paxta ekmaydi, bor hunari – olmayu uzum yetishtirib, ariq bo‘yidagi soya-salqin choyxonada shuning ta‘rifini qilib, o‘shag-u cho‘pchak to‘qib o‘tirish! Dunyoning g‘urbatidan bezgan sof soyaparvar-u bekorchixo‘jasi ana shuniyam ko‘zlab kelavergan-da bu yerga. Boz ustiga deng, kechagi hukumat yo‘qsilparvarlikka da‘vogar, foyda-zararga qarab o‘tirmas, ismi qorako‘z-u ko‘kko‘zni peshonasini birday silab, bebiliska boqib olaverar edi.* (E.A‘zam “Arbob Qulov Parijga boradi”).

Parchada qo‘llanilgan “o‘shag-u cho‘pchak to‘qib o‘tirish”, “dunyoning g‘urbatidan bezmoq”, “sof soyaparvar”, “bekorxo‘ja” kabi so‘z va iboralar kishilarning faoliyati to‘g‘risida ma‘lumot bermoqda. Matnda “soyaparvar” so‘ziga nisbatan qo‘llanilgan “sof” so‘zi ishyoqmaslik semasini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Shuning uchun ularning pragmatik vazifasi baho ifodalashda reallashadi, degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, “qorako‘z-u ko‘kko‘z” so‘zlari ham pragmatik vazifa bajarmoqda. Bu so‘zlar rang ma‘nosidan ko‘ra, tuzum siyosatiga bog‘liq holda “turli millatlar” ma‘nosiga ishora qilmoqda.

“Shoirning to‘yi” qissasi mavzusi adabiyot rivojiga hissa qo‘shgan marhum otashqalb shoirning tavallud xotirasi yig‘ilishiga bag‘ishlangan. Matnda qo‘llanilgan xarakter-xususiyat va tashqi ko‘rinish ifodalovchi lisoniy birliklar personajning bosh obraz sifatida tanlanishi sabablarini izohlash vazifasini bajaryapti. Zevarga nisbatan “jussasi katta”, “gavdali”, “gumbazday” ma‘nolarini

---

<sup>139</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/nut-da-ifodalanadigan-implitsitlikning-murakkab-semantik-tarkibi>

beruvchi “gungurs”<sup>140</sup> so‘zi ifodada ixchamlikni ta‘minlashga xizmat qilgan. Qolgan personajlar portretidan ularning xarakter-xususiyati, mavqei, axloqi kabi jihatlarni ochib berishda foydalanilgan:

*Yana biri – Fe’li tarang, u ham shu uyda. Ularning yonidagi xonadonni tuman kasalxonasining dongdor jarrohi, so‘qqabosh Shundik egallagan. Bilaklariyu bet-boshini sarg‘ish mo‘y bosgan bu baroqboy ulfatchilikni xush ko‘radi, har hafta unikida “sabantuy”, boshi ochiq hamshiraginalar ertalabgacha xizmatda. Birov miq etolmaydi. Avvalo, nom taratgan arzanda do‘xtir, qo‘shimchasiga – vajohati chatoq, o‘zi ho‘kizdek keladi, tig‘i yaltillagan yarog‘ini shartta olsami yonidan!..*

Bu obrazga berilgan ta‘rifda ishtirok etgan til birliklarining vazifasini quyidagicha belgilash mumkin: “jarroh” so‘zi personajning kasbini, “so‘qqabosh” – oilaviy ahvolini, “bilaklariyu bet-boshini sarg‘ish mo‘y bosgan bu baroqboy”, “vajohati chatoq, o‘zi ho‘kizdek keladi” jumlasini – tashqi ko‘rinishni, “tarang”, “ulfatchilikni xush ko‘radi, har hafta unikida “sabantuy” – ichkilikboz va boshqa millat vakili ekanligini, “boshi ochiq hamshiraginalar ertalabgacha xizmatda” – axloqsizligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Shuningdek, hikoyada boshqa personajlar portreti ham xarakter-xususiyatiga uyg‘un holda tasvirlangan: Saraga nisbatan “g‘ozbo‘yin”, “olmabet” sifatlashlari qo‘llanilgan bo‘lsa, uning otasiga nisbatan “o‘zi xo‘ppasemiz – qizg‘ish, taram-taram lunjlariga qo‘shilib qorni ham osilib tushgan, chetlaridan bir tutam tussiz parishon mo‘y mo‘ralab turgich kaftdekkina quroqi shapka kiyib yuradigan bul ko‘rimsiz mardum” sifati berilgan.

Shuningdek, ingliz tili publististik matnlarini ham pragmatik tahlil etadigan bo‘lsak, quyidagi yangilikda nutqiy akt va matnning qay maqsadda yoritilganini anglashimiz mumkin.

Masalan: *“New laws come into effect today for Aussie workers, who will now have the right to switch off their phones and not respond to emails once their shift has ended. under the new right to disconnect laws, employees will have the*

---

<sup>140</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 525.

*right to refuse contact outside their working hours. The new laws will affect businesses with more than 15 employees.” (News First)*

Matnning asosiy vazifasi o‘quvchilarni yangi qonunchilik haqida xabardor qilishdir. Nutq akti deklarativ bo‘lib, avstraliyalik ishchilarga ta’sir qiladigan yangi qonunlar haqida ma’lumot beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatma bo‘lmasa-da, bu ibora xodimlarning yangi huquqlaridan foydalanishlari uchun yo‘l-yo‘riq shaklini taklif qiladi. Masalan, " *employees will have the right to refuse contact outside their working hours.*" xodimlarni ushbu huquqdan foydalanishga so‘zsiz rag‘batlantiradi.

Bu yangi qonunlar qabul qilinishidan oldin ishchilar ish vaqtidan keyin ham telefon yoki elektron pochta orqali aloqada bo‘lishlari kutilganligini taxmin qiladi.

Parchaning umumiy ohangi neytral va faktlarga asoslangan, ammo pragmatik elementlar o‘quvchini yangi qonunlarni ish madaniyatidagi ijobiy va zaruriy siljish sifatida ko‘rishga yo‘naltiradi. Ishchilarning huquqlarini ta’kidlab, u o‘quvchini ushbu o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash uchun nozik tarzda moslashtiradi, qonunchilikni himoya va progressiv deb belgilaydi. Bundan tashqari, avvalgi ish madaniyatining aniq tanqidi mavjud bo‘lib, bu holat adolatsiz bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Nutqda maqsadga erishish imperativ, ishontirish va moyillik uyg‘otish kabi turlardan foydalaniladi.

1. Imperativ – nutqiy ta’sirning kuchga tayangan usuli. Bu usul avtoritar nutqning asosini tashkil etadi (buyruq, qo‘rqitish, shaxsiyatga tegish va h.k.).

2. Inontirish – demokratik nutq asosini tashkil etadi va asoslash orqali o‘z qarash va nuqtayi nazarini o‘zga odam ongiga singdirish (isbotlash, tushuntirish, yo‘naltirish va h.k.).

3. Moyillik uyg‘otish – liberal nutqning asosini tashkil etadi va axborot olish istagi bilan bog‘liq (bahs-munozara, so‘roqlash va h.k.)<sup>141</sup>.

Umuman olganda, mafkura nutqida imperativ usul yetakchilik qiladi va

---

<sup>141</sup> Саидов У. Бошқарув ва нотиклик санъати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 17.

ifodalanayotgan fikrlarida buyruq, qo‘rqitish, shaxsiyatga tegish kabi ma’nolar bo‘rtib turadi. Bu jihatlar publitsistik matnlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

### **3.2-§. Publitsistik matn tahlilida so‘zning shakliy va ma’noviy turlari**

Hozirgi vaqtda tilshunoslar tomonidan gazeta tiliga katta e’tibor berilishi bejiz emas, chunki ayni unda birinchi navbatda nutqda yuz beradigan har qanday o‘zgarishlar aks etadi. Gazeta publitsistikasi matnlarini maksimal darajada ekspressivlashtirish tendensiyasi jurnalistlarning gazetxonlar bilan aloqa o‘rnatishga, ularning axborotni anglash imkoniyatlariga moslashishga va o‘zaro munosabatni yaratishga intilishi bilan bog‘liq. Fikrni ifoda etish usullarining yorqinligi va kutilmaganligi, muvaffaqiyatli til o‘yini, uslubning individualligi ko‘p hollarda matn mazmunining ravshanligi, ta’sirchanligi bilan ham ko‘proq baholanadi.<sup>142</sup>

Publitsistik matn tahlilida yozuvchi tomonidan qo‘llangan so‘zlarning shakliy va ma’noviy munosabatlari muhim o‘rin tutadi. So‘zlovchining maqsadini to‘g‘ri va estetik jihatdan jozibador tarzda ochib berish uchun so‘zlarning doimiy iste’moldagisini emas, balki estetik bo‘yoqdor shaklini qo‘llashni ma’qul ko‘radilar. N.Mahmudov “Sinonimlar til zanginligi va ranginligi ko‘zgusi” nomli maqolasida sinonimlar haqidagi quyidagi fikrni ilgari surgan: “Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatic munosabatlardan biri bo‘lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta’min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma’nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir. O‘zbek tili ana shunday qadimiy va

---

<sup>142</sup> Усмонова Ш. Медиадискурсада экспрессивлик тенденцияси// Сўз санъати халқаро журнали, 2021. – № 3. – В. 247-254.

rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan soʻz gavharlari zaxirasiga sohib tildir.”<sup>143</sup>

Leksik-semantik sinonimlar – matndan tashqari ham sinonimik munosabat hosil qiluvchi soʻzlar hisoblanib, ular semantik jihatdan bir-biriga mutlaq mos kelishi yoki maʼno nozikligiga koʻra farq qilishi mumkin. Yozuvchi asarda leksik-semantik sinonimlarning oʻziga xos koʻrinishlarini tanlaydi. Masalan: *Bu sogʻinish – sargʻayish, firoq dardidir, shoh... Buning davosi ularni oʻz vatanlariga qaytarishdir. Shundagina tirik qoladilar. Aks holda, qirilib ketgaylar, – dedi Al-Forobiy.*

“Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqilligimizning 28 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda bugungi Oʻzbekiston hayoti, orzulari, muammolari, istiqboli haqida soʻz yuritdi. Nutqda inson qalbi, koʻngli, maʼnaviyati, gʻoyasi ongimizda boʻlayotgan va boʻlishi kerak boʻlgan oʻzgarishlarga katta eʼtibor qaratdi” (“Xalq soʻzi”, 2019. №191).

“Tarjima transformatsiyasi ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, lingvopragmatik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanadi. Tarjima transformatsiyalari orasida tarjimada transformatsiyaga asos boʻlib xizmat qiladigan soʻz qoʻshish, soʻzni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kalkalash, tasviriy tarjima usullari keng qoʻllaniladi. Transformatsiyalar sonining kam boʻlishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining koʻpligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi”<sup>144</sup>

- grammatik transformatsiyalar (gaplarni almashtirish, soʻz oʻrnini almashtirish, qoʻshish va tushirib qoldirish usullari kiradi);
- stilistik transformatsiyalar (tasviriy tarjima, sinonimik tarjima, kompensatsiya (qoplash) va shunga oʻxshash usullar kiradi);
- leksik transformatsiyalar (soʻzni almashtirish, soʻz qoʻshish, aniqlik kiritish,

<sup>143</sup> Bu haqda qarang: Mahmudov N. ”Sinonimlar til zanginligi va ranginligi koʻzgusi”. Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati, 1-jild. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 5

<sup>144</sup> Швейцер А. Теория перевода ВУЗ: МЭСИ., 1988. – С. 118.

gaplarni konkretlashtirish va umumlashtirish hamda soʻzni tushirib qoldirish usullari kiradi).

Sinonimiya hodisasi tilshunoslikda atroflicha oʻrganilgan masalalaridan biridir<sup>145</sup>. Lekin tilshunosligimizning hozirgi kungi taraqqiyoti sinonimiya hodisasini nafaqat leksik, grammatik sathda, balki pragmatik jihatdan ham tadqiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, bu hodisani til va nutq bosqichida oʻzaro aloqadorlikda tadqiq etish uning oʻziga xos yangi-yangi xususiyatlarini ochib beradi. Chunki sistem leksikologiya va hozirgi semasiologiya hamda onomosiologiya tilshunoslikda mufassal tavsiflangan lugʻaviy sinonimiya masalasini yangi nuqtai nazardan tadqiq etish muammosini oʻrtaga qoʻyadi<sup>146</sup>. Shuning uchun bu hodisani til va nutq bosqichida oʻzaro aloqadorlikda hamda qarama-qarshilikda (oppozitsiyada) tahlil etish zarurati yuzaga keladi<sup>147</sup>. Til bosqichida sinonimiya hodisasi muayyan qolip sifatida mavjud boʻlib, atash va ifoda maʼnosi bilan umumiylikni hosil etadi. Masalan: Aft, bashara, yuz, oraz, chehra, jamol kabi sinonimlar atash maʼnosi bilan bir sinonimlik qatorni tashkil etadi. Masalan: “Aft” soʻzi leksik jihatdan “yuz” maʼnosini ifodalaydi. Lekin nutqiy vaziyat, obyektiv holatga bogʻliq holda baʼzan ust-bosh maʼnosini ham ifodalaydi. Chunki nutqiy vaziyatda bir bola–tinglovchi ust-boshlarini kir qilgan boʻlsa, soʻzlovchi unga nisbatan “Aftingni qara!” degan gapni ishlatadi. Obyektiv holatdan kelib chiqib, “aft” soʻzi anglatgan maʼnoni har qanday til egasi ust-boshkiyim tarzida tushunadi. Yaʼni, nutqda “aft” soʻzi oʻziga xos maʼno ifodalab, “kiyim-bosh” soʻzi bilan bir uyada birlashadi va sinonimiyani hosil qiladi. Ingliz tilida ham baʼzi shunday soʻzlar borki nutqiy vaziyatdan kelib, gapda ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi koʻzda tutiladi. Masalan: ‘handsome’ va ‘beautiful’ yoki ‘slim’ yoki ‘skinny’ va hokazo bir qator shunday soʻzlar borki nutqiy vaziyatga qarab ishlatilishi talab etiladi.

---

<sup>145</sup> Қаранг; Ҳожев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Т., 1974 йил, 3-6- бетлар; Вешл Л. М. Современная лингвистическая семантика. М., 1990 г., 151-154-стр.; Новиков Л.А. Семантика русского языка. М., 1982 г., стр-222-242.

<sup>146</sup> Тоирова Г. Лексик синонимларни ўргатишдаги муаммолар. Ўзбек тили ва адабиёти.

<sup>147</sup> Қаранг; Раҳимов У. Коса. коса тагида ним коса. Андижон. 1995 йил, 17-бет.



Adabiyotlarda sinonimlar, asosan, to‘rt turga bo‘linadi. 1. Ma’no ottenkasiga putur yetkazmay, bir-birining o‘rnida bemalol ishlatila oluvchi so‘zlar absolyut sinonim deyiladi: tilshunoslik – lingvistika. 2. Ma’no jihatdan farqlanuvchi sinonimlar semantik tipga kiradi: botir, jasur, qo‘rqmas, dadil. 3. Nutq situatsiyasi yoki kontekstda ma’nolari jihatdan bir-birining o‘rnida qo‘llana oluvchi sinonimlar kontekstual sinonim sanaladi: shoir, yozuvchi, adib. 4. Ma’no ottenkalarida emotsional-ekspressiv hissiyotni ifodalovchi sinonimlar – stilistik sinonim: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq<sup>148</sup>.

Publitsistik matnda birgina ma’noni ifodalash uchun bir necha til birliklaridan foydalaniladi. Masalan: Uchrashuvning birinchi bo‘limida darvozalar ishg‘ol etilmadi. Ikkinchi bo‘limda ham terma jamoalar bir qancha xavfli vaziyatlarni yaratsa-da, darvozalar daxlsizligi saqlanib qoldi. Shu tariqa uchrashuv 0:0 hisobi bilan yakunlandi. (<https://daryo.uz>) Mazkur matn yaratuvchisi (muxbir) so‘zni takror qo‘llanishining oldini olish maqsadida mazmunan ma’nodosh bo‘lgan birliklardan foydalangan. Bunda *ishg‘ol etilmadi, darvozalar daxlsizligi saqlanib qoldi, 0:0 hisobi, durang qayd etdi kabi birliklar matnda* JCH– 2026 saralashida O‘zbekiston Eron uchrashuvida hisob ochilmaganini ifodalaydi va bizningcha, bu birliklar nutqiy sinonim hisoblanadi. Manbalarda sinonimik so‘zlar o‘rtasidagi semantik aloqaga ko‘p e’tibor qaratiladi. Xususan, mazkur hodisa ma’nodoshlik asosida bog‘langan lug‘aviy birliklarning aniq tizimidir. Xuddi mana shu aniq semantik aloqa asosida bog‘langan leksik paradigmalar, o‘z navbatida, yaxlit bir mikrotizimni tashkil qiladi<sup>149</sup>. Publitsistik matnda qo‘llangan bunday nutqiy sinonimlarning asosiy vazifasi takrorga yo‘l qo‘ymaslik, ma’noni kuchaytirish va bo‘yoqdorlikni oshirishdan iborat. Mazkur sinonimlar bir umumiy ma’noni ifodalasa ham, shu umumiy ma’noni ifodalash darajasi nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi.

Ingliz tilida ushbu publististik matnlardan olingan misollarga qaraydigan bo‘lsak:

---

<sup>148</sup> Saidova F. Sinonimlar izohli lug‘atlarida sinonimik qatorlarni tuzish asoslari. // Zamonaviy o‘zbek tili jurnali, 2023. – № 2. – B. 137.

<sup>149</sup> Bu haqda qarang: Saфарова Р. Лексик-семантик муносабат турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 2.

“Meanwhile, at least 29 people died in a fire at a nightclub in Istanbul. The casualties were mostly workers who were renovating the building during the day. (The Economist 6.04.24);

“Tesla, delivered 386,810 vehicles worldwide in the first quarter of 2024, a decrease of 8,5% year on year and its first quarterly **decline** on that basis since 2020. investors already rattled by **slowing growth** in the electric-vehicle industry, punished Tesla’s stock. Figures from other carmakers were mixed. Ford and Hyundai reported a big rise in EV sales in America and General Motors announced a **sharp decline**. (The Economist 6.04.24)”

Ushbu keltirilgan har ikkala misollarda ham bir biriga sinonimik bo‘lgan so‘zlarning qay darajada takroriylikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin.

Nutqiy sinonimik qator a‘zolari jamiyat tomonidan zamonaviy so‘z sifatida qo‘llanadigan, qo‘llanish doirasi chegaralangan leksika (argo, jargo, varvarizm, vulgarizm, dialektal so‘zlar)dan tashkil topadi. Nutqiy sinonimik qatorlar nutqiy sinonimiya asosida yuzaga keladi va shaxsning ijtimoiy va geografik o‘rni asosida belgilanadi, shu orqali boyib yoki kamayib boradi. Masalan: abadiy – mangu – umrbod – toabad – boqiy – ilalabad.

...Ushbu ma’lumotning ma’lum darajada “rasmiy” nashr sanaluvchi barcha ensiklopediyalardan o‘rin olgani uning maqomini, ya’ni “rasmiy ma’lumot” ekanini, tegishli idoralar ma’qullagan, ehtimol, taqdim etgan ma’lumot deb tushunishga *izn beradi*. Shoirning vafoti sanasi mazkur nashrlarning deyarli barchasida 1939-yil deb ko‘rsatilganki, bu ham ma’lumotning “rasmiy”ligi haqidagi fikrlarimizni *quvvatlaydi*. Keltirilgan misolda *izn beradi* va *qo‘vvatlaydi* fe’llari matnda ma’nodoshlikni yuzaga keltirmoqda.

Ingliz va o‘zbek tillarida mutlaq sinonimlar qariyb yo‘q<sup>150</sup>

Nutqiy sinonimlari: o‘la-o‘lguncha, qiyomatgacha, qiyomatli, oxir zamongacha, dunyo turguncha, yer turguncha, tiriklik tugaguncha, hayot

---

<sup>150</sup> Тухтаходжаева Н. Бадий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) филол.фан.фалсафа.доктори дисс... - Тошкент., 2017. – Б. 74.

tugaguncha, dunyo sob bo'lguncha, dunyo tugaguncha, dunyo ado bo'lguncha, hayot tugaguncha; doimiy, doimo, har doim, uzluksiz, to'xtamasdan, har vaqt, hammavaqt, har zamon, to falak bor ekan, to bashar, tongla mahshargacha, sur chalinguncha, quyosh chiqmay qolguncha, qiyomat qoyim bo'lguncha...

Bunday (publitsistik) matnda morfologik ma'nodoshlik (Qo'shimchalar o'rtasidagi ma'nodoshlik–affiksial sinonimiya. Masalan: -siz va -be tinimsiz–betinim kabi<sup>151</sup>) bitta gap tarkibida qo'llanib stilistik vazifa bajaradi va ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan: Vaqtni *behuda* sarflamaslik, zehnni *foydasiz* ma'lumotlar bilan to'ldirmaslik lozim. (Tohir Malik)

Ba'zan publitsistik matnning ta'sirchanligi va ifodaliligini ko'rsatishda zid ma'noli (antonim)<sup>152</sup> so'zlar muhim stilistik vazifa bajaradi. Til *baxtning* ham *kulfatning* ham kaliti bo'lishi mumkin.(Tohir Malik) Leksik sathdagi zid ma'nolilik ko'proq sifat, ravish va fe'l so'z turkumlari doirasida yuzaga keladi<sup>153</sup>. E'tiborlisi keltirilgan misolda leksik antonim ot so'z turkumiga oid. Ot – sifat antisemiyasida yasovchi asos qaysi turkumda bo'lishidan qat'i nazar, antisemik munosabat yadrosini “belgi” tashkil etadi. Chunki ot turkumidagi antisemiya, asosan, mavhum otlarga xos, bunday so'zlar, odatda, belgi yoki harakatdan *mavhum otlar* sifatida xarakterlanadi. Masalan: *yovuz* – ma'lum predmetning shunday belgisi, *yovuzlik* – belgining obyektidan xoli shakli. Mazkur otlar tub so'z shaklida ham (*g'am, qayg'u, kulfat* kabi), yasama so'z shaklida ham (*ezgulik, yovuzlik, poklik, shodlik* kabi) kuzatiladi. Yasama so'z shaklida kelganda ular semantikasidagi belgi tub holatidagidan yorqinroq aks etadi, chunki bunday holatda semantik akslanish ham sodir bo'ladi: *ezgu– ezgulik, yovuz– yovuzlik* kabi.<sup>154</sup>

“Bu tipdagi antonimlarning ko'pchiligi o'zak e'tibori bilan belgi bildiruvchi so'z – sifatlarga borib taqaladi. Boshqacha qilib aytganda, sifat va

<sup>151</sup> Qarang: Xojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lugati. – Toshkent: Ўqituvchi, 1985. – B. 20

<sup>152</sup> Антонимлар деб семантик жиҳатдан умумий белгисига зид бўлган ва айни пайтда маълум лексик-семантик парадигманинг икки чўққисига жойлашган сўзларга айтилади. (Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. – М., 1964. – С. 145.)

<sup>153</sup> Norova Sh. Asqad Muxtorning badiiy til mahorati (“Chinor” romani misolida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2024. – B. 17.

<sup>154</sup> Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 29.

ravishlardan ot yasalishi ot soʻz turkumlari doirasida koʻplab yangi antonimlar paydo boʻlishiga sabab boʻladi”.<sup>155</sup>

Bu kabi antonimlarni publitsistik matndan yuzlab keltirish mumkin. Nafaqat *oʻtmish*, balki *bugungi* zamondoshlarning badiiy merosi ham juda qimmatli. Bizda *katta-kichik* rahbarlar yuqoriga koʻz tikib yashashga oʻrganib qolgan edi. (Tohir Malik, Oʻzbekiston adabiyoti va saʼnati gazetasi. 1989-yil, 10-mart.)

“Oʻzimiz oʻz ichimizda bir-birimizga har qancha *yaxshi-yomon* gap aytsak koʻtaramiz. Lekin xorijda oʻzbeklar haqida faqat yaxshi soʻzlar aytilishini istar edim.” (Erkin Vohiov, 1992-yil 17-yanvar. “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi).

Ingliz tilida: *“It was very unusual, something I have never experienced before or after,” he said.* (The Telegraph).

Publitsistik matnda baʼzan nutqiy voqelikka zid birlaklar qoʻllaniladi. Bunda holatlar koʻproq OAV efirlarida kuzatiladi. Masalan: *“Endi eʼtiboringizni mana bu xatlarga qaratsak”* (Yoshlar radiosi 4.04.20); *“Navbatni kuy va qoʻshiqqa bersak endi qoʻshiq va raqslar tinglab dam olishingizni tilagan holda siz bilan...”* (Mashʼal radiosi 24.05.2008) Keltirilgan jumalarda *eʼtiboringizni* xatlarga qaratish, *qoʻshiq va raqslar tinglamoq* (*garchi qoʻshiqni tinglamoq mumkin boʻlsa ham raqsni tinglab ham, radio orqali koʻrib ham boʻlmaydi*) kabi mantiqiy jihatdan voqelikka zid tushunchani ifodalovchi birliklar ishlatilgan.

Tohir Malik publitsistik maqolalarida lisoniy butunliklar sirasida qoʻshimchalar oʻrtasidagi oʻzaro qarama-qarshi maʼnolilik (Affikisal antonim. Affikslararo antonim: -li va -siz (kuchli-kuchsiz) kabi.<sup>156</sup>) xususiyatidan koʻp oʻrinlarda foydalangan.

Albatta, bu jumladagi antonim qoʻshimchalar oʻz oʻrnida qoʻllanib, jumlaning taʼsir kuchini oshirgan. Ushbu zid maʼnoli qoʻshimchalar bogʻlanib kelgan soʻzlarni qoʻllash natijasida yozuvchi bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan ikki tushunchani zidlash orqali tasvirning aniq, ravshan chiqishiga va ifoda

<sup>155</sup> Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг лексик-семантик табиати: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1973. – Б. 29.

<sup>156</sup> Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 20

ekspressivligiga erishgan. Lekin bir holatni nazardan qochirmaslik kerakki, *siz* va *li* qo‘shimchalari asosida yasalgan so‘zlar ba‘zan kontekstdan tashqarida antonimlik hosil qilmay qolishi ham mumkin.

Publitsistik matnda morfologik, leksik qarama-qarshilikdan tashqari frazeologik qarama-qarshilik ham ko‘p qo‘llaniladi. Masalan: Inson donoligi bilan o‘z tili va so‘zlaridan oqilona foydalansa, *insonlarning qalbidan joy oladi*. Agar til nazoratsiz qolsa, aksincha, *ko‘ngillarni qoldirish hech* gap emas. (Tohir Malik)

Frazeologik birliklarning mazmunida *parodoksal* (**Paradoks** (grekcha. paradoxos – kutilmagan (неожиданный), ajablanarli (странный) g‘alati ma’noni ifodalaydi. Xususan, 1. Fikr, mulohaza, aqliy fikrlash umum tomonidan tan olingan yoki ma’qullangan fikrga zid bo‘ladi. 2. Kutilmagan voqeylik va dastlabki tasavvurga zid. 3. Nazariy va formal mantiqqa har qanday haqiqatni zid qo‘yish kabi keng ko‘lamli ma’nolarga ega. Ma’lumki, mantiqda zidlik antonim hodisasi bilan sinonim yuradi. Ammo paradoksning antonimlardan farqli xususiyatlari uning o‘ziga xosligini anglatadi) ma’nolar mavjud bo‘ladi, badiiy matnda keng qo‘llanilib, ma’lum stilistik vazifani bajaradi. *Gapga qalpoq kiydirmoq - gapga to‘n kiygizmoq* iboralarining mazmunida parodoksal zidlik mavjud bo‘lishi bilan birga aynan transformatsiyasi natijasida bayon qilinayotgan voqea-hodisani aniq tasvirlashga imkoniyat yaratadi, stilistik mahsuldorlik oshiriladi.<sup>157</sup>

So‘z va uning ma’nolari haqida turlicha fikrlar hamda qarashlar bor.<sup>158</sup> So‘z ko‘p qirrali murakkab butunlik bo‘lib, dastlabki qarashda ikki tomoni ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, moddiy ifodalovchi – tovush tomoni, ikkinchi ma’no tomoni. So‘zning tovush tomoni tilshunoslikning fonetik-fonologik sathida tekshirilsa, mazmun tomoni o‘z xossalariga, asoslariga ko‘ra bir qancha sohalarning tekshirish obyekti bo‘ladi. Tildagi “maktub” so‘zi moddiy jihatdan m,a,k,t,u,b kabi tovushlarning o‘zaro ketma-ketligidan tashkil topgan butunlik

<sup>157</sup> Xamidova S. Ingliz va o‘zbek tillarida badiiy matn paradokslarining lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss-yasi. – Jizzax, 2024. – B.12

<sup>158</sup> Qarang: M.Қошқарий. Девону луғотит турк. Тошкент, 1960 йил; А.Нурмонов ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент, 1972 йил, 126 бет; Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 110 б.; Х.Неъматов, О.Бозоров. Тил ва нутқ. Тошкент, 1993 йил, 6-27-бетлар; Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. — М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1988. –309 с.

bo‘lganligi uchun fonetik-fonologik tahlil etiladi. Shu moddiylik asosidagi “maktub” so‘zining obyektiv olamdagi biror bir predmet bilan bog‘liq bo‘lgan ma’nosi, ya’ni *yo‘naltirilgan xabar* – Xatni ifodalashi leksikologiyada o‘rganiladi. “Maktub” so‘zining “qalam”, “suv”, “taxta” so‘zlari singari obyektiv borliqdagi predmetlik tushunchasini ifodalab, ot so‘z turkumiga birlashishi grammatikada o‘rganiladi. Ko‘rinadiki, so‘z ko‘p qirrali murakkab butunlik hisoblanadi. Shuning uchun so‘zning turli xususiyatlarini ochish va izohlashga urinishlar, qiziqishlar ko‘p.

Shubhasiz, so‘z yuqoridagi xususiyatlari bilan bir butunlikni tashkil etadi. Bu butunlik o‘zaro munosabatdorlikdagi a‘zolarining aloqa majmuasidan tashkil topgan sistemadir.<sup>159</sup> Sistema xuddi organizm singari bir-birisiz yashay olmaydigan uzvlarning murakkab qurilmasi hisoblanadi. Shuning uchun so‘zning barcha qirralari yaxlit holda tekshirilmasa, chalkashliklarga olib keladi. Bobomiz Alisher Navoiy “So‘z durredukim, aning daryosi ko‘ngildur”<sup>160</sup>, - deb so‘zning ikki xususiyatiga ishora qiladi. Haqiqatan, so‘z duru gavhar singari insonning ko‘ngil daryosida yashiringandir. Navoiy so‘zni imkoniyat sifatida til xazinasiga qarashli ekanligini ta’kidlab, uning faoliyatini nutq bilan bog‘laydi. Chunki so‘z nutqiy jarayondagina faoliyat ko‘rsatib, turlicha ma’nolarga ishora qiladi. Shuning uchun so‘z haqidagi qarashlarning ko‘pchiligida so‘z “belgi” ostida izohlangan.<sup>161</sup> So‘z biror bir tushunchaning material ifodalovchisi - qobig‘i bo‘lib, inson ongidagi yoki umumiy bilish xazinasidagi tushunchalar silsilasiga ta’sir etadi va muayyan nutqiy sharoitda turlicha ma’nolar kasb etadi. Shu jihatdan so‘z nomlash vazifasini bajaradi va o‘zi anglatgan tushunchaning mohiyatini va tabiatini ko‘rsatmaydi. Shu sababdan ma’no moddiy qobiq bilan birlashib, tushunchalar silsilasiga ta’sir etadi.

Nutqiy jarayonda so‘zlarning ma’no jilolari tushunchalar mosligi asosida yuzaga keladi. Tushunchalarning mosligi hayotiy tajribalar, umumiy bilish

---

<sup>159</sup> Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари хақида. Андижон, 1992 йил, 5-бет; Нурмонов А. Гап хақидаги синтактик назариялар. Тошкент, 1986 йил

<sup>160</sup> А.Навоий. Асарлар. 14-том. Тошкент, 1967 йил, 105 бет.

<sup>161</sup> А.Нурмонов., О‘sha manba.

xazinamizning hamda muayyan nutqiy sharoit bilan bog‘liqdir. A.Nurmonov so‘zning obyektiv olamdagi biror predmet, voqea-hodisa, miqdor, belgi, harakat, holat, jarayonlar bilan ikki xil munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi. Ya’ni, sabab-natijali (motivlangan) va shartli (motivlanmagan) munosabatlar borki, ular inson ongida aks etgandagina belgilashadi deb ta’kidlaydi. Shu sababdan bir so‘z bir vaqtning o‘zida bir qancha tushunchalarga ishora qilishi mumkinki, bu muayyan nutqiy sharoit hamda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar asosida kechadi. Masalan “gul” so‘zini eshitish orqali tushuncha paydo bo‘ladi. Tushuncha esa gulning mohiyatini, xossalarini ongda aks ettiradi. Shu so‘z anglatgan o‘simlik ma’nosi “gul – g-u-l” tovushlar ketma-ketligi bilan inson tomonidan o‘rnatilgan shartli aloqani bildiradi. Shuning uchun biz tushuncha aks ettirgan mohiyat, xossa, xususiyat asosida so‘zlarning ma’nolar jilosini hosil qilamiz. Ya’ni, gul – insonga zavq beruvchi, go‘zal, tikonli, turli rangda ochiluvchi kabi xususiyatlarini shartli (motivlanmagan) munosabatlar asosida boshqa predmetlarga tirkaymiz va gul so‘zining ma’nolar sil-silasini yaratamiz. Shartli munosabat orqali “gul” so‘zi jabr qiluvchi ma’shuqa, kasallik, yashnab ochilish, bezak kabi ma’nolarni ifodalaydi. Lekin “gul” so‘zining mohiyati, ko‘chma ma’nolariga xususiyatlaridagi o‘xshashlik asos bo‘ladi. Shuning uchun gapda bitta ma’nosi yuzaga chiqadi. Qolgan ma’nolari so‘zlovchi va tinglovchining umumiy bilish xazinasida imkoniyat tarzida turadi. Imkoniyat tarzidagi ma’nolar majmuasi so‘zning ma’no jilosini tashkil etib, mazmuniy murakkablikni yuzaga keltiradi. Shu sababdan so‘z o‘zaro aloqadorlikdagi uzvlar majmuasidan tashkil topgan butunlik deb izohlanadi<sup>162</sup>. A.Navoiy so‘zning bunday xususiyatini “... jomi maoniyi juzv va kuldur” deb ko‘rsatadi.

Keltirilgan qarashlar va mulohazalarning hammasi tilning nechog‘lik murkkab “tizim” ekanligidan dalolat beradi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar miqdori bilan emas, so‘zlarning leksik ma’nolari miqdori bilan ham o‘lchanadi.

Olimlarning tarjimaga bergan tavsif va ta’riflarga yondashgan holda

---

<sup>162</sup> Nurmonov А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. Андижон, 1992 йил; Нуъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент, 1993 йил; Э. Бенвенист *Общая лингвистика*. –М.: УРСС, 2002. –448 с.

tarjimani quyidagicha izohlash mumkin: tarjima asliyat matnidagi og‘zaki yoki yozma shakldagi har qanday so‘z, gap, matn va hokazolarni, asliyat va tarjima tillarining lingvistik: sintaktik, semantik, stilistik xususiyatlari hamda ekstralingvistik: lingvokulturologik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjima tiliga olib o‘tish jarayonidir. Demak, tarjima ikki tilning o‘zaro lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ijodiy jarayon hisoblansa-da, insonlar tomonidan yaratiladigan og‘zaki nutqdagi yoki yozma shakldagi matnlar, jumladan, hajviy matnlarda biror tilning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlaridan tashqari ekstralingvistik xususiyatlar ham aks etadi<sup>163</sup>.

Polisemiya (ko‘p manoli so‘zlar) har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Polisemiya odatda muayyan narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakat nomini boshqa narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakatga ko‘chirish usuli bilan voqelanadi. Polisemiya hodisasi o‘zbek tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan. Ko‘p ma’nodlilik turkiy tillar tabiatiga xos hodisa bo‘lib, aksariyat turkiy so‘zlar ko‘chma ma’nolarda kelish xususiyati bilan farqlanib turadi. Ko‘p ma’noli so‘zlarda semantik ko‘chishlar metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik asosida yuzaga keladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarda ko‘p ma’noli so‘zlar qo‘llanishidagi tafovutlar xususidagi tahlillarni amalga oshiramiz hamda ko‘p ma’noli so‘zlardan ayrimlari haqida o‘z fikrlarimizni bayon etamiz.

Dastlab publitsistik matnidagi belgi bildiruvchi so‘zlarning ko‘p ma’nodlilik xususiyatlarini tahlil etamiz. Masalan: Biz *boy* emasmiz, ammo himmatlarga *boy* xalq farzandlarimiz. (Erkin Vohiov, 1992-yil 17-yanvar. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi). Mazkur gapda belgi bildiruvchi (sifat so‘z turkumiga oid) *boy* so‘zi ko‘p ma’nodlilikni yuzaga keltirmoqda. BOY 1. Mol-dunyosi, davlati, boyligi ko‘p; davlatmand, badavlat. M: Boy odam; 2. Biror narsasi, jihati, xususiyyi yetarli darajada, to‘la-to‘kis, bekam-u ko‘st. O‘tgan har bir kun serzavq, sermazmun, turli voqealarga boy bo‘ldi. (Gazetadan)

So‘zning ma’nolar jilosi nutqda namoyon bo‘ladi. Chunki so‘z imkoniyat

---

<sup>163</sup> Йўлдошев У. Бадиий таржиманинг лингвостилистик ва лингвокультуролик хусусиятлари. Монография. Самарқанд: – “Самарқанд давлат чет тиллар институти” нашриёти, 2022. – Б.35



sifatida tilda mavjud bo'lsa, faoliyat sifatida nutqda ishtirok etadi. Nutqdagi so'zning ishtiroki cheksiz va chegarasizdir. So'zning faoliyatini A.Navoiy quyidagicha izohlaydi: "Ko'nguldin dog'i so'z durri nutq sharafiga sohibi ixtisos vasilasi bilan guzorish va oroyish ko'rguzar va aning qiymati ham martabasi nisbatiga boqa intishor va intihor topar. Gavhar qiymatiga nechukki, marosib asru ko'pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo'lur"<sup>164</sup>. (Mazmuni: Ko'ngildan yana so'z duri nutq martabasiga mutaxassis vositasida naql qilish orqali tartiblanadi va uning qiymati ham martabasining nisbatiga qarab tarqaladi hamda shuhrat topadi. Gavhar qiymatiga nisbatan juda ko'pdir, hattoki, bir diramdan yuz tumangacha desa bo'ladi). Ko'ngil til xazinasida bo'lsa, nutq til xazinasidagi boylikni sarf qiluvchi bozordir. Bozorga yaxshi narsalarni tartib qilish savdogarning mahoratiga bog'liq. Shuning uchun nutqiy barkamollik so'zlardan o'rinli foydalanish asosida yuzaga keladi. Bundan shu narsa anglashiladiki, nutq imkoniyat sifatidagi til asosida biror shaxsning maqsadini (keng ma'noda) ro'yobga chiqarish mahsulidir.<sup>165</sup> Bu holat so'z ma'no jilolarining "nutq martabasida oroyish" topishini tahlil qilinganda yana ham tushunarliroq bo'ladi.

Shakldoshlik hodisasi til ilmida omonimiya atamasi ostida izohlanadi.<sup>166</sup> Bunda lisoniy birliklar moddiy qobig' - shakliy jihatdan o'xshash bo'ladi, lekin ma'no jihatdan boshqa-boshqa xususiyat kasb etadi. Yoki moddiy qobig'i bir xil bo'lishi shakldoshlikni keltirib chiqaradi. Masalan: ot-ism, ot-hayvon, ot-fe'l. Shakldoshlik ham so'zning ma'no jilolarini namoyish qiluvchi lisoniy hodisalardandir. Chunki shakldoshlik moddiy qobig' jihatdan o'xshash bo'lganligi uchun nutqda ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. Natijada nutqiy ravonlik paydo bo'ladi. A.Navoiy shakldosh so'zlardan ustalik bilan foydalanib, quyidagicha misralar yaratganki, unda ham shakliy, ham mazmuniy go'zallik aks etgan:

1. Yo rab, ul shahdu shakar yo labdurur,

Yo magar shahdu shakar yolabdurur.

Jonima payvasta novak otqali

---

<sup>164</sup> Нурмонов А. О'sha manba.

<sup>165</sup> Неъматов Х., Бозоров О. О'sha manba.

<sup>166</sup> Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 267 б.

G'amza o'qin qoshiga yolabdurur.

2. Javr o'qin jonimga soqiy yozmadi,  
Vasl jomidin xumorim yozmadi.  
Kimki qudrat sabzaxotlar ishqidin  
O'zga ish olinga go'yo yozmadi.

Shakldoshlik tashqi ko'rinish jihatdan bo'lganligi uchun tovushlar silsilasida aks etadi. Shuning uchun ko'pgina ilmiy talqinlarda "tovushdoshlik" atamasi ostida ham izohlanadi.<sup>167</sup> Ammo tovushdoshlik shakldoshlikni ta'minlovchi asos bo'lib, ko'pincha bir tovush bilan farqlanuvchi til birliklari uchun ishlatiladi. Masalan: dub-bup, tup-tup. Tilshunoslikda omofon atamasi ostida izohlanadi. Bu hodisa ham nutqiy ravonlikni va shakliy hamda mazmuniy go'zallikni yuzaga keltiradi. Nutqiy go'zallikni ta'minlovchi omillardan yana biri zidlanishdir.<sup>168</sup>

Olima D.Teshayeva gazeta matnlarining funksional-stilistik xususiyatlari faqatgina so'zning ma'nodoshligi, zidlanishi va shakldoshligi asosida yuzaga kelmaydi balki, zamonaviy gazetada ekspressiv kontekstlar yaratishda oxirgi paytlarda okkazional so'z yasash, perifraza, turli stilistik bo'yoqdorlikka ega bo'lgan so'zlarni suqishtirish, trop va figuralarni, frazeologik iboraning transformatsiyasi, turli xildagi so'z o'yinlari va boshqalar asosida ham yuzaga kelishini ko'rsatib o'tgan<sup>169</sup>.

Umuman olganda publististik matnda so'zning shakily va ma'noviy turlaridan qay darjada qo'llanilganligi, bu o'sha matnning omma e'tiborini tortishi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

---

<sup>167</sup> А.Рустамов. Сўз хусусида сўз. Тошкент, 1987 йил. 13-бет

<sup>168</sup> А.Рустамов. О'sha manba. 14-22-бетлар.

<sup>169</sup> Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: 2012. –48 б.

### 3.3-§. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarida o‘zlashma frazeologizmlarning lingvopragmatik tahlili

Ma’lumki, har bir til asosan o‘z lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi negizida ichki taraqqiyot qonunlari asosida o‘sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, u yoki bu til jamoalarining aloqasi natijasida bir til ikkinchisini boyitib boradi.

Publitsistik matnlarga turg‘un iboralar, iqtibos, maqol va matallar o‘zgartirilishiga imkon beruvchi so‘z o‘yini, hazillar, kalamburlar, turli trop va figuralarning kiritilishi gazeta tilida ekspressiyani oshirishning yana bir vositalaridan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy matbuot tilining nafaqat sintagmatik, balki so‘z yasash miqyosida ham innovatsionlilik, innovatsiyaga qaratilganligi uning oshkoraviy farqlovchi xususiyati hisoblanadi<sup>170</sup>. Buni quyidagi misollar isbotlaydi:

Mazkur bo‘limda publitsistik matnda o‘zlashma iboralarni kimning nutqida?, qanday muhitda?, qay maqsadda?, o‘rinli-o‘rinsiz qo‘llanilishi kabilar haqida fikr yuritiladi.

Xalqlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli bir til qurilishiga xos elementlar (asosan lug‘aviy birliklar, qisman grammatik va fonetik birliklar) ikkinchi bir tilga o‘tib, o‘sha tilning mulkiga aylanadi. Ana shu nuqtayi nazarida o‘zbek lug‘at tarkibini ikki qatlamga ajratish mumkin:

*a) o‘z qatlam, b) o‘zlashgan qatlam.*

“*O‘z qatlam*” deyilganda asli shu tilniki bo‘lgan so‘zlar, iboralar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek o‘z affiks bilan boshqa til leksemalaridan hosil qilinadigan yasalishlar tushuniladi. O‘z va o‘zlashma qatlam tushunchasi leksema o‘zlashtirishga ham, frazeologizm o‘zlashtirishga ham bevosita aloqadordir<sup>171</sup>. Tilshunos olim Shavkat Raxmatullaev o‘zbek tilshunosligida o‘zlashma frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri sanaladi. Olimning 1957 yilda ilmiy to‘plamlardan birida nashr etilgan maqolasi “Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi

<sup>170</sup> Присяжнюк Т.А. Характеристика речевого воздействия в языке информационных газетных сообщений // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2009. № 2 (4). С. 205-207

<sup>171</sup> Юлдошов Б., Адашуллаева Г. Ўзбек тилида ўзлашма фразеологизмларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Монография. – Самарқанд СамДУ нашри. 2012. –Б.27

o‘zlashtirma frazeologik birliklar haqida” deb nomlangan edi<sup>172</sup>. Bu maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni o‘z iboralar va o‘zlashgan iboralar deb ikkiga ajratib tahlil qiladi. Maqolada o‘zlashgan iboralar deyilganda “boshqa tillardan o‘zbek tiliga olingan frazeologik birliklar” tushuniladi. Ana shunday iboralarni shoir va yozuvchilar publitsistik asarlarida ham mahorat bilan qo‘llagan hamda o‘z nutqlarida qo‘llagan. Masalan: *suvdan quruq chiqmoq; dilini siyoh qilmoq, ancha suvlar oqib ketdi* kabi. Erkin Vohidov rus tilidan o‘zlashgan iboralardan foydalangan: *знать (узнать) как свои пять пальцев* – besh qo‘lday bilmoq. Hamma xayollaringiz, hamma niyatlaringiz menga *besh qo‘lday* ayon. (E.Vohidov). Arab tilidan o‘zlashgan iboralardan foydalanilgan: Arabcha “mot” o‘lim, o‘lish, o‘ldirish, yengilish ma’nolariga ega. Shunda sen uni farzinga o‘xshatgan eding. Mana o‘sha farzin, piyodadan chiqqan farzin o‘zingni *mot qilib* turibdi. (E.Vohidov). Bundan tashqari adib fors-tojik tilidan o‘zlashgan iboralardan ham ko‘pgina o‘rinlarda foydalangan: *du dahan* – *ikki og‘iz so‘z*. Masalan: U kishining doim vaqti ziq. Bir narsa so‘ragani kelsak ham *ikki og‘iz so‘z* bilan javob berib, haydagandek qilib jo‘natadilar. *Dast mondan* – *qo‘l qo‘ymoq*. Bo‘lmasa oldin mana bu qog‘ozga – keldi, tuzatdi, deb *qo‘l qo‘yib* bering. *Go‘sh andoxtan* – *quloq solmoq*. Mana bu sayrashga *quloq sol!* Quloqlaring orom olayaptimi?

Fransuz frazeologiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan tilshunos A.G. Nazaryanning ta‘kidlashicha, –Frazeologizm mustaqil til birligi bo‘lib, u tarkibiy qism, so‘z birikmasi va gapga nisbatan to‘liq va qisman semantik o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Tilning mustaqil birligi frazeologizm fonema, morfema, so‘z kabi boshqa til birikmalariga nisbatan murakkabroq bo‘lib, leksik, grammatik va ayniqsa, semantik jihatdan o‘ziga xos tuzilishga egadir. Ular esa frazeologizmlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynab, milliy xarakterni namoyon etadi<sup>173</sup>. Ingliz tilida ham ba‘zi shunday o‘zlashgan iboralarni uchratishimiz mumkinki, ular manodorlikni oshirish, o‘quvchilarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun fransuz tilidan **déjà vu**-ilgari shu holatni ko‘rgan

<sup>172</sup> Раҳматуллаев Ш. Хўзирги замон ўзбек тилидаги ўзлашма фразеологик birliklar хақида // Ўрта Осиё университетининг илмий асарлари. CIV чикиши Ўзбек филология масаллари Тошкент 1957. 25-27 б.

<sup>173</sup> Назарян А.Г. Почему так говорят по французски. – М., – С.5.

